

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ



**ДЕКАБРЬ
2020**

ТОШКЕНТ, ЎЗБЕКИСТОН



**МАТЕРИАЛЛАР
ТЎПЛАМИ**

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

www.conferences.uz



**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилилари [Тошкент; 2020] 1 декабрь 2020 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 1146

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилилари бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf_12/05/2020

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

www.conferences.uz

Таҳририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Саидович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джураев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатолевич Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, ф.ф.д.
- 12.Муслимов Нарзулла Алиханович. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Батировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садиқова Альбина Венеровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдуазимов Азиз Абдусобирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Рахимова Гулсанам Аширбековна Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиёв

Контакт редакций журналлов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел:(+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email:info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

Norberdiyeva Muyassar Sharipovna TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASIDA KISLORODLI ORGANIK BIRIKMALAR MAVZUSINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH.....	7
Kamilova Sabohat Kavuljonovna UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION KUTUBXONALAR FAOLIYATI AFZALIKLARI.....	10
Jo'raeva Barno Abduxalilovna OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KIMYOVIY TEKNOLOGIK KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	13
Abdullayeva Mazluma Sadikovna, Erkinova Sevinch Jamshidovna O'ZBEGIM QIZLARI.....	16
Quvonova Shaxnoza Saitmuratovna HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI.....	19
Raxmankulova Dilora Gulomovna ZAMONAVIY TA'LIMDA ASTROFIZIKA TARAQQIYOTI.....	22
Toshmurodova Sarvinoz, Mavlonova Madina O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI.....	25
Umida Nishanova Nurmuxammadovna TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI TARIXINI O'RGANISH.....	28
Aliyeva Ravshanoy Zaripovna, Shamsiyeva Mahfuza YOSHLAR TARBIYASIDA AMIR TEMUR MA'NAVIY MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	31
А. Кудрявцев "ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО КУРАТОРСТВА".....	33
Кўчқаров Абдулазиз Абдурахимович, Сафонова Надежда Анатольевна, Маткаримова Гулбахор Рустамовна ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА МАДАНИЯТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	35
Исмоилова Дилдора Эркиновна "ТЎПЛАМЛАР ВА УЛАР УСТИДА АМАЛЛАР" MAVZUSINI ЎҚИТИШДА ПАЗЛ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	38
Исмоилова Дилдора Эркиновна МАТРИЦАЛАР УСТИДА АМАЛЛАР MAVZUSINI ЎҚИТИШДА "3X4" ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	41
Rasulova Zilola Durdimurotovna PEDAGOGIK FAOLIYAT YONDASHUVI ASOSIDA MODULLI O'QITISH TEKNOLOGIYASINING USUL VA SHAKLLARI.....	44
Ибодова Севарабону Тўхтасиновна ТЕНГЛАМАЛАР СИСТЕМАСИНИ ЕЧИШ УСУЛЛАРИ MAVZUSINI ЎҚИТИШДА БУМЕРАНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	47
Ибодова Севарабону Тўхтасиновна АНИҚ ИНТЕГРАЛЛАР MAVZUSI АМАЛИЙ МАШЎУЛОТИДА "КИЧИК ГУРУХЛАРДА ИШЛАШ" МЕТОДИ.....	50

Рашитходжаева Зульфия Аллаходжаевна МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ИНФОРМАТИКИ: ИНТЕГРАЦИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И ИНФОРМАТИКИ.....	53
Султанов Дилшод Миркамилович ҚАЙТА СУҒУРТА МУНОСАБАТЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА СУҒУРТА МАҲСУЛОТЛАРИ ТАСНИФИНИНГ КҲП ҲЛЧАМЛИ УНИВЕРСАЛ МАТРИЦАСИНИ ТАДБИҒ ЭТИШ ЙҲЛЛАРИ.....	56
Меражов Nursaid Ikrom o'g'li UZLUKSIZ FUNKSIYALAR MAVZUSINI O'QITISHDA "SHARXPALAK" TEKNOLOGIYASINI QO'LLASH.....	62
Меражов Нурсайд Икром ўғли ДЕТЕРМИНАНТЛАР МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА "ЗИНАМА-ЗИНА" МЕТОДИ.....	65
Farmanova Shoira Bobanazarovna KIMYO FANLARI SOHASIDA METALLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA O'RTA OSIYO OLIMLARI TOMONIDA AMALGA OSHIRILGAN TUB IZLANISHLAR.....	68
Умарова Умида Умаровна МУКАММАЛ ДИЗЪЮНКТИВ ВА КОНЪЮНКТИВ НОРМАЛ ШАКЛЛАР МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА "НИЛУФАР ГУЛИ" ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	72
Отамуродов Фармон Рашидович ФОРМУЛАЛАРНИНГ НОРМАЛ ШАКЛЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	75
Умарова Умида Умаровна, Нуриддинова Ферангиз Шамсиддин қизи "МУЛОҲАЗАЛАР АЛГЕБРАСИ ФОРМУЛАЛАРИ" МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	78

ФИЛОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИ

Xusanova Oydiyoy Arabjon qizi, Uktamova Navruza Botir qizi CHALLENGES WHICH LEARNERS COME ACROSS WHILE LEARNING UNKNOWN DIALECTS, PROBLEMS WITH INTERLANGUAGE.....	81
Sobirova Dilnoza Rasulovna MAQOLLARDA "BAXSHI" VA "MULLA" SO'ZLARINING QO'LLANISHI.....	85
Ahmadaliyeva Shahnoza Omonillayevna ADABIYOT DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	87
Meliyeva Gullola Akbarjon qizi "HIBAT-UL HAQOYIQ" ASARI.....	90
Ubaydullayeva Farogat Shermamat qizi DEVELOPING SPEAKING SKILL.....	92
Uchkurova Shakhnoza Shavkatovna IMPORTANCE OF THE ASSESSMENT QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	94
Zoyirova Go'zal Nematovna O'ZBEK YOZMA ADABIYOTIDA DOSTON - MARSIYA JANRI.....	96



Аскарова Ш.И. РАСПРЕДЕЛЕНИЕ КАТЕГОРИИ РОДА ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ НЕМЕЦКО-РУССКИМИ ДЕТЬМИ БИЛИНГВАМИ.....	102
Амриддинова Н.Ш., Турсунова Ч.Т ИДИОМАТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПТЫ И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА.....	104
Shamsieva Mahfuza Quchkarxodjaevna, Inamov Dilmirza Dedamirzaevich MUAMMOLI TA'LIM METODI- SAMARALI O'QITISH USULI SIFATIDA.....	107
Mustafova Dilfuzaxon Shuxrat qizi THE COMPARISON, INTERPRETATION AND ELUCIDATION OF SOME UZBEK AND ENGLISH PROPER NAMES.....	109
Самиева Сайёра Нейматовна ЧЕТ ТИЛ ГРАММАТИКАСИНИ ХҒИТИШ МЕТОДЛАРИ.....	111



ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASIDA KISLORODLI ORGANIK BIRIKMALAR MAVZUSINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH

Norberdiyeva Muyassar Sharipovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti kimyo fani o'qituvchisi
shari.povamuyassar@gmail.com

Annotatsiya: Har tomonlama rivojlangan shaxsning tarkib topishi uchun avvalo, ham ma'nan ham jismonan sog'lom bo'lishi, yuksak saviyadagi, sifatli ta'lim-tarbiya olgan bo'lishi kerak. Organik olam doimo taraqqiyotda bo'lar ekan, inson ham doimo izlanishda, tadqiqotda bo'ladi, yangiliklarni ochishga, hayot farovonligini yaxshilashga harakat qiladi. Shunday ekan, hozirgi zamon o'quvchilari ham fan asoslari bo'yicha chuqur bilim olish, fan yangiliklarini egallash, mustaqil fikrlash, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga harakat qiladi. O'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirishda ya'ni talimning samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan informatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirgan xolda innovatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarbdir, bu esa o'z navbatida tabiiy fanlar integratsiyalashgan ta'lim tizimning jadal shakllanishiga zamin yaratadi.

Kalit So'zlar: Integratsiya, pedagogika, kimyo fanlari, kimyoviy birikmalar, kislorodli organik birikmalar.

Ta'limni sub'ektiv asosga o'tkazish uchun sub'ektiv asos "talabaga uning motivatsion sohasini rivojlantirish, aql-zakovati, moyilligi, mustaqilligi va o'quv-bilish faoliyatini o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini ta'minlaydigan metodologiyani talab qiladi. Ko'plab metodistlarning sa'y-harakatlari ushbu muammoning yechimini topishga, o'qitishning yangi shakllari va texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ulardan biri integratsiyalashgan mashg'ulotlardir. Integrativ ta'lim zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika - boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi fan informatika. Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ ta'limning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o'quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Integratsiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin.

1. Tematik (mavzuiy) integratsiya
2. Muammoli integratsiya



3. Konseptual integratsiya

4. Nazariy intergratsiya

Mavzuiy integratsiyada ikki uch xil predmet bitta mavzuni (Jumladan kislorodli organik birikmalar mavzusi misolida) ochib beradi. Bu darajani illyustrativ - tavsifiy deb atash mumkin. Bitta muammoni har xil predmet imkoniyatlari bilan yechish, muammoli integratsiya bo'ladi. Konseptual integratsiyada har xil o'quv predmetlarning vosita va uslublari yordamida bitta konsepsiya ko'rib chiqiladi. Har xil nazariyalarning o'zaro falsafiy singishi nazariy integratsiya hisoblanadi. Integratsiyalash AKT vositalari yordamida nazariy ma'lumot yoki kerakli slaydlar namoyishi o'tkaziladi. Mavzularni o'tayotganda fanlararo uyg'unlik ko'zga tashlanadi.

Integrativ usullar kislorodli organik birikmalarni o'rganish tadqiqotning quyidagi bosqichlarida ishlatilgan: 1) aniqlangan tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning holatini nazariy jihatdan o'rganish, tadqiqotning maqsadi, predmeti, vazifalari, farazini aniqlash, o'qituvchilarning kimyo o'qitish jarayonida modulli dasturlarning elementlaridan foydalanish bo'yicha amaliy tajribasini o'rganish, ishtirokchilarning munosabatini tahlil qilish imkonini berdi. O'quv jarayoni modulli dasturlarga; 2) "Kislorodli organik birikmalar" mavzusi bo'yicha modulli mashg'ulotlarning kontseptual modelini ishlab chiqishning nazariy bosqichi, eksperimental materialni pedagogik eksperimentga tayyorlash; 3) kimyoviy ta'lim dasturning sifatini nazorat qilish bosqichi; 4) tavsiya etilgan ishchi gipotezani sinash maqsadida pedagogik eksperimentni tashkil etish va o'tkazish uchun eksperimental bosqich; 5) pedagogik eksperiment natijalarini tahlil qilish va talqin qilish, butun o'rganish natijalarini umumlashtirish, ilmiy xulosalarni shakllantirish uchun yakuniy bosqich. Kimyoviy kislorodli organik birikmalarni o'rganish jarayonida kislorodli organik moddalar uchun kimyoviy dasturni, shu jumladan tarkibni aniq qayta ishlashni va yetarli faoliyatni, shuningdek doimiy ravishda bosqichma-bosqich nazoratni ishlab chiqish bo'yicha ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan integrativ dars, o'z-o'zini boshqarish darajasining oshishiga va bilim samaradorligini rivojlanishiga, shuningdek o'qitish samarali natijalarga erishishga olib keladi.

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi kimyoviy integratsiyalangan dars va kontsepsiyasi -noan'anaviy ta'lim texnologiyalarning uslublarini qo'lashni taqazo etmoqda. Noan'anaviy ta'lim - talabalarni o'z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funktsiyalarni bajaradi. Kislorodli organik birikmalar mavzusini o'tish jarayonida agar mashg'ulot odatdagi - faqat tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda, talabalar axborotning ko'pi bilan 20 - 40 foizini o'zlashtirgan bo'lsa, ilg'or pedagogik yani interfaol usullardan foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan. Noan'anaviy kimyo ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, kimyo o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning sababli ham u, rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali interfaol usullaridan foydalanib kislorodli organik birikmalarni mavzusi Interfaol usulda o'tilgan dars natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zlashtirishning sifat ko'rsatkichi 81-85% ni tashkil etdi. O'zlashtirmagan talabalar bo'lmaydi. Demak, interfaol usulda dars o'tilganda talabalarning barchasini mavzuni o'zlashtirishga erishganligini tajriba natijalari ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirkomilov SH.M., Omonov X., Raxmarullayev N.G '. Kimyo o'qitish metodikasi.



Т.: "Moliya iqtisod". 2013.

2.М.Нишонов, Ш.Мамажонов, В.Хужаев. Кимё ўқитиш методикаси. Т-2002.

3.Lutfullayev U. Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. Т.: 2013



UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION KUTUBXONALAR FAOLIYATI AFZALIKLARI

Kamilova Sabohat Kavuljonovna

TATU Elektron kutubhona va arxivlar fakultet
601-19 guruh 2-kurs magistratura talabasi.
kamilovasaboxat55@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlanish har qanday inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lganidek, hozirgi kunda mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi, islohotlarning ahamiyati va mustaqillikning mohiyatini ochib berishda kutubxonalarning o'rne muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa hozirgi axborot, fikrlar va g'oyalar kurashi davrida maktablar oldiga ham muayyan vazifani qo'yadi. Ya'ni maktab o'quvchisi kerakli bilimlarni mustaqil ravishda olish, ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil, tanqidiy fikrlash, axborot bilan savodli ishlash, olayotgan axborotni mantiqan tahlil qila olishi lozim. O'quvchilar bilim saviyasiga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotganligi ularning turli xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojini ham oshirmoqda. Shu maqsadda, umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini innovatsion rivojlantirish va tashkillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar: umumiy o'rta ta'lim tizimi, ta'lim muassasasi, ta'lim sifati, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, innovatsion kutubxona, zamonaviy kutubxona, zamonaviy kitobxon.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlar ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda, ularning erkin ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Muxtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - albatta yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin" [1] degan so'zlari ham, yurtimizda yoshlarga ularning ta'lim tarbiyasi qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. Yoshlarning ta'lim tarbiya olishida birinchi galda oila muhim rol o'ynasada, yoshlar o'zlarining eng ko'p vaqtlarini maktabda yoki oily o'quv dargohlarida o'tkazishganliklari uchun ham maktab kutubxonasi o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiyasida asosiy o'rini egallaydigan maskanlardan biri hisob lanadi.

Maktab kutubxonasi - bu qobiliyati va bilim saviyasidan qat'iy nazar foydalanuvchilarga tenglik asosida, ularning ehtiyojlariga muvofiq tarzda xizmat ko'rsatadigan makondir[6]. Kutubxonachining bu jarayondagi vazifasi kitobxonga ko'proq mos keladigan usullar strategiyasini yaratishdan iborat. Bundan tashqari maktab kutubxonasi - bu o'qituvchilar va o'quvchilarning bilim olish, bilimlarini mustahkamlaydigan, ularga ilmiy maslahatlar beradigan va, bolalarning axborot olishga doir bilim va ko'nikmalarini takomillashtiradigan asosiy maskan hisoblanadi. Shu maqsadda, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlar umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini ham zamonaviy talablar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, takomillashtirish talabini kun tartibiga qo'ymoqda. Negaki, ular ta'lim tizimi mazmuni va shaklan yangilanayotgan bir pallada hosil bo'layotgan kuchli informatsiya oqimini qabul qilish, jamlash va o'z o'rnida ularni keng jamoatchilik, o'qituvchilar hamda o'quvchilarga eng manzur yo'llar bilan taqdim etishdek muhim vazifani bajarishlari lozim. Bu birinchi galda o'quv adabiyotlari, me'yoriy hujjatlar, metodik qo'llanmalar va



bevosita ta'lim jarayoniga taaluqli bo'lgan boshqa manbalar hisoblanadi.

O'quvchilarning axborot olish texnologiyalaridan yanada samaraliroq foydalanishlari natijasida turli xil o'quv fanlarini o'zlashtirishda va yangi ko'nikmalarni egallashda muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, ularga kompyuter saboqlarini o'zlashtirishlarida ham yordamchi hisoblanadi, chunki o'quvchilar ayrim masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanar ekanlar, axborot olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarnigina emas, balki malakalarni ham egallaydilar, axborotni qidirib topish jarayonining o'zi haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar.

O'quvchi yoshlarni kitobxonlikka yanada qiziqishini ortirish maqsadida, respublikada mavjud bo'lgan maktab kutubxonalari tomonidan bolalarni kitobxonlikka o'rgatish, ijodiy faoliyatga jalb etish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, ma'naviy komil shaxs etib shakllantirish borasida ma'lum ishlar bajarilmoqda. Jumladan, fanlar oyliklari, ma'lum sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan anjumanlar, turli mavzularda tashkil etiladigan ko'rgazmalar, yangi kitoblar taqdimoti kabi ommaviy tadbirlar yil sayin o'quvchi va o'qituvchilarni maktab hayotining ajralmas qismiga aylantirib bormoqda. Respublika miqyosida bir necha yillardan buyon "Eng yaxshi maktab kutubxonasi", "Eng yaxshi kitobxon - kitoblar bilimdoni" ko'rik-tanlovlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda[3]. Bu maktablar kutubxonalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishda muhim vosita bo'lmoqda. Lekin bularning barchasi to'laqonli kutubxona faoliyatini tashkil qilishda yetarli omil hisoblanmaydi. Muammolar hali ko'p. Maktab kutubxonalarining kitob jamg'armalarini to'laqonli shakllantirish va ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, jarayonni avtomatlashtirish, shuningdek, maktab kutubxonalari xodimlarining nazariy va texnik malakalarini oshirish, ularda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil etish bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi[6]. Hozirda ta'limni modernizatsiyalashga jadal kirishilgan. Ushbu jarayon jamiyatni tezkor axborotlashtirish, o'quv nashrlari bozorini barpo etish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish fonida yuz bermoqda. Bularning barchasi umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxonasini maktabning ajralmas tarkibiy qismiga, chinakam axborot ta'minoti markaziga, shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantiradigan bazasiga aylantirishni taqozo etadi.

Ushbu vazifalarni bajarish yo'lida joriy "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish" o'quv yilida xalq ta'limi tizimida O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxonasini rivojlantirish kontseptsiyasi" tasdiqlandi[3]. Unga muvofiq ravishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxonalarini rivojlantirishning asosiy g'oyasi, ta'lim sifatini oshirishda eng muhim omil bo'lgan yagona axborot muhitini vujudga keltirish bilan bog'liq yo'nalishlar va vazifalar mazmuni belgilab olindi. Joriy o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarini rivojlantirish dasturi" doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, ularni axborotlashtirish, ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi markazlarga aylantirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, texnologiya asri hisoblangan hozirgi davrda ham ba'zi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining kutubxonalarida faoliyat hali ham an'anaviy tarzda olib borilmoqda, ba'zi maktablarning elektron axborot bazasi ham mavjud emas. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon esa kutubxona faoliyatida innovatsion yangiliklardan foydalanishni talab etadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida qilinayotgan yangiliklar, o'zgarishlar kitobxonning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Bu ta'lim jarayoniga yaqindan qo'shilishga intilayotgan maktab kutubxonalarining innovatsiyaga bo'lgan imkoniyatlarini faollashtirmoqda. Kutubxonachi o'quvchilarni maktab kutubxonasi fondidan foydalanishga o'rgatar va axborot olish usullari bilan qurollantirar ekan, shu maqsadda



yangi xizmat turini - axborotni qidirib topish va olingan axborotdan foydalanish yuzasidan qisqa va mufassal tavsiyalarni taklif etar ekan, uning vazifalari kengayadi.

Shu ma'noda, innovatsiyalar kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, kutubxonachilik texnologiyasini takomillashtirish, yangi texnikani, istiqbolli ish metodlari va tashkiliy boshqaruvni takomillashtirish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim kutubxonalarida innovatsiyalashtirilgan kutubxonalarni tashkil etish orqali esa quydagilarga erishiladi:

- maktab kutubxonasining kitobxonlarga mo'ljallangan funksional zonalaridan ratsional foydalanish;

- xizmat ko'rsatish jarayonida olinadigan axborotlarni o'zaro muvofiqlashtirish;

- kutubxona axborot resurslari bo'yicha ma'lumotnoma-bibliografiya tizimini yaratish sohasida boshqa tizim va idoralarga qarashli kutubxonalar bilan o'zaro hamkorlikni o'rnatish;

- kutubxonada tushayotgan so'rovlar va imkoniyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turini kengaytirish;

Yuqorida tahlil qilinganlardan, shuni qisqacha xulosa qilishimiz mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy innovatsion kutubxonalarni tashkilashtirish o'quvchilarning yana kutubxonalarga qaytishlariga ularning qiziqishlarini ortishiga va ularning kompyuter texnologiya sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashishiga sabab, bo'lsa kutubxonachilarning ishlarini yanada osonlashishiga, kitoblarning elektron va audio variantlarining yaratilishida ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkinvafaravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". - T., "O'zbekiston". 2016y

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017y.

3. O'zbekiston Respublikasi Aholisiga Axborot-Kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmoni. PQ-4354 sonli.07.06.2019y

4. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali №1-son .2018y

5. "Elektron kutubxona menejmenti" Moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.2016y.

6. Nabiraeva G. "Kutubxona ishini zamon talabi asosida tashkil etish ishiga rahbarlik ma'ruzalar matni".2011y



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KIMYOVIY TEKNOLOGIK KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jo'raeva Barno Abduxalilovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni ishlab chiqish usullarini ishlab chiqarish loyihasi - bu sanoat obyektini qurish uchun zarur bo'lgan texnik hujjatlar to'plami. Loyihada tushuntirish yozuvlari, muhandislik hisob-kitoblari, chizmalar, texnologik reglamentlar, xom ashyo etkazib berish va ishlab chiqarish chiqindilarini yo'q qilish to'g'risidagi ma'lumotlar, mehnatni tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlar, kelajakdagi korxonaning barcha ishlab chiqarish va madaniy obyektlari uchun smetalar mavjud. Loyiha hujjatlari mijoz deb ataladigan narsalarga mo'ljallangan. Kimyoviy va texnologik kompetentsiyalarni dars jarayonida chuqur tadbiq etish va talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini rivojlantirish, mavzu ko'lamini yanada kengroq o'rganishini hamda shu bilan birga ta'lim sifatini oshirish, didaktik va interaktiv metodlarni dars jarayonida foydalanishni talab qiladi.

Kalit So'zlar: Kimyo sanoati, interaktiv metodlar, texnologik kompetentsiya, loyiha, korxonalar, tizimli dastur.

Kimyo o'qitish metodikasi bu dars mazmunini o'rganadigan pedagogika fanidir shu bilan birga kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'z tarkibiga kiradi hamda kimyo va uni talabalar tomonidan o'zlashtirish zarurligini talab etadi. Umumiy didaktika singari Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish usuli uchta asosiy vazifani hal qiladi: nimani o'rgatish, qanday o'rgatish va qanday o'rganish kerak. "Birinchi vazifa material tanlash bilan belgilanadi uchun kimyo fani, ikkinchi vazifa kimyo o'qitish bilan bog'liq; uchinchi vazifa "o'rganishni o'rganing" tamoyilidan: o'quvchilarga qanday qilib eng samarali tarzda yordam berish kerakligini talab qiladi. Kimyo o'qitish metodikasi pedagogikaning nisbatan yosh yo'nalishi bo'lib, kimyo o'qitish metodikasi pedagogikaning mustaqil tarmog'i sifatida paydo bo'lganligi ilm-fan taraqqiyoti alohida o'ringa ega, jumladan o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida birdek chuqur o'tiladi.

Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish metodikasining asosini kimyo ta'limi mazmuni tashkil etadi. Butun mavjudlik davrida kimyoviy ta'lim mazmunining o'zgarishi kimyoning tizimli kursiga uchta asosiy omil ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatmoqda va kimyoviy bilimlarni rivojlantirish darajasi, ta'lim sohasidagi siyosat, pedagogika fanining yutuqlari. Biz kimyoviy ta'lim mazmunini rivojlantirishning to'rt bosqichini ajratamiz va shuning birga kimningdir ta'siriga qarab, kimyo o'qitish uslubining o'zi boshqa omil ejanligini ham e'tibordan chetda qoldirmaymiz. Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni rivojlantirishning birinchi bosqichi birinchi navbatda kimyoviy yutuqlar bilan bog'liq fan. Rus olimi V.I.Kuznetsov ta'kidlashicha, kimyo har doim ikkita vazifani bajargan: amaliy nazariy - zaruriy xususiyatlarga ega moddalarni olish va nazariy - ishlab chiqarish vazifasi moddalarning xususiyatlaridir. Fikrimizcha Kimyoviy-texnologik klarni ompetensiya o'rganish zarurligi atrofda haqiqat; kimyo fanini kuzatish, tahlil qilish va umumlashtirish; Kimyoviy-texnologik kompetentsiyaviy eksperimentning ahamiyati; jarayonda foydalanish zarurati barcha o'quv laboratoriya ishlari; tarkibidagi eng muhim hodisalar bilan tanishish, kimyo fanining predmeti; nazariy munosabatlar asosida o'quv mashg'ulotlarini oliy ta'lim muassasalarida qurish va amaliy bilimlar; talabalarning mustaqilligini rivojlantirish zarurati; ahamiyati o'qitishning haqiqatan ham ilmiy darajasi davriy qonunning kashf etilishi o'qitish metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi kimyo o'qitish zarur deb o'ylayman. Talabalar va maruzalar, amaliy hamda seminarlarda kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni



chuqur o'rganish va bu jarayonni rivojlantirish biz o'qituvchilardan katta mas'uliyatni talab etadi.

Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish uslubi va kimyo o'qitish jarayonining o'lchovlilik hamda kompetentsiyalarni o'qitish metodlarining vazifasi - topish talabalar uchun asosiy faktlarni, tushunchalarni, qonuniyatlarni va narsalarni o'zlashtirishning maqbul usullarini tushunish va ularning kimyoga xos terminologiyadagi ifodasi, xususan kimyoviy bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usuli - nazariy bilimlarga erishish yo'li bilan belgilandi va juda yuqori darajadagi tizimlashtirishga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalari sharoitida kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish jarayonining eng maqbul mezonlari sifatida talabalar bilimlarining samaradorligi, sifati, o'qituvchilar va talabalar sarf qilgan vaqt va kuch sarflanadi. Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish jarayonining samaradorligi oliy ta'lim muassasalarining talabalarining ta'limoti natijalari bilan bir qatorda ularning tarbiyasi, aqliy qobiliyatlari va bilim darajasi bilan baholanadi. Samaradorlik ta'lim jarayonining qurilishi, oqilona tashkil etilishiga, unda o'qituvchilar va talabalar faoliyatiga, kuchlarning muvozanati va muvofiqligiga bog'liqdir. Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish sifati erishilgan natijalarning oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha maqsad va vazifalari talabalariga nisbati bilan, shuningdek ushbu natijalarning har bir talabalarining rivojlanishning ma'lum bir davridagi maksimal imkoniyatlariga muvofiqligi bilan baholanadi. O'qituvchilar va talabalar sarf qilgan vaqt va kuchlarning maqbulligi ularning amaldagi maktab gigienasi me'yorlariga muvofiqligi darajasiga qarab belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichni yaxshilash uchun o'qituvchilar, shifokorlar, psixologlar, didaktika va metodistlar so'nggi paytlarda o'qituvchilar va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etishga katta e'tibor berishdi

Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitish jarayonini boshqarish va metodik jarayonga qo'yiladigan talablar tizimi bajarilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi: Boshqaruv maqsadining ko'rsatkichi. Bu o'qituvchilar tomonidan ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning bilim faolligini oshirish orqali ta'lim olish va rivojlantirish. Kimyoviy-texnologik kompetentsiyaviy jarayonning dastlabki holatini o'rnatish. Uning o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qituvchi talabalarining psixologik tayyorgarligini, o'qituvchilarning individual xususiyatlarini, ularning propedevtik tayyorgarligini hisobga oladi, Kimyoviy-texnologik kompetentsiyaning tabiiy-matematik tsiklning boshqa fanlari bilan aloqasini hisobga oladi. Ushbu jarayonni maqbul amalga oshirish uchun kimyo xonasi asosida o'quv materiallari (uskunalar, reaktivlar, moslamalar, suv va elektr ta'minoti), texnik va uslubiy vositalar bilan jihozlangan o'quv-uslubiy majmuani yaratish muhim rol o'ynaydi. Jarayonga ta'sir dasturini aniqlash. Kimyoni o'qitish jarayonini boshqarish o'qituvchilarning aqliy faoliyatini kuchaytirish usullari va vositalari tizimi orqali amalga oshiriladi. Kimyo o'qituvchisi o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida kognitiv va amaliy vazifalarni sinchkovlik bilan tanlaydi va tahlil qiladi, o'qituvchilarda berilgan vazifalarni hal qilishga intilishni qanday eng yaxshi tarzda uyg'otish kerakligi haqida o'ylaydi, so'ngra talabalar ushbu muammolarni hal qilishadi. Zamonaviy nazariya va o'qitish amaliyotida keng tarqalgan kimyoni muammoli o'qitish o'qituvchilarning bilim mustaqilligini rivojlantirish uchun asosdir. Boshqariladigan jarayonning holati to'g'risida parametrlarning ma'lum bir tizimi to'g'risida ma'lumot olishni ta'minlash, ya'ni qayta aloqa tizimini ta'minlash. To'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqani maqbul o'rnatish jarayoni sifatida kimyo o'qitish jarayonini hisobga olgan holda, o'qituvchi olingan ma'lumotni o'qituvchi qanday qabul qilganligi, qayta ishlaganligi, qayta ishlab chiqarganligi, o'zgartirganligi va ijodiy ravishda qo'llaganligini ko'rsatuvchi teskari aloqa ma'lumotlarini tahlil qilish asosida nazorat funksiyasini bajaradi. Talabalarining Kimyoviy-texnologik kompetentsiyalari bo'yicha bilimlarini qat'iy hisobga olish, shuningdek ularning bilish faoliyati natijalarini tahlil qilish o'qituvchiga kimyo o'qitish jarayonini yanada



takomillashtirish uchun talabalar faoliyatini tashkil etishning mazmuni va uslublariga tuzatishlar kiritish imkoniyatini yaxshilash uchun amaliy mashqlarini samarali olib borish, loyihalar va chizmalarini dars jarayonida tadbiq etish davomida turli muammoli metodlardan foydalanish zarur deb o'ylayman. Jumladan darslardan iborat bo'lgan kimyoviy-texnologik kompetentsiyalarni o'qitishning butun o'quv jarayoni oliy ta'lim muassasalarida kimyo ta'limining aniq muammolarini hal qilishga qaratilgan izchil, doimiy ravishda murakkablashib, takomillashib boradigan o'quvchilarning bilim faoliyatini tashkil etadi. Kimyoviy-texnologik kompetentsiyaviy bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonidagi bilish bosqichlari aniq maqsadli munosabat shaklida tuzilgan maxsus bilim vazifalari yordamida tashkil etiladi. Bu kimyo o'qituvchisiga o'quv-bilish faoliyati natijalarini bosqichma bosqich kuzatib borish va o'z kursini boshqarish uchun yordam beradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.А.Князев. Неорганическая химия:учеб.для ВУЗов /Д.АКнязев, С.Н.Смарыгин. - 3-изд.испр. - М. Дрофа, 2015.
- 2.Общая химия. Биофизическая химия. Химия биогенных элементов: Учебник для ВУЗов/ Ю.А.Ершов, В.А.Попков, А.С. Берлянд и др.; под ред. ЮАЕршова - 4 изд., - М.: Высшая школа, 2013.



O'ZBEGIM QIZLARI

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Mazluma Sadikovna**

Toshkent shahar Yunusobod tumani 220-maktab direktori

Erkinova Sevinch Jamshidovna

Toshkent shahar Yunusobot tumani 220-maktab 10-"A" sinf o'quvchisi

hamda yosh jurnalistlar maktabining erkin ijodkori

jamshidovnasevinch@gmail.com

Annotatsiya: Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5325-son farmoni .Ushbu maqolada aynan yuqoridagi farmondan kelib chiqib, hozirgi payt xotin-qizlarga e'tibor va ularning jamiyatdagi mavqeni yuksaltirish, yaratilayotgan imkoniyatlar, jamiyatning har bir jabhasida erishayotgan yutuqlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbekim qizlari, orasta qizlar, Zulfiyaxonim qizlari, Qiz bola va yosh oila, Orasta qizlar, gender tengligi.

O'zbekimning kamolga yetgan qizi mukammal san'at asaridir. Guzal asardir. U - boychechak. U - muattar qatlari endi yozilib kelayotgan g'uncha. Hozirgina yomg'ir yuvib o'tgan, oqi oq, qizili qizil bo'lib yashnagan chamanzor u! U ustiga ko'ylak emas, bodom gullarini kiyib olgan, yo'qsa, yonlab o'tsangiz, shuncha sarhush qilarmidi? Uning ko'zlarida o'g'risi bor - hayolingizni oladi. Ovozida qumrisi bor - ohangi yuragingizga in soladi. Butun dunyoning armoni shu - kamolga yetgan qiz! Muhabbat uning poyiga bosh urib, yig'lab halak! Shoirlar o'zbekim qizlarini ta'riflab, she'rga to'ldirib yuborganlar! Ro'yi zamin shu kamolga yetgan qizga qasida aytib yashaydi.

Azaldan xotin-qizlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularga g'amxo'rlik qilish esa milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi sanalgan. Ular bejiz yosharish va yangilanish fasli - bahorga qiyoslanmaydi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlarimizda ayollar huquqlariga inson huquqining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deya e'tirof etilishi mamlakatimizda xotin-qizlarni jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, davlatimiz inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan, 1995 yili "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shilishi ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e'tibor berilganini ko'rsatadi. 1999 yil Birinchi Prezidentning farmoni bilan ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bugungi kunda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qizlar soni 283 nafarga yetdi. Mamlakatning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda xotin-qizlarning o'rni va roli ortib borganini kuzatish mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5325-son Farmoniga muvofiq yurtimizda har bir xotin-



qizning muammosini yuqoridan his etib, manzilli tarzda ular bilan alohida ishlash davri kelganligini alohida ta'kidladilar. Shu asosda O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 martdagi 200-son qarori bilan "Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis to'g'risidagi nizom" amaliyotga joriy etildi.

Prezidentimiz o'z nutqida qizlarimizga alohida to'xtalar ekanlar ularni erishayotgan yutuqlarini alohida e'tirof etadilar. Buning yaqqol misoli sifati nutqlaridagi quyidagi gaplarini keltirishning o'zigina yetarli:

"Barchangiz yaxshi bilasiz, xalqimiz, millatimiz qiz farzandlarini doimo asrab-avaylab, mehr bilan voyaga yetkazadi. Ularni "ona qizim" deb ardoqlaydi. Chindan ham, qizlarimiz - bizning kelajagimiz, millatimiz genofondini asraydigan, munosib davom ettiradigan insonlardir va ularni jismoniy hamda ma'naviy barkamol etib tarbiyalash - ezgu burchimiz.

Ayniqsa, hozirgi kunda qizlarimizga zamonaviy ta'lim, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiya berish, ularni kasb-hunarga o'rgatish, oilaga tayyorlash o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda barcha ta'lim maskanlari va mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan "Qizlarjon", "Qiz bola va yosh oila", "Mustaqil hayot ostonasida", "Orasta qizlar" kabi klublar faoliyatini real hayotga, yoshlarimizning orzu-intilishlariga yanada yaqinlashtirish kerak, deb o'ylayman.

Men yurtimiz yoshlari o'rtasida o'tkazilayotgan "Eng yaxshi kitobxon" ko'rik-tanlovini muntazam kuzatib boraman. Bu bellashuvlarda qizlarimizning eng yuqori o'rinlarni egallayotgani ularning intellektual salohiyat va tirishqoqlik bobida hammani qoyil qoldirayotganidan dalolat beradi."[1]

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda yoshlarimizga, ayniqsa, qizlarga alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilib, ularni ta'lim bosqichlari bilan to'la qamrab olish, salomatligini asrash, vatanparvarlik, fidoyilik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida voyaga yetkazishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

O'sib kelayotgan qizlarni tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, iqtidorli qizlarni ma'lum bir kasbga yo'naltirish va hunar o'rgatish, qiziqishlari bo'yicha to'g'ri yo'nalishlar berishni kechiktirmay maktab dargohidan boshlash lozim. Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini himoyalash, huquqiy savodxonligini oshirish muhim o'rin tutadi. Ana shu maqsadlarni ko'zda tutib hozir maktablarimizda "Qizlarjon", "Qiz bola va yosh oila", "Mustaqil hayot ostonasida", "Orasta qizlar" kabi klublar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablarining 8 - 9-sinflari o'quvchi qizlari o'rtasida har yili an'anaviy tarzda "Orasta qizlar" ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Maktab, tuman, hududiy va respublika bosqichi kabi to'rt bosqichda o'tkaziladigan tanlovda o'quvchi-qizlarning bilimlarini sinovdan o'tkazish barobarida, ularda ekologik va tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, o'z oilasi, mahallasi va atrof-muhit musaffoligiga e'tiborni kuchaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari oliy ta'lim muassalarida xotin-qizlar uchun alohida davlat grandlar ajratilmoqda. Bu ham xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 5-aprel kuni "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Unga ko'ra, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Zulfiyaxonim qizlari" klubi tashkil etiladi. Klub a'zolarining O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining taklifiga asosan Toshkent shahriga klub mashg'ulotlariga har chorakda bir marta kelib-ketishi bilan bog'liq xarajatlar "Ijod" jamoat fondi mablag'lari hisobidan qoplanishi kabi imtiyozlar berilganligi ham o'zbekim qizlariga ko'rsatilayotgan e'tibordir.

Mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash maqsadida bir qator qonun va qarorlar



qabul qilindi. 2019 yilning 2 sentyabrida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati bo'ldi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berildi.

Unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Komissiyaning asosiy vazifalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu sohada qilingan ishlar bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioya etish sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat bo'lishi ko'zda tutildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan orni hamda nufuzini oshirish, farzandlarimizni milliy, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, sog'lom va ma'nan barkamol etib tarbiyalash, yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish borasidagi ulkan xizmatlari munosib taqdirlanmoqda. Bu e'tiborning natijasi o'laroq bugungi kunda iqtidorli qizlarimiz ijtimoiy-siyosiy hayotda ham faol. Sport sohasida yuqori natijalarga erishmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5325-son Farmoni;

2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni

3. T. Sodiqova "Hazrati ayol". Toshkent - 1999.



HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI

Quvonova Shaxnoza Saitmuratovna

Samarqand viloyati, Paxtachi tumani 47-umumiy oʻrta taʼlim maktabining
amalyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologiyasi borasida ma'lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Umumiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, xavfli vaziyatlar psixologiyasi.

Psixologiya fanining asosiy sohalari odamlarning aniq bir faoliyat bilan shugʻullanishidan qatʼiy nazar, odamlarning hulq-atvor psixologiyasini bilish va tushuntirib berishda umumiy ahamiyatga ega. Fanning bu sohalari odam hulq-atvori va psixologiyasi bilan qiziquvchilarga birday zarur boʻlgan bilimlarni berishlari kerak. Baʼzida umumiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ular "umumiy psixologiya" atamasi bilan umumlashtiriladi. Umumiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalari psixologiya fanining barcha soha va boʻlimlarining rivojlanishi uchun asos boʻlib hisoblanadi.

Psixologiya fanida ilmiy tadqiqotlarning integratsiyalashuvi va differentsiyalash jarayonlari roʻy beradi. Xususan, psixologiyaning jadal rivojlanishi uning differentsiyasiga - psixologiya fanlari qator sohalarining, shu jumladan, psixologiyani boshqa fanlar bilan bogʻlovchi fanlararo sohalarning yuzaga kelishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, psixik jarayonlarning asosi boʻlgan fiziologiya mexanizmlarini oʻrganuvchi psixofiziologiya shakllandi. XVIII-XIX asrlarda boshlangan hayvonlar psixik faolligini oʻrganish boʻyicha tadqiqotlar ekologiya, otologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bogʻlangan zoopsixologiyani yuzaga keltirdi. Psixologiyaning alohida sohasi boʻlib psixogigiena, psixoterapiya va tibbiyot deontologiyasi masalalarini, patopsixologiya (qabul qilish, xotira, tafakkur va boshqalar kabi psixik jarayonlarning izdan chiqish qonuniyatlarini tadqiq etuvchi), neyropsixologiya (psixik jarayonlarning bosh miya maʼlum tuzilmalari bilan aloqasini oʻrganuvchi) va psixokorreksiyaning oʻrganuvchi tibbiyot psixologiyasi hisoblanadi.

Bir-biri bilan oʻzaro uzviy bogʻlangan bolalar psixologiyasi (bola psixik rivojlanishining qonuniyatlarini oʻrganadi) va pedagogik psixologiya (maqsadga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon sharoitida psixikani tadqiq etib, taʼlim va tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqadi), yosh psixologiyasi (oʻrganish predmeti - psixikaning yosh xususiyatlari), mehnat psixologiyasi (issleduet mehnat jarayonida psixik faoliyat va shaxsni tadqiq etib, kasb tanlash, mehnat jamoalarini tashkil etish va boshqalar boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqadi), boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalash va ularni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan muhandislik psixologiyasi ("inson - qurilma" tizimida inson faoliyatini oʻrganuvchi mehnat psixologiyasining boʻlimi); koinot psixologiyasi (koinotga parvoz sharoitida psixik faoliyatning xususiyatlarini oʻrganadi), ijtimoiy psixologiya (jamoada inson faoliyati va shaxslararo munosabatlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etadi), qiyosiy psixologiya (oʻrganish predmeti - odam va hayvon psixikasi kelib chiqishi va rivojlanishidagi umumiylik va tafovutlar) kabi mustaqil boʻlimlarga shakllandilar.

Psixologiyaning koʻplab sohalari quyidagi mezonlar boʻyicha ajratiladi:

- aniq faoliyat (mehnat psixologiyasi, tibbiyot, pedagogik psixologiya, sanʼat, sport psixologiyasi va shu kabilar);
- rivojlanish (hayvonlar psixologiyasi, qiyosiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, bolalar psixologiyasi va shu kabilar);
- ijtimoiy umumiylik (ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, guruh, sinf psixologiyasi, etnopsixologiya va h.k.).

Sohalar boʻyicha faoliyat maqsadiga koʻra tafovut muhim ahamiyat kasb etadi (yangi bilimlarga ega boʻlish va ularni qoʻllash): asosiy va amaliy fanlar; tadqiq etish predmetiga



ko'ra - rivojlanish psixologiyasi, ijod, shaxs psixologiyasi va h.k. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi asosida yuzaga kelgan fanlar sifatida psixofiziologiya, neyropsixologiya, matematik psixologiya va boshqalarni keltirish mumkin. Turli mualliflar psixologiyaning 100dan ortiq sohalarini sanab o'tadilar. Lekin aslida hozirgi kunda ularning soni bundan oshib ketgan.

Shuningdek, psixologiyaning maxsus bo'lim va yo'nalishlari ham mavjud: differensial psixologiya (odamlar o'rtasidagi individual tafovutlarni o'rganadi), qabul qilish psixologiyasi, kriminalistika va sud psixologiyasi, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod psixologiyasi, qarish psixologiyasi (gerontopsixologiya), aviatsiya psixologiyasi.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologiyaning yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, "buyukshunoslik" psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi, mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, tashqi ko'rinish psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdo-sotiq psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda.

An'anaviy psixologik fanlar - umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, yosh va pedagogik psixologiya chuqur o'zgarishlarga uchramoqda. Amaliy psixologiyaning bir qismini qator masalalarni, jumladan, ish bo'yicha yuzaga keladigan qiyinchiliklar (ishdan qanoatlanmaslik, hamkasblar va boshliqlar bilan kelishmovchiliklar, ishdan bo'shatilish imkoniyati, yangi ish izlash muammolari), shaxsiy hayotdagi tartibsizliklar oiladagi ixtiloflar, baynalminal oilalarning muammolari, maktab yoki oliygohdagi yomon o'zlashtirish, ota-onalar va bolalar munosabatlarining muammolari, o'ziga nisbatan ishonch va hurmatning etishmovchiligi, shaxslararo munosabatning o'rnatilishi va mustahkamlashdagi qiyinchiliklarni hal etuvchi - psixologik maslahat tashkil etadi. Hozirgi zamon psixologiyasining negizini psixikaning umumiy qonunlari, qonuniyatlari, mexanizmlarini o'rganuvchi umumiy psixologiya tashkil etadi. U ilmiy kashfiyotlarni amalga oshiruvchi nazariy konsepsiyalar va tajriba tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Umumiy psixologiya akademik fan nomini olgan. Bu fan sifatida u universitetlarda va akademiya institutlarida rivojlanib, o'z oldiga asosiy bilimlarni orttirishni maqsad qilib qo'ygan.

Bundan farqli o'laroq, amaliy psixologiya aniq bir talabgor bilan ish yuritadi, noma'lumlikni ilmiy tarzda ochib beruvchi keng hajmli va chuqur tadqiqotlarni olib bormasdan, mijozning amaliy ehtiyojlari, masalan, savdo tashkiloti, vazirlik yoki idora, harbiy kasalxona yoki umumta'lim maktabi bilan ish ko'radi. Amaliy psixologlarning asosiy ish vositasi - treninglar, xususan: psixodrama, jismoniy treninglar, NLP-treninglar, o'zini o'stirish treninglari, ijtimoiy o'zaro munosabatlar treninglari, geshtalttreninglar, shaxsiy o'sish treninglari va biznes-treninglar, autotreninglar va qobiliyatlarni rivojlantirish treninglari, ota-onalar va bolalar uchun treninglar.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Ma'ruzalar matni. T, 2000.-198b.
3. Rahmatullayev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.- 2001.



ZAMONAVIY TA'LIMDA ASTROFIZIKA TARAQQIYOTI

Raxmankulova Dilora Gulomovna

Jizzax viloyati, Paxtakor tumani

2-maktab fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda astrofizika taraqqiyoti borasida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Astrofizika va kosmologiya, fizikaviy jarayonlar, "Geometrik optika", "Atom fizikasi".

Hozirgi kunda ta'lim sohasini islox qilish yo'nalishlaridan biri fizika va astronomiya ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan. Bu sohadagi muhim yo'nalishlardan biri-fizikaviy qonunlarning umumiyligini namoyish qilish va ularning butun koinot uchun to'g'riligini namoyio' qilishdan iborat fanlararo bog'liqlikka yangicha yondoshishdan iborat [1]. Bunda asosiy holat va o'rin atrof olamning tuzulishi va xossalariga nisbatan dunyoqarashimizni chuqurlashtiradigan va kengaytiradigan astrofizika masalalarini o'rganishga qaratiladi.

XXI asr - bu kosmos asrida, o'rta maktab bitiruvchilari astrofizika va kosmologiya to'g'risidagi yutuqlar bilan erali darajada tanish bo'lmaydilar. Ammo uzoq vaqtlar shaxrimizdagi maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlari ilmiy izlanishlarimiz natijalariga ko'ra talabalarning fizikaga nisbatan astronomiyaga ishtiyoqlari o'zgacha ekanligini ko'rsatadi. Manna shunday qiziqishning mavjudligi fizikaviy jarayonlarni kosmik masshtablarda o'rganish uchun turtki bo'lishi mumkin. Maktablarda o'tkazgan anketa so'roqlarimizga ko'ra ko'pchilik o'quvchilar bu fan to'g'risida hech bo'lmaganda bir oz ma'lumotlarga ega bo'lish istaklarini bildirganlar. [2] Astronomiyaning ahamiyati sifatida ular bizning sayyoramizdan tashqaridagi olamni o'rganish uchun, boshqa sayyora ko'chish, kosmik ob'ektlarni o'rganish, olam va uning tuzilishi to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, insoniyatning bilimi va madaniyatini kengayishi, biz kimmiz va nimaligimizni tushinish, qandaydir jismni erga yaqinlashishini oldindan bilishni va h.k. ni ko'radilar.

Hozirgi zamon astrofizikasi elektromagnit to'lqinlar shkalasi (EMTSh) ning barcha qismlari (diapazonlari) da tekshirishlar olib boradi. Bunda EMTSh sining har bir diapazoni uchun maxsus o'lchash vositalari va tekshirish usullari qo'llaniladi. Shunga ko'ra amaliy astrofizika bir necha bo'limlarga bo'linadi: osmon yoritqichlarining gamma nurlarini tekshiradigan bo'lim gamma astronomiya deb atalsa, rentgen nurlarini tekshiradigan - rentgen astronomiya deyiladi. Osmon yoritqichlarining gamma, rentgen va ultrabinafsha nurlari Yer atmosferasida yutiladi va Yer yuziga yetib kelmaydi. Bu diapazonlarda tekshirishlar Yerning sun'iy yo'ldoshlariga o'rnatilgan asboblarda bajariladi. Yer yuziga deyarli yutilishsiz yetib keladigan nurlar optik diapazonni tashkil etadi va bu diapazonda tekshirishlar optik teleskoplar yordamida olib boriladi. Yer atmosferasining yana bir tiniqlik darchasi mavjud. U radiodiapazonga to'g'ri keladi va bu diapazonda tekshirishlar bajaradigan bo'lim radioastronomiya deb ataladi.

Odam fikri koinotning shunday olis qismlarini qamrab oldiki u yerlardan yorug'lik nuri sekundiga 300 ming km tezlik bilan bizga milliardlab yillardagina yetib kela oladi. Osmon yoritqichlarining tabiatini o'rganish astrofizik observatoriyalarda olib boriladigan astronomik kuzatishlardan boshlanadi. Astronomik kuzatish deganda biz yoritqichlarni osmon sferasida egallagan o'rnini va ulardan kelayotgan nurlanish oqimini o'lchashni, ularni suratga olishni va shunga o'xshash yoritqichdan kelayotgan nurlanish oqimi ustida olib boriladigan boshqa amallarni nazarda tutamiz. Astrofizik kuzatishlar ko'z bilan emas, balki har xil o'lchash va tekshirish asboblari yordamida bajariladi. Kuzatish ash'yolari yoki o'lchash natijalari deganda biz yoritqichlarning suratini yoki spektrini avtomatik



o'lchash asboblari yordamida qog'oz yoki magnit tasmaga yozib olingan, yoritqichning nurlanishiga oid yozuvlarni nazarda tutamiz. Kuzatish ash'yolari laboratoriya sharoitida, kompyuter yordamida har xil usullarni qo'llash orqali tahlil qilinadi. Bunday tekshirishlar natijasida yoritqichning fizik ko'rsatkichlari (temperaturasi, modda zichligi, tezligi va boshqalar) topiladi

Hozirgi zamon astrofizik observatoriyalari. Osmon yoritqichlarining nurlanishi, odatda, keng EMTSh niyoki spektral diapazonni ishg'ol etadi. Bu hol har xil kuzatish va tekshirish asboblari qo'llashni taqozo etadi. Yorug'lik nurlarida kuzatish olib borishga mo'ljallangan teleskoplar bilan qurollangan observatoriyalar optik observatoriya, radio to'lqinlarda kuzatishlar olib boradiganlari - radioastronomik va gamma va rentgen nurlarda - kosmik observatoriya deb ataladi. Kosmik observatoriyalar Yer atrofidagi aylanadigan sun'iy yo'ldoshlarga o'rnatilgan rentgen va gamma teleskoplar bilan qurollantiriladi. Sun'iy yo'ldoshlarga optik teleskop o'rnatish ham astronomik kuzatishlarga yuqori samara beradi.

Mavjud fizikadan darsliklar nafaqat astronomik mazmunni kengaytirishni talab qiladi balki ularda mavjud bir necha o'n yilliklar mobaynida shakllangan astronomik materiallarni o'zlashtirish samaradorligini orttirishni ham talab etadi. Darsliklarni astronomik mazmunini izchil qayta ishlash va to'ldirishni talab qiladi, uning tarkibini o'zgartirish, eng birinchi fizika darslarida astronomik bilimlarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, astrofizika masalalarini fizikadan o'quv darsliklariga kiritish tendentsiyasi AQSH da fizika o'qitishda keng qo'llanishga ega. Buning uchun mos mavzu va savollar mustaqil boblar shaklida bayon qilinadi, shuningdek odatdagi fizika masalalarini bayon qilishda misol sifatida ham astrofizika masalalari kiritiladi. Astrofizikaning alohida masalalari vatanimizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina darsliklarda ham o'z ifodasini topgan.

Shahrimizdagi ba'zi maktab o'qituvchilari va akademik litsey va kasb hunar kolejlari fizika o'qituvchilari bilan bo'lgan suxbatlarimizda ular o'z darslarida astronomik materiallardan quyidagi bo'limlarda foydalanishlarini aytdilar: "Mexanika", "Elektromagnit nurlanishlar", "Geometrik optika", "Issiqlik hodisalari", "Magnit maydoni", "Atom fizikasi", "Kvant fizikasi". Bu masalani atroflicha o'rganish shuni ko'rsatdiki fizika kursining ba'zi mavzularida astronomik masalalarni kiritish uchun zaxira mavjud.[3]

Maktab va akademik litsey kasb xunar kollejaridagi fizika faniga ajratilgan soatlardagi balansni saqlagan holda talabalar kelajak hayoti davomida kerak bo'lmaydigan murakkab texnik qurilmalarni tavsiflaydigan materiallar va olam tuzilishi to'g'risidagi yangi bilimlarni bera olmaydigan materiallardan samarador foydalanish hisobiga astrofizikaning masalalarini kiritish imkoniyati mavjud. Astrofizikadan tanlangan material quyidagi printsiplarga javob berishi zarur: muhimlik, ilmiylik, erishib bo'lishlik.

Xorazmiy haqida biografik ma'lumotlar, baxtga qarshi, bizgacha etib kelmagan. Uning tug'ilgan yili allomaning asarlarda keltirilgan ayrim ma'lumotlar asosida taxminan belgilangan bo'lib, shartli ravishda 783 yil deb ko'rsatilgan. Olim faoliyatining izi 847 yildan so'ng yo'qoladi, shu sababli, uning vafot etgan yili taxminan 850 yil deb hisoblanib kelinadi.

Arab xalifaligida abbosiylar sulolasi hokimiyatni qo'lga olgandan so'ng, eslatilgandek, poytaxtni Damashqdan Bog'dodga ko'chirishgan edi. SHu sulola davrida, Ayniqsa, Xorunar-rashid (786-809 yillar) va uning o'gli Ma'mun (813-833) halifalik qilgan zamonlarda halifalikda iqtisodiy va madaniy hayot ancha jonlandi. Bog'dod SHarqning yirik ilmiy va madaniy markaziga aylandi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa fanlar rivojlandi. SHu davrda Bog'dodga taklif etilgan al-Xorazmiy xalifalikdan dastlab al-Ma'mun, so'ngra al-Mu'tasim (833-842) va al-Vosiq (842-847) saroylarida yashab ijod etdi. Bunday qizgin muxitda Xorazmiyning ilmiy faoliyati yanada ravnaq topdi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bogolyubov V.I. Lekcii po osnovam konstruirovaniya pedagogicheskix texnologiy. Petigorsk PGLU, 2001, 188 st.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-T., Moliya, 2003. 172 b.
3. Saydahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash.T., "Istiqbol", 2002. 62 b.
4. Farberman B.L. va boshqlar. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. - Toshkent; 2003y.



O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI

Toshmurodova Sarvinoz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Mavlonova Madina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining va o'zbek so'zining kelib chiqishi, uning rivojlanish bosqichlari va ushbu masalaga oid olimlarning qilgan tadqiqotlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Etnogenez, Tozabog'yob madaniyati, "O'zbek", Qovunchi madaniyati

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda o'zbek xalqi o'z shonli tarixi, boy ma'naviy merosi, o'lmas nodir asarlari va o'z salohiyati bilan hali hamon dunyo mamlakatlari markazida bo'lib kelmoqda. Hech kimga sir emaski qadimdan o'zbek xalqi qo'rqmas bahodirlar, mohir sarkarda va sohibqironlar avlodidir. Qadim zamonlardan buyon o'zbek xalqi o'z o'rni va nufuziga egadir. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy-o'zbek xalqi qachon va qayerdan paydo bo'lgan. Dunyodagi har bir xalqning o'z etnogenezi va etnik tarixi bor. Shu o'rinda etnik tarix va etnogenez tushunchalariga to'xtaladigan bo'lsak, etnik tarix deb-ma'lum bir xalqning ilk ajdodlaridan boshlanib, elat shakllanishini, uni taraqqiy etish bosqichlarini va elatning yemirilishi yoki rivojlanib, millat darajasiga yetishish davriga aytiladi. Etnogenez (etnos-yunon tilida xalq, genez-hosi bo'lish, kelib chiqish) bu yangidan tashkil topgan jamoaning kelib chiqish jarayonidir. Shu o'rinda o'zbek xalqining shakllanishi ham uzoq yillar davomida sodir bo'lgan etnik jarayon mahsulidir. Hozirgacha o'zbek xalqining etnik shakllanishi bo'yicha ko'plab tadqiqot va ilmiy ishlar qilinmoqda. Ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'zbek xalqining kelib chiqish davri bo'yicha turli fikrlarga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham fanda o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini o'rganishni qaysi davrdan boshlash kerakligi haqida umumiy fikr yo'q.

Sharq manbalari bilimdoni, professor A.Y. Yakubovskiy ana shu ilmiy prinsplardan kelib chiqib, o'z asarlarida o'zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi degan edi. Keyinroq, o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtirildi, ya'ni S.P. Tolstov qadimgi Xorazmda olib brogan keng ko'lamli arxeologik, antropologik va etnografik materiallarning yozma ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganib, "Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan" degan g'oyani ko'tarib chiqdi. Akademik Karim Shoniyozev esa "Qang' davlati va qang'lilar" nomli hamda "Ozbek xalqining shakllanishi jarayoni" nomli fundamental monografiyasida mana shu g'oyani qat'iy himoya qilib chiqdi. Shuningdek, Qang' davlati ichida miloddan avvalgi II-milodiy I asrlar davomida mutlaqo yangi, turkey tilli xalq- qang'ar elati vujudga keladi. Bu elat eroniy tilli xalqlar bilan turkiy tilli qabilalarning aralashib, qorishib borishi natijasida tashkil topdi, degan xulosaga keladi. [1]

Hozirgi kunda bu sana yanada qadimiylashtirilib, so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda (A. Asqarov nuqtai nazari). Bunday qarashlarning ilmiy asosida o'zbeklarning o'q tomiri, bosh ildizi ikki tilde so'zlashuvchi etnik qatlamlarning (sug'diy va turkey) qorishuvi natijasi ekanligi va uning dastlabki sanasi, ularning ilk bor aralasha boshlagan nuqtasi so'nggi bronza davrida yuz bergani hisobga olingan. Mil. avv. II tning yillikning o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo hududlariga shimoli-sharqdan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi yangi etnik guruhlar kirib kela boshlaydi. Mahalliy madaniyatdan farqlanuvchi bu guruhlar madaniyati tadqiqotchilar tomonidan "Tozabog'yob madaniyati" nomi bilan fanga kiritilgan. [2]

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbeklarga xos antropologik qiyofa,



dastavval, Sirdaryoning o`rta havzasi tumanlarida, ya'ni Toshkent vohasi, Farg`ona vodiysi, qisman Xorazm va Janubiy Qozog`istonning Chimkent viloyatlarida, Yettisuv mintaqasida mil. avv. ming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi. O`zbek xalqi shakllanishidagi ikkinchi muhim davr - bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda O`rta Osiyoda, jumladan, O`zbekistonda hozirgi o`zbeklarga xos qiyofa, mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Antropolog T. Xo`jayev tadqiqotlariga qaraganda, IX asrga kelib aholining antropologik qiyofasida keskin o`zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. Bu o`zgarishlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Jumladan, marhumlarni astodonlarda ko`mish marosimlari aholi orasida keng tarqalgan bosh shaklini sun'iy o`zgartirish odatlari yo`qoladi. Antropologik tadqiqotlar natijalardan xulosa chiqaradigan bo`lsak o`zbeklarning elat sifatida shakllanish davri IX-X asrlarga oid deyishga jiddiy asoslar bor.[3]

O`zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Dashti Qipchoq o`zbeklari O`rta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga o`z nomini beradi. Shunday qilib, o`zbek xalqini etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. O`zbek xalqining asosini hozirgi O`zbekiston hududida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so`g`diylar, baxtarlar, xorazmiylar, saklar, massagetlar, qang`lilar va dovonliklar tashkil qilgan. Turli davrlarda turli maqsadlarda kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o`tishi bilan mahalliy aholiga o`z ta'sirini qisman o`tkazgan. Bu o`rinda shuni alohida qayd etish lozimki, o`zbek xalqi shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi tashqaridan kelgan aholiga nisbatan doimo ustunlik qilgan.

O`rta Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida bu hududga ko`chib turli elat va qabilalar ham ma'lum ma'noda ishtirok etganlar. Yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. O`rta Osiyo ikki daryo oralig`i tipi Sirdaryoning O`rta havzasida aniq antropologik tip bo`lib shakllangan davrda bu hududlarda "Qovunchi madaniyati" shakllanadi. So`nggi arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko`ra milodiy II-III asrlardan boshlab Farg`ona vodiysi, Samarqand hududlari, IV-V asrda esa Buxoro vohasi, Qashqadaryo va Surxon vohalarida Qovunchi madaniyatining ta'siri seziladi. VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr va Xorazm hududlariga bostirib kirgan vaqtlarda bu hududlarda o`troq va yarim o`troq turkiyzabon aholi, so`g`diylar, toxarlar, chochliklar va Xorazmning tub yerli aholisi bosqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borgan bo`lishlariga qaramay siyosiy parokandalik tufayli ular zulmi ostiga tushib qoladilar. Keyingi asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar, G`aznaviylar, Qoraxoniylar davrida ham etnik shakllanish jarayoni davom etadi. Ayniqsa Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o`tishi munosabati bilan sodir bo`lgan etnik jarayon o`zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo`ldi. Aynan mazkur davrda o`zbek xalqiga xos etnik omillar shakllangan. Bu davrda o`zbeklarning umumelat tili qaror topdi.

Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko`p hollarda o`zlari yashagar, joy nomi bilan atalgan bo`lib, o`rta asrlarga kelib bu nomlar o`zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan o`troq aholi bilan uyg`unlashib ketgan va aholini nomi "O`zbek" deb atalgan. o`rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom "O`zbek", "O`zbeklar" sifatida tilga olinadi. Ammo shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va an'analarga sezilarli darajada ta'sir etmadilar. Aksincha, ular orasiga singib ketib yuqori darajadagi madaniyat ta'sirida bo`ldilar.[4]

Bir so`z bilan aytganda asrlar davomida o`lkamizga boshqa elatlarning ko`chib kelishi va aralashishi natijasida o`zbek xalqining etnik qiyofasi shakllanib bordi va bugungi darajagacha yetib keldi. Ko`chib kelgan xalqlar o`zbeklarning tashqi qiyofasi, tili turmush tarzi va



madaniyatiga ham o'z tasirini o'tkazmasdan qolmadilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

- 1.Ahmadali Asqarov."O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi"- Toshkent.2007
- 2.K.Shoniyozov."O'zbek xalqining shakllanish jarayoni"-Toshkent.2001
- 3.K.Shoniyozov."Qang' davlati va qang'arlar"-Toshkent.1990
- 4.B.Axmedov. "O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan"-Toshkent.1992



TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI TARIXINI O'RGANISH

Umida Nishanova Nurmuxammadovna

Namangan viloyati, Uychi tumani 22-maktab tarix fani oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va qulashi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, mustamlaka, paxta ishi, milliy mustaqillik.

Ma'lumki 1917-yildan boshlab hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar 1922-yilda SSSR davlatini tuzishdi. Ular bu sotsialistik tuzumga Rossiyaning mustamlaka o'lkalarini ham kiritib, Sharqiy yarim sharda qizil imperiyani tashkil etishdi. 1924-yilda esa O'rta Osiyo xaqqlarini milliy-hududiy chegaralash haqida qaror qabul qilinib, bajarishga kirishildi. Unga ko'ra, Markaziy Osiyoda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari tashkil topdi. 1925 - 1936 yillar oralig'ida ular birin - ketin ixtiyoriy ravishda qizil imperiya tarkibiga kirtildi. Bu imperiya 15 ta mustaqil, tenglar ichida teng respublikalardan iborat edi. Aslida esa ular Rossiya tarkibidagi mustamlakalar edi.

Yuqoridagi jarayonlar asnosida Markaziy Osiyoda milliy davlatlarning tarkib topishi aks ettiriladi. Vaholangki, bizning davlatchilik tariximiz, xatto, 2700 yillik tarixga ega Xorazm davlati tarixi bilan chambarchas bog'liq. Lekin bu haqiqatni aksariyat g'arb olimlari tan olmaydilar, ular bizning milliy va mahalliy xususiyatlarimizni bilmaydilar, hisobga olmaydilar ham. Mazkur masala bir yoqlama nuqtai nazar bilan emas, tarixiy ob'ektivlik, milliy iftihar, istiqloq istiqbollari ruhida tadqiq etilishi lozim. SSSR tarkibidagi har bir respublika kabi Markaziy Osiyo Respublikalarining xo'jaligi ham ma'lum bir mahsulotni yetkazib berishga ixtisoslashtirildi. Masalan, O'zbekiston SSR butun Ittifoqni paxta bilan ta'minlaydigan bo'lsa, chorvachilik mahsuloti bilan Qozoqig'iston va Qirg'iziston davlatlari bo'yniga yuklangan edi. G'alla bilan ta'minlash esa, anchayin qiyin vazifa bo'lib, sovet davlati o'zining 74 yillik umrining eng gullab yashnagan davrida ham aholisini chet eldan g'alla sotib olib ta'minlashga majbur bo'lgan edi. Buning ildizi 1918-yilga borib taqaladi. Chunki xuddi shu yildan boshlab g'alla yetishtiruvchi asosiy qatlam - boy dehqonlar yo'qotila boshlangan edi. Bu boy dehqonlar, aslida, bugungi rivojlangan davlatlardagi ishbilarmon, tadbirkor fermerlar kabi edi. Respublikalarni boshqarishda esa, KPSS oliy Preziudumidan vakillar tayinlanib, birinchi kotib va ikkinchi kotiblar tomonidan boshqarilar edi. XX asr siyosiy inqirozlaridan biri bo'lgan 2-Jahon urushida SSSR takibidagi Markaziy Osiyo xalqlari ham qatnashdi. SSSR fashistlar Germaniyasini mag'lubiyatga uchratishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq g'alaba katta talafotlar hisobiga qo'lga kiritildi. Chunonchi, SSSRning 27 mln fuqarosi halok bo'ldi. Halok bo'lganlarning 11,5 mln. ga yaqini askarlar edi. Jami bo'lib ikkinchi jahon urushiga O'zbekistondan 1 mln.433 kishi safarbar etildi. Bu o'sha davrdagi O'zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 % ini tashqil etar edi. O'zbekistonlik 120 ming dan ortiq urush frontlarida mardlik va matonatlik ko'rsatgani uchun jangovor orden va medallarga, 338 kishi esa qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. 32 nafar O'zbekistonlik askar uchchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi. Ahmadjon Shukurov, Mamadali Topiboldiyev, Tuychi Eryigitov, Sobir Rahimov, Mamasharif Fayozov kabi qahramonlarimizning nomlari xalqimiz qalbida abadiy saqlanib qoladi. Xullas, O'zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillarida front ortidagi shavkatli mehnati va jangohlardagi jangovor jasoratlari bilan fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Bundan tashqari, Sovet davlati o'z milliy boyligining uchdan bir qismini yo'qotdi. Sanoatning xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi keskin kamaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab



chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40 % ga kamaydi. Biroq, SSSR davlati XX asrning so'nggi choragidan boshlab inqirozlar sari yuz tuta boshladi. Zero, o'z oldiga kommunizm qurish kabi vazifani qo'ygan edi. KPSSning XXII s'ezdida (1961-yil) KPSSning yangi dasturi - Kommunizm qurish dasturi qabul qilindi.

Vaqt tez orada KPSS va sovet davlati rahbariyati ilgari surgan yuqoridagi vazifalar xomxayol ekanligini tasdiqlay boshladi. Bu esa oliy rahbariyat o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytirdi. Buning oqibatida 1964-yilda N.Xrushyov vazifasidan olib tashlandi. KPSSning kommunizm qurish rejsi barbod bo'lgach, L.I.Brejnev KPSSning XXIV s'ezdida (1971-yil) rivojlangan sotsializm nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada kommunizm uzoq kelajakda quriladigan jamiyat, deb izohlandi. Ungacha jamiyat sotsializm va kommunizm oralig'ida rivojlangan sotsializm bosqichini bosib o'tishi lozimligi asoslandi. Hayot bu nazariyatning ham soxta ekanligini tasdiqladi. SSSR ning iqtisodiy taraqqiyoti borgan sari pasaya boshladi va unda turg'unlik holati vujudga keldi. Buning asosiy sababi ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning ilmiy-texnika inqilobi natijalarini qabul qila olmaganligi bo'ldi. Natijada bu iqtisodiyot katta xarajat talab etadigan va kam samara keltiradigan iqtisodiyotga aylanib qoldi. Byudjet taqchilligi 100 mlrd. so'mdan ortdi. Davlatning oltin zahirasi 6 yilda (1985-1991 yy) 10 barobar kamaydi va u atigi 240 tonnaga tushib qoldi. 80 yillar oxirida O'zbekiston ijtimoiy hayotida joylanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagi oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. O'zbek xalqining dilidagi g'oya - mustaqillik g'oyasi edi mana shu g'oyani ko'tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to'lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo'lgan Markazdan yuborilgan kadrlar to'dasi, ularning qo'shovoqlariga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy o'z rahbarlar bu g'oyaga, uni amalga oshirishga tusqinlik qildilar, milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag'onlik uyushtirildi, to'qib chiqarilgan paxta ishi bahonasi bilan o'n minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildilar va ularning aksariyati qamaldilar.

Bu davrda aholining turmush darajasi shiddat bilan pasaya boshladi. Shunday sharoitda M.S.Gorbachyov "insonparvar, demokratik sotsializm" qurilishini e'lon qildi. Biroq endi uning cho'pchaklariga deyarli hech kim ishonmay qo'ydi. Ittifoq davlati oliy rahbariyati va organlari aholi ko'z o'ngida obro'-e'tiborini, ishonchini yo'qotib qo'ydi. SSSR ning yagona totalitar davlat sifatida saqlanib turishida KPSS ning roli beqiyos katta bo'lganligiga SSSR ning 70 yillik tarixi guvoh. Biroq qayta qurish yillarida KPSS obro'si borgan sari yo'qolib bordi. Partiyada poraxo'rlik va korrupsiya kuchaydi. Demokratik kuchlar hatto SSSR Konstitutsiyasida yozib qo'yilgan KPSSning rahbarlik roli haqidagi qoidaning chiqarib tashlanishiga erishdilar (1990-yilda). Shunday sharoitda yangi lavozim - SSSR Prezidenti lavozimi joriy etildi. 1990-yilning mart oyida SSSR Xalq deputatlari III s'ezdi M.S.Gorbachyovni SSSR Prezidenti etib sayladi. M.S.Gorbachyov 1991 yilning aprel oyidan boshlab 9 respublika rahbari bilan yangi ittifoq shartnomasi xususida to'g'ridan - to'g'ri muzokara o'tkaza boshladi. Va nihoyat, 1991-yilning avgust oyida barcha tomonlarni qoniqtiruvchi Mustaqil Respublikalar Ittifoqi? haqidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqishga erishdi.

Noyabr oyida B.Elsin Rossiya Federatsiyasi hududida KPSS faoliyatini taqiqlash haqida farmon chiqardi. Shu tariqa KPSS yagona siyosiy tashkilot sifatida barham topdi. KPSS MK Bosh sekretari lavozimidan voz kechgan M.S.Gorbachyov SSSRni saqlab qolish uchun harakat qila boshladi. Biroq u hech narsaga erisha olmadi. 1922-yilning 30 dekabrda SSSR ni tuzgan 3 davlat - Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya rahbarlari 1991-yilning 8 dekabr kuni SSSR ni tarqatilganligini e'lon qildilar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilganligi haqidagi bitimni imzoladilar. Bu bitim tarixga Belovej bitimi nomi bilan kirdi. Shu tariqa SSSR parchalanib ketdi. 21 dekabr kuni yana 8 respublika (Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston,



Turkmaniston, Tojikiston, Moldova) ham bu bitimni imzoladilar. 25 dekabr kuni M.S.Gorbachyov SSSR prezidenti lavozimidan iste'fo berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov SH., Turg'unov I., Shamso'tdinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob.-T.; Sharq, 1997.
- 2.Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari.-T.: 2000.
- 3.O'zbekiston sovet mustamlakasi davrida. II-kitob.-T.: Sharq, 2000.



YOSHLAR TARBIIYASIDA AMIR TEMUR MA'NAVIY MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Aliyeva Ravshanoy Zaripovna, Shamsiyeva Mahfuza
Namangan viloyat XTXQTMOHM kafedra o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug' sarkarda va davlat arbobi Amir Temur jahoniy ahamiyat kasb etuvchi pandnomalari, hikmatli so'zlari hozirgi yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashdagi muhim ahamiyati haqida firklar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat arbobi, Amir Temur, hukmdor, "Temur tuzuklari", ilm-fan, madaniyat.

Milliy ma'naviyatimizning durdonalarida, hikmatlarida ma'no mazmun nihoyatda ko'p bo'lganligi, sharqda farzand tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qarash, ularning o'sib ulg'ayishida savodxonlik darajasiga e'tibor va mas'uliyat bilan yondoshishni taqozo etgan.

O'zbekona qadriyatlar, pedagogik ta'lim-tarbiya, uning bosh tizimi bo'lmish pand-nasihatlari, o'g'itlar, da'vatlar, yo'l-yo'riqlar yosh avlodni madaniy, axloqiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy kamolotida asrlar davomida muhim, hal qiluvchi o'rin tutib kelganligi tarixdan ma'lum.

Markaziy Osiyo, ayniqsa Movaraunnahr va Xuroson xalqlari tarixida XIY-XY asrlar ulug' sarkarda va davlat arbobi Amir Temur va uning avlodlari Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog'liq katta siyosiy o'zgarishlar va ayni vaqtda, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy -jamiyat hayotining barcha sohalariga rivojlanishlar davri bo'ldi. Shuning uchun ham bu davrni O'rta Osiyo tarixida uyg'onish davri deb baholab kelinmoqda.

Jahongir shoh, mohir sarkarda, yengilmas lashkarboshi, islom dinining himoyachisi, aql-zakovatli, tadbirkor hukmdor Amir Temur milliy davlatchilik boshqaruvini nazariyotchi va amaliyotchisi sifatida maktab yaratgan shaxsdir. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan markazlashgan davlatchilikka asos soldi.

Amir Temur faoliyatining yorqin qirrasini uning ma'naviy sohaga shuningdek obodonchilik va bunyodkorlik ishlariga qilgan rahnamoligida namoyon bo'ldi. Sohibqironning g'olib bayrog'i hilpiragan hududlarda madaniyat, ma'rifat gullab-yashnadi, hunarmandchilik, me'morchilik va boshqa sohalarda rivojlanish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ibn Arabshoh "Temur podshohlar va xalqlar siyratlarida bilimdon, sharqu g'arb tarixining otasi va onasi edi", deya unga yuksak baho bergan. "Temur tuzuklari" asarida: "Saltanatimni 12 toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Birinchi toifa- sayyidlar, ulamo shayxlar, fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib, majlisimni bezab turishdi" deb yozadi. Ilm-fan va madaniyatning saltanat uchun ma'naviy ahamiyatini yaxshi anglagan Amir Temur olim va fozil kishilarni o'ziga do'st tutgan, izzat-hurmatini joyiga qo'ygan, davlatni idora qilishda ularning kengash va maslahatlaridan keng foydalangan. "Tuzuklar"da aks etgan "...baxtli farzandlarim va qudratli nabiralaringa ma'lum bo'lsinkim, men sayyidlar, ulamo, oqilu donolar, muhaddislar, tarixshunoslar sara va e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu-hurmatlarini o'rniga qo'ydim" degan so'zlar yuqoridagi fikrlarni isbotidir.

Tarixchilarni guvohlik berishicha, Amir Temur o'z saroyiga yetuk olimlarni, xususan riyoziyotchilarni, ilohiyotshunoslarni, shuningdek, falsafa, tibbiyot, tarix, musiqashunoslik, ilmu aruz fanlarining yetuk namoyandalarini to'plagan. Sohibqiron o'z atrofiga ana shunday ma'rifat darg'alarini to'plab, ularga hurmat e'tibor keltirib, saltanat ishlarida maslahatlar olib turdi. Amir Temur " Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarning aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim" degan so'zlari bejiz aytilmagan.



Amir Temur nafaqat buyuk davlat arbobi, siyosatchi bo'lish bilan birga farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratar edi. Darhaqiqat, Amir Temur o'g'itlari, pand-nasihatlari, hikmatli so'zlari hozirgi yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ulug' bobomiz juda chuqur, mazmuni, har jumlasini jahoniy ahamiyat kasb etuvchi pandnomalari bilan maydonga chiqdi va butun umri davomida ana shu da'vatlarga sodiq qoldi va barcha fuqarosini shunga amal qilishga undadi. Mana o'sha mashhur da'vat "Biz kim mulki Turon, amiri Turkistonimiz. Biz kim - millatlarning eng qadimi va eng ulug'i turkning bosh bo'g'inimiz". Sohibqiron o'z yurti, o'z millati, elatini shunday ta'riflagan holda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi.

Sulton Amir Temur farzand tarbiyasida hayotning biron-bir sohasini nazar-e'tibordan chetda qoldirmadi. Qattiqqo'l, kerak paytda yumshoq ko'ngil, talabchan Sulton ayni choqda mehribon ota sifatida farzandlarida insoniy fazilatlarini qaror toptirishga e'tiborni kuchaytirgan. Amir Temurning pandlari, o'g'itlarida davlatni adolat ila boshqarish, farzandlar tarbiyasi, kishilar odob-axloqi, jangu-jadal mahorati, aqliy, jismoniy yetuklik hamma-hammasi bag'oyat teranlik bilan ifoda etilgan. Ushbu o'g'itlar orqali Sohibqiron tarbiyaning barcha muammolarini aqli rasolik va donishmandlik bilan hal etishga harakat qilgan. "Tuzuklar"da berilgan pand-o'g'itlarida avlodining ta'lim-tarbiyasi, ularning jismoniy va ma'naviy barkamolligiga qaratilganligini guvohi bo'lamiz.

Amir Temurning yoshlar tarbiyasi borasidagi qarashlari, amaliy faoliyati sharq tarbiyashunosligining nodir manbaasi sifatida e'tirof etilganligi bejiz emasdir. Buning uchun Sohibqironing tarbiya borasidagi yo'l-yo'riqlariga nazar tashlash, bu boradagi pand-o'g'itlarini bugungi kun tarbiyashunoslik amaliyotida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari // Forschadan A. Sog'unuy va H. Karomatov tarj; B. Axmedov tahrir. ostida / -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1991.-144b
2. Sohibqiron saboqlari / Tuzuvchi-muallif M. Murodov. -T.: O'qituvchi, 1996.- 148 b.



"ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО КУРАТОРСТВА"

Старший преподаватель кафедры "Режиссура кино, ТВ и радио"
ГИИК Узбекистана **А. Кудрявцев**
e-mail: Kudriavtsoff@mail.ru

Аннотация: В данной работе рассматривается вопрос определяющей роли педагогического коллектива Высшего учебного заведения при формировании правильного художественного вкуса у студентов, а также необходимость эстетического кураторства.

Ключевые слова: эстетика, вкус, индивидуальность, кураторство, информационные технологии, социализация.

В Конституции Республики Узбекистан, раздел 3, глава 9, статья 42 говорится: "Каждому гарантируется свобода научного и технического творчества, право на пользование достижениями культуры. Государство заботится о культурном, научном и техническом развитии общества". И эта забота ощущается постоянно и целенаправленно.

В Узбекистане уже 4 года как вступил в силу закон "О государственной молодежной политике". "Целью настоящего закона является регулирование отношений в области государственной молодежной политики", - говорится в первой статье документа. Кроме этого президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев своим указом от 7 февраля 2017 г. утвердил "Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах", которая представляет собой программу развития страны на ближайшую "пятилетку". И практически четвертое ее направление напрямую касается молодежи Республики.

Как логическое и последовательное предложение двух ранее принятых законов стало принятие 5 инициатив Президента Узбекистана Ш. Мирзиёева в мае 2019 г, которые напрямую обозначают новый спектр вопросов молодежной политики: широкого вовлечения ее в культуру, искусство и спорт, формирования навыков использования информационных технологий, пропаганды чтения книг среди молодого поколения.

Кроме этого 20-го мая 2020 года в ходе мероприятий по открытию Аллеи Литераторов Ш. Мирзиёев высказал свое мнение о жизни и творчестве известного поэта Мухаммада Юсуфа, о том, что оставленное им богатое духовное наследие должно проникнуть в сознание молодого поколения. Исходя из этих задач, Государственным институтом искусств и культуры Узбекистана была определена реализация комплекса мероприятий на 2020-21 гг. по популяризации его творчества.

Приоритетными направлениями государственной молодежной политики, согласно всем этим постановлениям, указам и законам, станут обеспечение социальных, экономических, политических и иных прав и интересов молодого поколения. Приняты во внимание вопросы воспитания молодежи в духе уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям.

Если говорить об отсутствии эстетического вкуса у отдельной части студентов художественных ВУЗов Узбекистана, то идет прежде всего речь о проявлении всеядности, т.е. присвоении человеком любых общепризнанных эстетических и культурных ценностей (а в эпоху тотальной глобализации и потерю аутентичности). Всеядность как раз характеризует недостаточность личностного отношения к миру, неспособность отобрать из богатства культуры те общемировые и специфическо-национальные ценности, которые в наибольшей мере развивают,



дополняют, шлифуют природные задатки, способствуют профессиональному, гражданскому, нравственному совершенствованию личности. Не секрет, сегодня всеядность в музыке, изобразительном или драматическом искусстве приводят к подражательству, слепому копированию, калькированию, упрощению, нивелированию и самое страшное, потерю индивидуальности. Равно как и мелкотемье, вкусовщина и бытовое засилье, под прикрытием национальных псевдо-мотивов и неправильно трактуемого менталитетного вкусообразования. И здесь конечно прежде всего на первый план выход - совместный целенаправленный просмотр (читка, прослушивание и т. п. мероприятия) с последующим обсуждением всевозможных художественных явлений от больших литературных форм и классической музыки до современных форм массовой культуры - новых визуальных форм на ТВ и материалов в Интернете.

Все вышеизложенное позволяет нам более глубоко начать понимать объективные основы спора о вкусах, поскольку в нем сталкиваются не просто личные или групповые страсти - здесь противостоят друг другу истинные и ложные ценности, отражающие сложность социальных процессов, своеобразие общественного развития, а также ошибочных поисков, мнимых верований. И здесь конечно ещё предстоит решать многочисленные вопросы, которые важны и неотложны при определяющей роли педагогических коллективов творческих ВУЗов Узбекистана в процессе формирования настоящего эстетического и художественного вкуса у студентов.

Список использованной литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан
2. Закон "О государственной молодежной политике", Узбекистан, 2016 г.
3. "Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах", 2017 г.
4. "5 инициатив Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева". 2019 г.
5. Речь Ш.Мирзиёева от 20.05.2020 г. "О создании интернет-портал "Аллея литераторов" на узбекском, английском и русском языках"
6. "Человек. Пути формирования новой личности" Бессонов Б.Н. - М., 2012. С.12
7. "Эстетика". Под ред. А.А. Радугина. - М., 1998. С.48.
8. "Роль воображения" Э.В. Ильенков, - С.П. 2001. С.23.
9. "Эстетика" В.В. Бычков - М. ГАРДАРИКИ, 2004 г. С.39
10. И. Кант. Собрание сочинений в 8 томах. Из-во: ЧОРО, 1994 г.. Т.3, С.59.



ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА МАДАНИЯТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Кўчқаров Абдулазиз Абдурахимович

Андижон шаҳар халқ таълими бўлими ижтимоий гуманитар фанлари
методисти.

Сафонова Надежда Анатольевна

Андижон шаҳар 2- умумтаълим мактаби тарих фани ўқитувчиси.

Маткаримова Гулбахор Рустамовна

Андижон шаҳар 55- умумтаълим мактаби тарих фани ўқитувчиси.

Аннотация: Ўрта Осиё халқлари тарихида жисмоний тарбия ва маданиятнинг ривожланиши, Осиё халқларининг жисмоний ва харбий тайёргарликлари жараёнлари қисқача ёритилди.

Калит сўзлар: Найзабозлик, камондан ўқ узиш, чавандозлик, чўқмор ва гурзилар ўйнатиш, кураш тушиш, муштлишиш, харбий ва жисмоний тайёргарлик.

Мамлакатимиз халқлари узоқ ўтмишга, бой маънавий маданий меросларга эгадир. Хозирги кунда давлатимиз раҳбарларини жисмоний тарбия ва спортга, қолаверса миллий қадриятларимизни тиклашга бўлган катта эътиборлари, миллатимиз жисмоний маданияти тарихини ўрганишга ва улардан ёш авлоднинг тарбиясида фойдаланишга имкониятлар яратмоқда.

Тарихга бир назар ташласак, Ўрта Осиё худудларида инсоният шаклланишига тахминан ярим миллион йил давр бўлди. Ибтидоий жамоа давридан оқ инсон ўзини химоя қилишга, яшаш учун курашишга ҳамда ов қилишга мажбур бўлган. Бунинг учун албатта у онгсиз равишда жисмоний машқлар ва жисмоний ҳаракатлар бажарган. Яшаш учун кураш ва жамиятда ўз ўрнини топишга интилишда жисмоний тарбия ва жисмоний ривожланганликнинг аҳамияти катта бўлган. Бу даврда жисмоний тарбиянинг илк куртаклари сифатида ов вужудга келган. Обирахмат қори, Охангароннинг Кўлбулоғ чашмаси, Сўх дарёси водийси ҳамда Олой тизма тоғи ёнбағирларида топилган қадимий ёдгорликлар ҳам ибтидоий жамоа одамларининг жисмоний ва маънавий ривожланишида асосий омил, овдан иборат бўлган жисмоний машқлар ва жисмоний ҳаракатлар ҳисобланган. Қадимги аждодларимиз макон топган Сурхондарё воҳасидаги Темиртош горидан кўплаб ов қуроллари найза, болта, чўқмор, пичоқ, чопқи топилган. Кўриниб турибдики, қадимги аждодларимиз ибтидоий даврдан бошлаб, жисмоний машқлар ва ҳаракатлар билан мунтазам шуғулланишга эътибор қаратишган.

Ўрта Осиё худудида уруғчилик жамиятини вужудга келиши билан одамлар ов қилиш санъатини такомиллаштира бошладилар. Ёввойи хайвонлар ва мевазорлар кўп бўлган, иқлим шароити яхши бўлган жойларда хаёт кечириб қулай ҳисобланган. Уруғчилик жамиятида янги ов қуроллари яратилиши камон, найза ва бошқа қуролларни такомиллашуви овчилик санъатини янада ривожлантирди. Фарғонадаги Узун кўл, Пайпоқ кўл бойларидаги ҳамда қадимий Хоразм худудидаги Жонбос қалъасида топилган овчилик ва балиқчилик ҳамда хўжалик қуроллари бу даврда одамларнинг ижтимоий онги такомиллашиб борганлигини кўрсатади. Ов санъатини такомиллашуви, овда ҳамкорликда ҳаракат қилишга, жисмоний фазилатларини ривожланишига, чаққонлик, эпчиллик, ботирлик ва мардлик сифатларни таркиб топишига туртки бўлди. Бу даврда болалар тарбиясининг асосий шакли онгсиз холда ташкил этилган ўйинлар, мусобақалар ҳамда ов ҳаракатларига тақлид қилиш машқларидан иборат эди.



Қабилаларнинг кенгайиши билан яхши иқлимли, хайвонот ва ўсимлик дунёсига бой бўлган худудлар учун қабилалар ўртасида низолар чиқа бошлади. Ўзаро жангларда жисмонан бақувват қабилалар бўлиб келган ҳамда улар бош қабилалар бўлиб қолди. Қадимий Хоразмдаги Сувёрган маданияти, Сурхондарёдаги Сополли тепа қолдиқлари ҳамда Қорақалпоғистондаги Тозабойёб маданияти ёдгорликлари шуни кўрсатадики қабилалар ўртасидаги жангларда жисмоний тайёргарлик муҳим роль ўйнаган. Жисмоний тарбия ва харбий тайёргарликка катта эътибор берилган.

Яшаш худудларини химоя қилиш озиқ-овқат, мол-мулк чорвани қўриқлаш учун ҳамда бошқа қабилалар хужумини бартараф этиш учун харбий қўшинлар тузилган. Қабилалар таркибида овчилик ҳамда жанг билан шуғулланадиган харбий жангчилар қўшинлари тузилган. Улар жисмоний ва харбий тайёргарлик машқларида найзабозлик, камондан ўқ узиш чавандозлик чўқмор ва гурзилар ўйнатиш, кураш тушиш ва муштлашиш билан шуғулланганлар. Қабилла оқсоқоллари ёшларни харбий ва жисмоний тайёргарликларини байрамлар ва анъаналарда назорат қилиб борганлар. Жисмоний ва харбий тайёргарлик машғулотларини пахлавон, баходир устозлар бошқарганлар. қабилла бошлиғлари ўзларини хукмронликларини таъминлаш ва ўтказиш учун ўз атрофига пахлавон баходир жангчиларни тўплаганлар, шахсий жангчилар бўлинмаси ташкил этганлар.

Кулдорлик тузуми вужудга келиши билан Ўрта Осиё худудларида бир қатор эллатлар шакллана бошлаган. Қадимги аждодларимиз саклар, массагетлар, сўғдийлар ва хоразмийлар жангвор кўчманчи қабилалар ҳисобланган. қабилалар ўртасидаги жанглар халқни мунтазам жисмоний харбий тайёргарлик машғулотлари ўтиб туришга мажбур қилган.

Миллий халқ ўйинларнинг келиб чиқиши ва тарихи ҳақидаги маълумотлар бизгача XI асрнинг буюк мингвисти, тарихчиси, этнографи Махмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк" китоби орқали етиб келгандир. Асарда ўзбек ҳаракатли ўйинларини бошладан олдин амалга ошириладиган чақириниш, тўпланиш, ўйин боши, чек ташлаш каби ўйин шаклларида намуналар келтирилган. Миллий ҳаракатли ўйинларни мунтазам ўтказиш болаларда ўз ҳаракатларини бошқаришни ривожлантиришга ёрдам беради, улар гавдасини тартибга солади, яъни турли зўриқишда ҳаракат қилишга ўргатади.

Миллий ўйинлар болани жуда чаққонлик, муайян мақсад ва тезкорлик билан ҳаракат қилишга; қоидаларни бажариш, ўзини тутиш, ўртоқликни қадрлай олишга ўргатади.

Илк ёшли боланинг дастлабки ҳаракати билан боғлиқ овунмачоқлар, эрмак ўйинлар ёрдамида тарбияланганлар. Ундан каттароқ ёшдаги болалар ҳаётида ранг-баранг ҳаракат мазмунига эга бўлган (ўз ичига болаларни ром қилувчи ўйин бошланмалари, хиргойилари, санашмачоқларни олувчи) халқ ўйинлари катта ўрин олган.

Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики ўзбек халқи қадимдан ўзининг жисмоний баркамоллиги ҳақида доимо қайғуриб борган. Жисмоний тайёргарлик ов шаклида, ёки харбий тайёргарлик шаклида бўлишидан қатъий назар инсонни жисмоний баркамоллик воситаси бўлиб хизмат қилган. Маънавий ва маданий меросларимизни ўрганиш ва қайта тиклаш ёш авлодни жисмоний маданиятини янада кўтаришда бош омил бўлади деган умиддамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Р.С.Саломов. Спорт машғулотларининг назарий асослари. Тошкент. 2005й
- 2.О.А.Рихсиева."Абу Али Ибн Сино о роли физических упражнений и сохранении здоровья человека", Т. "Ўқитувчи", 1982.



- 3.Б.Нигманов .Спорт ўйинлари. Тошкент 2007
- 4.А.Нормуродов. Жисмоний тарбия. Тошкент 1998 й. Усмонхўжаев Г.С. "1001 ўйин" Т.Медицина 1999 й.
- 5.Усмонхўжаев Г.С. "Ҳаракатли ўйинлар" Т.Медицина 1999 й.
- 6.Қорабоев У. "Ўзбек халқ ўйинлари" Тошкент 2001й



**"Тўпламлар ва улар устида амаллар" мавзусини
ўқитишда пазл методидан фойдаланиш
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПАЗЛ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМЫ
"МНОЖЕСТВА И ОПЕРАЦИИ НАД НИМИ"
USING THE PUZZLE METHOD IN STUDYING THE TOPIC "SETS AND
OPERATIONS ON THEM"**

Исмоилова Дилдора Эркиновна

Бухоро давлат университети
Математика мутахассислиги 1-босқич магистранти

Абстракт. Мақолада интерфаол методлар ёрдамида ташкил қилинадиган ўқув машғулотларнинг самарадорлиги ҳақида фикр юритилган. Хусусан, Пазл методининг мазмун ва моҳияти "Тўпламлар ва улар устида амаллар" мавзусини ўқитиш мисолида очиқ берилган.

Калит сўзлар: интерфаол метод, пазл методи, тўпламлар ва улар устида амаллар, ўқув жараёни, ўқув машғулоти, Эйлер айланаси, карточка.

Ўқитишнинг интерфаол методларини таълим тизимига жорий қилиш замонавий кадрлар тайёрлашнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда ўқитувчи учун ўз мутахассислиги бўйича чуқур билимга эга бўлиш ва билимга чанқоқ ёшлар билан тўла аудиторияга катта хажмдаги билимларни беришнинг ўзи етарли эмас. Ўтказилган кўпгина тадқиқотларнинг натижаларига кўра, ўқитишга янгича қараш, талабаларни ўқитишда фаол ёндашувлардан фойдаланиш билим беришнинг энг самарали йўллари билан бири ҳисобланади. Оддий сўз билан айтганда, талабалар ўқув жараёнида фаол жалб қилингандагина берилаётган материалларни осон идрок этади, тушунади ва эслаб қолади. Шундан келиб чиққан ҳолда, бугунги кунда асосий методик инновациялар ўқитишнинг интерфаол методларини қўллашни тақозо этади.

Пазл (инглизча puzzle - топишмоқ, бошқотирма) - расмни унинг бўлаклари ёрдамида тиклашдан иборат болалар ўйинининг номи. Ўтилган мавзуга оид асосий жумла, формула, теорема, тенглама, чизма ва бошқа кўринишидаги асосий маълумотлар қоғозга ёзилиб, сўнг бир нечта бўлақларга бўлиниб аралаштириб юборилади. Талабалар бу бўлақлар ичидан фақат битта маълумотга мосларини топиб, уни тиклайдилар.

Пазл методидан "Тўпламлар ва улар устида амаллар" мавзусида фойдаланиш мисолида қараймиз:

Талабаларни (шароитга қараб) гуруҳларга ажратиш; айтилик, гуруҳ 24 нафар таълим олувчидан иборат. Ўқитувчи таълим олувчиларни 6 нафардан 4 та гуруҳга бўлади.

Талаба машғулотни ўтказишга қўйилган талаблар ва қоидалар билан таништириш. Тўпламлар ва улар устида амаллар мавзуси бўйича талабаларга 24 та карточкалардан иборат тўплам тақдим қилинади. Бу тўпламда мавзуга оид 4 та асосий жумла (тўпламнинг бирлашмаси, кесишмаси, симметрик айирмаси ва тўлдирувчиси) келтирилган бўлиб, уларнинг ҳар бир ҳақида 6 тадан карточкаларда маълумот берилган бўлади. 1-карточкада: жумланинг таърифи; 2-карточкада: жумлага мос Эйлер айланалар; 3-карточкада: хоссалари; 4-карточкада: тенг кучли формулалари; 5-карточкада: жумлага оид мисол содаллашириш; 6-карточкада: формуланинг исботи. Топпириқ: 6 та гуруҳга 4 асосий жумла берилади ва тақдим қилинган 24 карточкалар ичидан фақат ўз жумласи бўйича маълумотларни тўла йиғиш вазифаси



топширилади.


1-гурӯҳнинг натижаси қуйидагича бўлиши керак:

1-карточка: Тўпламлар бирлашмаси таърифи.

Берилган тўпламларнинг йиғиндиси ёки бирлашмаси деб, шу тўпламларнинг такрорланмасдан олинadиган ҳамма элементларидан тузилган ва каби белгиланадиган тўпламга айтилади.

$= A \cup B = \{x | x \in A \text{ ёки } x \in B\}$. Демак, бу ҳолда $a \in A \cup B$ дан $a \in A$, ёки $a \in B$, ёки вақтда $a \in A$, $a \in B$ бўлиши келиб чиқади.

карточка: Тўпламлар кесишмаси Эйлер айланалари.



ар $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$ тўпламлар берилган бўлса, у ҳолда уларнинг $C = A \cup B$ ндиси ёки бирлашмаси қуйидагича ёзилади:

$$\bigcup_{\alpha=1}^n A_{\alpha} = A_1 \cup A_2 \cup A_3 \cup \dots \cup A_n.$$

карточка: $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap C$, $A \cup B = B \cup A$, $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C)$.

карточка: $A \cup A = A$, $A \cup \emptyset = A$, $A \cup U = U$, $A \cup \bar{A} = U$, $A \cup (A \cap B) = A$, $\overline{A \cup B} = \bar{A} \cap \bar{B}$
 $B = A$ бўлса, у ҳолда $B = \emptyset$ ёки $B \subseteq A$.

карточка: $(A \cap B \cap C \cap \bar{X}) \cup (\bar{A} \cap C) \cup (\bar{B} \cap C) \cup (C \cap X) = C$.

карточка: $A \cup B = A$ бўлса, у ҳолда $B = \emptyset$ ёки $B \subseteq A$. Исбот: $x \in A \cup B \Rightarrow$
 $\text{ёки } x \in B \Rightarrow x \in A \Rightarrow (A \cup B) \subset A$; $x \in A \Rightarrow A \cup B \Rightarrow A \subset (A \cup B)$

мак, $(A \cup B) \subset A$, $A \subset (A \cup B)$ ва $A \cup B = A$.

□□□□х□□□□ □□□□□□□□ □□□□□□□□□□ □□□□□□ □□□□□□:

карточка: Тўпламлар кесишмаси таърифи.

рилган A , B тўпламларнинг ҳамма умумий элементларидан тузилган D тўпламга B тўпламларнинг кесишмаси дейилади ва $D = A \cap B$ кўринишида белгиланади.


$A \cap B = \{x | x \in A \text{ ва } x \in B\}$. Демак, бу ҳолда $a \in A \cap B$ дан бир вақтда $a \in A$, бўлиши келиб чиқади.

карточка: Тўпламлар кесишмаси Эйлер айланалари.

ар $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$ тўпламлар берилган бўлса, у ҳолда уларнинг $D = A \cap B$ кесишмаси

агича ёзилади: $\bigcap_{\alpha=1}^n A_{\alpha} = A_1 \cap A_2 \cap A_3 \cap \dots \cap A_n$.

карточка: $A \cap (B \cap C) = (A \cap B) \cap C$, $A \cap B = B \cap A$, $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$.





карточка: $A \cap A = A$, $A \cap \emptyset = \emptyset$, $A \cap U = A$, $A \cap \bar{A} = \emptyset$, $A \cap (A \cup B) = A$, $\overline{A \cap B} = \bar{A} \cup \bar{B}$,
 $= A$ бўлса, у ҳолда $B = U$.

карточка: $(A \cap B \cap X) \cup (A \cap B \cap C \cap X \cap Y) \cup (A \cap X \cap \bar{A}) = A \cap B$.

карточка: $(A \cap B) \cap C = A \cap (B \cap C)$ - кўпайтмага нисбатан ассоциативлик қонуни.

Бу метод талабаларда зийраклик, топқирлик, диққатни тўплаш, таҳлил ва синтез қилиш каби қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради. Уни яқка тартибда ҳам, гуруҳни қисмларга бўлиб ҳам ўтказиш мумкин.

Энди қўлланилган интерфаол методнинг афзаллигига тўхталиб ўтамиз. Биринчидан талабалар диққати мавзуга қаратилади, мавзу такрорланилади ва янги мавзуга замин яратилади. Иккинчидан янги мавзунинг мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келади. Учунчидан бир вақтнинг ўзида бир нечта талаба билан ишлаш ва уларни баҳолаш ҳисобига вақтни тежаш имконияти пайдо бўлади. Тўртинчидан кичик гуруҳ вакиллари фаол иштирок этиши кузатилади. Ва ниҳоят ўз-ўзини ва гуруҳлараро баҳолаш имконияти мавжуд бўлади.

Афзалликлари билан бир қаторда унинг баъзи камчиликлари ҳам мавжуд. Гуруҳларнинг фаолиятини кузатишда барча талабаларни назорат қилиш имконияти паст бўлади. Гуруҳлараро ўзаро салбий рақобатлар пайдо бўлиб қолиши мумкин. Гуруҳ ичида фаол бўлмаган талабалар ҳисобидан ўзаро низо пайдо бўлиши мумкин. Лекин бу камчиликларни кичик гуруҳларга лидерлик қобилиятига эга иқтидорли талабаларни тенг тақсимлаш ҳисобига қисман бартараф этиш мумкин.

Тўпламларнинг махсус турларидан бири бу тўр тушунчасидир [1-6]. Бундай тўпламда киритилган элементларни қўшиш ва элементни сонга кўпайтириш амаллари махсус усул билан киритилган.

Адабиётлар:

1. Muminov M.I, Rasulov T.H., Tosheva N.A. Analysis of the discrete spectrum of the family of 3×3 operator matrices. *Comm. Math. Anal.* 11:1 (2020), pp. 17-37.
2. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Eigenvalues and virtual levels of a family of 2×2 operator matrices. *Methods Func. Anal. Topology*, 25:1 (2019), pp. 273-281.
3. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Threshold analysis for a family of 2×2 operator matrices. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 10:6 (2019), pp. 616-622.
4. Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3×3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.
5. Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.
6. Muminov M., Neidhardt H., Rasulov T. On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.



МАТРИЦАЛАР УСТИДА АМАЛЛАР МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА "3x4" ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ "3x4" В ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ ОПЕРАЦИИ НАД МАТРИЦАМИ

USE OF TECHNOLOGY "3x4" IN TRAINING THE TOPIC OF OPERATIONS ON MATRICES

Исмоилова Дилдора Эркиновна

Бухоро давлат университети

Математика мутахассислиги 1-босқич магистранти

Абстракт. Ушбу мақолада матрицалар устида амаллар мавзусини ўқитишда "3x4" технологиясидан фойдаланиш бўйича баъзи мулоҳазалар келтирилган. Бу методни қўллаш технологияси батафсил ёритилган. Матрицалар устида амалларга оид тарқатма материаллардан намуналар келтирилган.

Калит сўзлар: матрица, "3x4" технологияси, тарқатма материаллар, таълим оловчилар гуруҳи, ўқув топшириғи.

Матрицалар устида амаллар мавзусини ўқитишда "3x4" технологиясидан фойдаланайлик. "3x4" технологияси - технологиянинг тавсифи. Ушбу машғулот талабаларни аниқ бир муаммони яқка ҳолда (ёки кичик жамоа бўлиб фикрлаб ҳал этиш, ечимини топиш, кўп фикрлардан керагини танлаш, танлаб олинган фикрларни умумлаштириш ва улар асосида қўйилган муаммо (ёки мавзу) юзасидан аниқ бир тушунча ҳосил қилишга, шунингдек, фикрларни маъқуллай олишга ўргатади. Бу технология талабалар билан аввал яқка ҳолда, сўнгра уларни кичик гуруҳларга ажратилган ҳолда ёзма равишда ўтказилади.

Гуруҳдаги таълим оловчилар сонига қараб ўқитувчи талабаларни 4 та кичик гуруҳларга ажратади ва ҳар бир гуруҳ таркибидаги таълим оловчилар сонига қараб, мавзуга оид алоҳида алоҳида тарқатмали материални ўрганиш учун ўқув-топшириғини тайёрлайди. Аудитория хонасидаги парта (стол)лар ўзаро 4 та гуруҳ учун тўрт қисмга алоҳида бирлаштирилади ва ҳар бир партада тарқатма материалларини қўяди. Ҳар бир гуруҳ мос равишда ўзига тегишли қисмини тўлдириши керак. 1-гуруҳ 1-мисолларни, 2-гуруҳ 2-мисолларни ва хоказо. 1-тарқатма материали матрицаларни қўшинг; 2-тарқатма материали матрицаларни кўпайтиринг; 3- тарқатма материали матрицани даражага кўтариш ва 4-тарқатма матрицалар устида амалларни бажаринг шартлари бўйича талабаларнинг билимларини текширишга мўлжалланган бўлиб, улар қуйидагича тузилган:

1-тарқатма материали - матрицаларни қўшинг:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{pmatrix}; \quad B = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} \\ b_{21} & b_{22} \\ b_{31} & b_{32} \end{pmatrix}.$$



Гуруҳ	Элементлар											
	a_{11}	a_{12}	a_{21}	a_{22}	a_{31}	a_{32}	b_{11}	b_{12}	b_{21}	b_{22}	b_{31}	b_{32}
1	1	-3	3	-2	2	1	-3	1	1	-1	4	3
	3	-2	2	1	-3	3	0	4	-4	-4	0	4
2	2	1	6	2	3	-1	-3	10	-2	4	-1	3
	0	4	-4	-4	2	6	2	0	2	6	2	0
3	-2	3	2	0	4	-4	-4	4	1	6	1	13
	9	-4	-7	4	1	6	1	5	7	11	0	5
4	5	-3	2	-3	-5	2	6	2	0	-1	-4	-1

2-тарқатма материали- матрицаларни кўпайтиринг:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{pmatrix}; \quad B = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & b_{13} \\ b_{21} & b_{22} & b_{23} \end{pmatrix}.$$

Гуруҳ	Элементлар											
	a_{11}	a_{12}	a_{21}	a_{22}	a_{31}	a_{32}	b_{11}	b_{12}	b_{13}	b_{21}	b_{22}	b_{23}
1	1	-3	3	-2	2	1	-3	1	1	-1	4	3
	3	-2	2	1	-3	3	0	4	-4	-4	0	4
2	2	1	6	2	3	-1	-3	10	-2	4	-1	3
	0	4	-4	-4	2	6	2	0	2	6	2	0
3	-2	3	2	0	4	-4	-4	4	1	6	1	13
	9	-4	-7	4	1	6	1	5	7	11	0	5
4	5	-3	2	-3	-5	2	6	2	0	-1	-4	-1

3-тарқатма материали - матрицани даражага кўтариш.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}, \quad A^2 - ?$$

Гуруҳ	Элементлар									
	a_{11}	a_{12}	a_{13}	a_{21}	a_{22}	a_{23}	a_{31}	a_{32}	a_{33}	
1	1	-3	3	-2	2	1	-3	1	1	
	3	-2	2	1	-3	3	0	4	-4	
2	2	1	6	2	3	-1	-3	10	-2	
	0	4	-4	-4	2	6	2	0	2	
3	-2	3	2	0	4	-4	-4	4	1	
	9	-4	-7	4	1	6	1	5	7	
4	5	-3	2	-3	-5	2	6	2	0	



4-тарқатма материали - матрицалар устида амалларни бажаринг:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}, \quad A^2 + 5A - 2E = ?$$

Гуруҳ	Элементлар								
	a_{11}	a_{12}	a_{13}	a_{21}	a_{22}	a_{23}	a_{31}	a_{32}	a_{33}
1	1	-3	3	-2	2	1	-3	1	1
	3	-2	2	1	-3	3	0	4	-4
2	2	1	6	2	3	-1	-3	10	-2
	0	4	-4	-4	2	6	2	0	2
3	-2	3	2	0	4	-4	-4	4	1
	9	-4	-7	4	1	6	1	5	7
4	5	-3	2	-3	-5	2	6	2	0

Бу вазифа ҳар бир гуруҳ томонидан бажарилгач гуруҳ аъзолари ўринларидан туриб соат мили йўналиши бўйича жойларини ўзгартирадилар. Яъни 1-гуруҳ 2-гуруҳ, 2-гуруҳ 3-гуруҳнинг, 3- гуруҳ эса 4-гуруҳнинг ўрнига ўтадилар. Янги жойга келган гуруҳ аъзолари шу ерда қолдирилган тарқатма материалдаги фикрлар билан танишиб унга учтадан фикрларини ёзиб қўядилар. Гуруҳ аъзолари яна юқоридаги каби жойларини ўзгартирадилар. Шу тариқа кичик гуруҳлар ўз жойларига қайтиб келгуларига қадар жойларини алмаштириб ажратилган топшириқларни бажариб борадилар. Ўз жойларига келган гуруҳлар тарқатма материалидаги барча топшириқлар бажарилганлигини кўрадилар. Ҳар бир кичик гуруҳнинг тарқатма материални гуруҳ аъзоларидан бири тақдимот қилади. Ўқитувчи кичик гуруҳлар томонидан бажарилган тарқатма материалларини текширади, муҳокама қилинади, хатолар тузатилади ва талабалар баҳоланади, сўнгра машғулот якунланади.

Талабалар матрицалар устида амалларга оид билим, кўникма ва малакалари ёрдамида элементлари чизиқли чегараланган операторлар бўлган операторли матрицаларнинг [1-6] хоссаларини ўрганишлари мумкин.

Адабиётлар.

1. Muminov M.I., Rasulov T.H., Tosheva N.A. Analysis of the discrete spectrum of the family of 3x3 operator matrices. *Comm. Math. Anal.* 11:1 (2020), pp. 17-37.
2. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Eigenvalues and virtual levels of a family of 2x2 operator matrices. *Methods Func. Anal. Topology*, 25:1 (2019), pp. 273-281.
3. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. Threshold analysis for a family of 2x2 operator matrices. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 10:6 (2019), pp. 616-622.
4. Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3x3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.
5. Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.
6. Muminov M., Neidhardt H., Rasulov T. On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.



PEDAGOGIK FAOLIYAT YONDASHUVI ASOSIDA MODULLI O'QITISH TEKNOLOGISINING USUL VA SHAKLLARI

МЕТОДЫ И ФОРМЫ МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

METHODS AND FORMS OF MODULE TEACHING TECHNOLOGY ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY APPROACH

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonlari misolida modulli ta'lim texnologiyasining mazmun mohiyati yoritilgan. Ixtisoslik fanlari bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining blok sxemasi asosida modulli o'qitish shakli ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: modulli o'qitish texnologiyasi, bilim, maqsad, o'qitish, metod, shakl, samaradorlik.


Modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida Texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir [1-8]. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi;
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Modul - bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish





Ixtisoslik fanlari bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining blok sxemasi

O'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri sifatida modulli ta'lim texnologiyalarida asosiy o'quv maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'qitishning (o'quv fanlar orasida va o'quv fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- ta'lim oluvchining o'ziga mos sur'atda ishlashi;
- ularga o'z imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'lim mazmunini o'zgaruvchan tarzda qurish;
- uning turli turlari va shakllarini integratsiyalash;
- o'quvchilarda mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning yuqori darajadagi natijalarga erishtirish.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, yuqoridagi bayon qilingan maqsadlarning oxirgisi modulli o'qitishning bosh, etakchi maqsadi hisoblanadi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi fanlarini modulli o'qitish bo'yicha tayyorlash metodikasi.

Modulli darsni ishlab chiqishga kirishganda 2 akademik soatni egallashi kerakligini unutmaslik kerak, sababi o'xshash darsda talabaning o'rganiladigan mavzu bo'yicha bilimlari va malakalarining dastlabki darajasini aniqlash, yangi ma'lumotni berish, o'quv materialini ishlab chiqish va chiqish nazoratini o'tkazish zarur. Mashg'ulot modulini tuzishga quyidagi algoritm yordam berishi mumkin:

1. Mavzuda modulli dars o'rnini aniqlash.
2. Dars mavzusini ta'riflash.
3. Dars maqsadini, mazkur holatda bu maqsad - integratsiyalovchi, va oxirgi o'qitish natijalarini aniqlash va ta'riflash.
4. Zaruriy daliliy materialni tanlash.
5. O'qitish va nazorat metodlari va shakllarini tanlash.
6. Talabalarning o'quv faoliyati usullarini aniqlash.
7. O'quv mazmunni alohida mantiqiy yakunlangan o'quv belgilarga ajratish va ularning har biri xususiy didaktik maqsadini aniqlash.

Pedagogning modulli o'qitish darsidagi roli

Modulli o'qitish darsida o'qituvchning roli talabalar ishini boshqarish, qo'yilgan vazifalarni hal etish yo'llarini to'g'rilash, maslahat berish, talabalarga yordam berish va qo'llashdan iborat. Bunda o'qituvchi dars jarayonida har bir talaba bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega.

Modulli dars yakunida xulosalar qilinadi, talabalar mavzuning barcha o'quv belgilari bo'yicha topshiriqlarga xulosalar chiqaradi.

Modulli darsni o'tkazishda talabalarni guruhlariga birlashtirish amalga oshiriladi, bu yerda bir qancha quyi va o'rta darajada biladigan talabalar va hech bo'lmaganda birgina kuchli talaba ishlashi kerak. Shunday qilib, ishlash jarayonida kuchli talaba quyi darajadagi talabaga yordam beradi va bir vaqtda o'z bilimlarini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Расулова З.Д. Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science. 2020, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
2. Rasulova Z.D. Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.



8, No. 1, 2020, pp. 30-34.

3. Rasulova Z.D. Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. International Journal of Scientific and Technology Research. Vol 9, no. 3, 2020, pp. 2552-2155.

4. Расулова З.Д. Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. Ученые XXI века, 2018, Т. 47, № 12, С. 34-35.

5. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Компьютерные технологии обучения как важный фактор для улучшения процесса преподавания. Современные инновации. 36:2 (2020), С. 44-46.

6. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов // Проблемы педагогики. 49:4 (2020), С. 26-29.

7. Каримова М.Н., Расулова З.Д. Использование учебных инструментов в развитии творческого мышления учащихся. Проблемы педагогики. № 5 (50), 2020, С. 19-22.

8. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. № 21 (99), 2020, часть 2, С. 33-36.



ТЕНГЛАМАЛАР СИСТЕМАСИНИ ЕЧИШ УСУЛЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА БУМЕРАНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ

ТЕХНОЛОГИЯ БУМЕРАНГ В ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ СИСТЕМЫ УРАВНЕНИЙ

BOOMERANG TECHNOLOGY IN LEARNING THEME METHODS FOR SOLVING A SYSTEM OF EQUATIONS

Ибодова Севарабону Тўхтасиновна

Бухоро давлат университети Амалий математика ва информатика таълим
йўналиши 2-босқич талабаси

Абстракт. Мазкур мақолада "Чизиқли алгебра ва аналитик геометрия", "Алгебра ва сонлар назарияси" ва "Олий математика" фанларидан "Тенгламалар системасини ечиш усуллари" мавзусини ўқитишда Бумеранг технологиясининг қўлланилиши ҳақида фикр юритилади. Талабалар мазкур технологияни ўзлаштиришда "Тенгламалар системасини ечишнинг Крамер методи", "Тенгламалар системасини ечишнинг Гаусс методи", "Тенгламалар системасини ечишнинг матрицалар усули" билан танишиши имкониятлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: тенгламалар системаси, бумеранг технологияси, Крамер методи, Гаусс методи, матрицалар усули, ўқитувчи, талаба, машғулот.

Ҳозирги замон фан ва техника тараққиётининг бир қатор масалалари кўп номаълумли чизиқли тенгламалар системасини ечишни тақазо этади. Чизиқли тенгламалар системасини ечишнинг кўп тақрибий усуллари мавжуд, лекин булар орасидан унумли, тез яқинлашадиган ва дастурлашга мойилини топиш мураккаблигича қолмоқда. Кўп амалий масалалар чизиқли тенгламалар системасини ечиш билан боғлиқ бўлади, шунинг учун кўп номаълумли чизиқли тенгламалар системасини ечиш ва уларни қулай ва тежамли тақрибий усулларни яратиш ва уни компьютерда амалга ошириш долзарб масалалардан ҳисобланади. Шундай бўлсада, тенгламалар системасини аналитик усулларда ечиш унинг аниқ ечимини аниқ ҳисоблаш (топиш) имкониятини беради. Тенгламалар системасини ечиш усулини танлаш кўпроқ номаълумлар сонидан боғлиқ. Масалан, кўп номаълумли ҳолдп матрицалар усулидан фойдаланиш самаралидир. Талабаларга уларни ўргатишда таълим технологияларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Бумеранг технологиясини "Тенгламалар системасини ечиш усуллари" мавзуси мисолида тушунтирамиз. Аввалам бор мавзуни бир неча қисмга ажратиш керак. Биламизки ушбу машғулотда талабалар тенгламалар системасини Крамер, Гаусс ва матрицалар усули ёрдамида ечишни ўрганишлари керак. Демак, гуруҳни 3 та кичик гуруҳга ажратиш керак.

1 - босқич. Айтайлик, гуруҳ 27 нафар таълим олувчидан иборат. Ўқитувчи таълим олувчиларни 9 нафардан 3 та кичик гуруҳга бўлади, яъни А, Б, В гуруҳлар. Биринчи гуруҳ А, ундаги таълим олувчилар А1, А2, А3, А4, А5, А6, А7, А8, А9; иккинчи гуруҳ Б, ундаги таълим олувчилар Б1, Б2, Б3, Б4, Б5, Б6, Б7, Б8, Б9; ва В1, В2, В3, В4, В5, В6, В7, В8, В9 тарзида бўлинади. Шундай қилиб, 3 та гуруҳ умумий мавзу асосида 3 хил матнга, ҳар бир тингловчи эса ўз гуруҳига тушган матнга эга бўлади. А гуруҳига "Тенгламалар системасини ечишнинг Крамер методи", Б гуруҳига "Тенгламалар системасини ечишнинг Гаусс методи", В гуруҳига "Тенгламалар системасини ечишнинг матрицалар усули".



2 - босқич гуруҳларга берилган матнни гуруҳ аъзолари якка тартибда алоҳида ўрганишлари, текстни эслаб қолишлари, кейин эса керак бўлса бошқаларга ёки ўқитувчига гапириб беришлари, иложи борича текстни ўзлаштириб олишлари кераклигини ўқитувчи уқтиради ва тайёргарлик учун матнни катта ёки кичиклигига қараб 10-15 дақиқача вақт беради.

3 - босқич ўқитувчи 1,2,3-рақамли талабалар битта янги гуруҳ, 4,5,6-рақамлилар иккинчи, 7,8,9-рақамлилар учинчи гуруҳни ташкил этишларини сўрайди. Гуруҳ аъзолари янги гуруҳга ўзлари билан ўрганган матнларини ҳам олиб ўтишадилар.

4 - босқич - рақамлар бўйича янги гуруҳлар тузилганда ҳар бир янги гуруҳда аввалги гуруҳлардан учтадан вакиллар ўз-ўзидан тўпланиб қолади, яъни 3 хил матн ўрганилган бўлса, бу янги гуруҳда ҳар биттасидан учтадан вакил тўпланади.

5 - босқич - янги тузилган гуруҳнинг ҳар бир аъзоси энди ўзига 2 та вазифа, яъни ўқитувчи ва ўқувчи вазифасини олади ва қуйидагича фаолият кўрсатади:

-ўқитувчи (ўргатувчи) сифатида, ўзи аввал ўрганган материални гапириб беради, ўзи мустақил ўрганган материалнинг асосий жойларига барчанинг диққатини жалб қилади, бошқа гуруҳ аъзоларининг тушуниш ва ўзлаштириш қобилиятларини текширади. Бу босқичда тарқатилган барча материал тингловчилар томонидан ўзлаштирилган ҳисобланади.

6 - босқич - гуруҳдагилар бир-бирларига ўз матнларини гапириб бериб, барчалари ушбу матнларни билиб олишгач, ўқитувчи ўрганилган материал гуруҳ аъзолари томонидан қанчалик ўзлаштириб олганини текшириб кўриш учун ҳар бир гуруҳ аъзоларининг бир-бирларига ўз матнларидан келиб чиққан ҳолда саволлар беришлари мумкинлигини тушунтиради. Шундай қилиб, гуруҳ ичида ички назорат, яъни савол-жавоб орқали ўтказилади. Бу эса гуруҳдаги тингловчиларни бир-бирларига сўзлаб берган материалларини бошқалар томонидан ўзлаштирилганлик даражасини аниқлашга, ўзининг билимини янада мустаҳкамлашига ёрдам беради.

7 - босқич - ўқитувчи барча тингловчиларни яна қайтадан аввалги жойларига қайтишларини сўрайди, яъни талаба яна машғулот бошланишидаги гуруҳларига қайтадилар.

8 - босқич - ўқитувчи аудиториядаги тингловчиларнинг барчаси ҳаммага тарқатилган ёзма материаллар билан таниш эканликлари, улар ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлганликларини ҳисобга олган ҳолда, ҳар бир талаба-ўқувчидан ўрганилган материални сўраши мумкинлигини айтади. Масалан: Қуйидаги тенгламалар системасини учала метод ёрдамида ечинг.

$$\begin{cases} 2x_1 + x_2 - x_3 = 1 \\ 3x_1 + 2x_2 - 2x_3 = 1, \\ x_1 - x_2 + 2x_3 = 5 \end{cases} \quad \begin{cases} 2x + 3y - z = 5, \\ x + y + 2z = 7, \\ 2x - y + z = 1 \end{cases} \quad \begin{cases} x + y + z = 5, \\ 3x + 2y + 4z = 7, \\ 2x + 2y + 2z = 10 \end{cases}$$

9 - босқич - тингловчиларга тарқатилган ўқув материалининг улар томонидан қай даражада ўзлаштирилганлигини аниқлаш мақсадида ўқитувчи талабаларнинг назорат саволларига берган жавобларини - тўлиқ жавоб учун 5 баҳо, қўшимча учун 4 баҳо, луқма ташланса 3 баҳо, жавоб бермаса 2 баҳо, умуман иштирок этмаса 1 баҳо қўйишни белгилаш мумкин.

Изоҳ: агар тўпланган балларни гуруҳ аъзоларига тенг бўлишда талабалар томонидан норозилик бўлса, яъни баъзи гуруҳ аъзолари гуруҳнинг фаолиятида фаол иштирок этиб, умумий жамоавий фаолиятда пасив бўлган бўлишса, ёки умуман иштирок этмаган, қизиқмаган бўлишса, бундай ҳолатда вазиятни ечишни



гуруҳ аъзоларига юклатилади. Гуруҳнинг ечими тўғри ҳисобланади, ёки ўқитувчи ўз фикрини билдириши мумкин, чунки у дарс жараёнида ўқувчи-талабаларнинг жавоблари, фаол ёки пассивликларини кузатиб боради.

Талабалар чизиқли тенгламалар системаси мавзусини чуқур ўзлаштириши натижасида замонавий математик физика масалаларида кўп учрайдиган операторли матрицаларнинг хос функциялари учун Фаддеев тенгламаси ва унинг симметрик вариантыни ҳамда Вайнберг типигаги тенгламаларини [1-8] қуриш кўникмаларига эга бўладилар. Бунда номаълумлар сони учтагача бўлса ўрнига қўйиш усулидан, номаълумлар сони тўрт ва ундан ортиқ бўлганда эса матрицалар усулидан фойдаланилган.

Адабиётлар:

1. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the eigenvalues of a 2×2 block operator matrix. *Opuscula Mathematica*. 35:3 (2015), pp. 369-393.
2. Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3×3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.
3. Muminov M.I., Rasulov T.H. Embedded eigenvalues of an Hamiltonian in bosonic Fock space. *Communications in Mathematical Analysis*. 17:1 (2014), pp. 1-22.
4. Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.
5. Расулов Т.Х. Исследование спектра одного модельного оператора в пространстве Фока. *Теорет. матем. физика*. 161:2 (2009), С. 164-175.
6. Rasulov T.H. Investigations of the essential spectrum of a Hamiltonian in Fock space. *Appl. Math. Inf. Sci.* 4:3 (2010), pp. 395-412.
7. Muminov M., Neidhardt H., Rasulov T. On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.
8. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the number of eigenvalues of the family of operator matrices. *Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics*, 5:5 (2014), pp. 619-625.



АНИҚ ИНТЕГРАЛЛАР МАВЗУСИ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТИДА "КИЧИК ГУРУҲЛАРДА ИШЛАШ" МЕТОДИ

МЕТОД "РАБОТЫ В МАЛЫХ ГРУППАХ" В ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕМЫ ОПРЕДЕЛЕННЫЕ ИНТЕГРАЛЫ

METHOD OF "WORK IN SMALL GROUPS" IN PRACTICAL CLASSES ON THE TOPIC OF DEFINE INTEGRALS

Ибодова Севарабону Тўхтасиновна

Бухоро давлат университети Амалий математика ва информатика таълим
йўналиши 2-босқич талабаси

Абстракт. Мақолада Аниқ интеграллар мавзуси бўйича амалий машғулоти ташкил қилишда "Кичик гуруҳларда ишлаш" методидан фойдаланиш бўйича кўрсатмалар берилган. Ушбу мавзу бўйича гуруҳларга топшириқлар шакллантириш бўйича намуналар келтирилган.

Калит сўзлар: таълим, педагогик технология, кичик гуруҳларда ишлаш, билим, малака, кўникма, топшириқ, ижодий фаолият.

Таълим - бошқариладиган жараён, унинг натижаси кўп жиҳатдан тайёрланган дидактик лойиҳага боғлиқ. Дидактик лойиҳа эса таълим технологиясининг маҳсулидир. Ўқувчи-талабаларнинг билиш фаолиятини дидактик лойиҳага кўра бошқариш таълим технологиясининг педагогик асоси саналади. Педагогик технология асосида дарс ўтишда энг асосий талаб ўқувчининг ҳаётий тажрибаси аввал ўзлаштирган билимлари ва қизиқишлари асосида билим беришни кўзда тутати. Педагогик технология ўрганилаётган соҳа бўйича талабаларда билим етарлича бўлмаган ҳолда ҳам талабада салбий кечинмага ўрин қолдирмасликка шароит яратилади. Бундай таълим жараёнида барча талабаларнинг фаоллиги ошиб боради. Кичик гуруҳларда ишлаш ўқувчиларнинг дарсда фаоллигини таъминлайди, ҳар бири учун мунозарада қатнашиш ҳуқуқини беради, бир-биридан гуруҳда ўрганишга имкони туғилди, бошқалар фикрини қадрлашга ўргатади. Аниқ интегралларнинг бир қатор махсус синфлари [1-8] ишларда тадқиқ қилинган.

Қўлланиш усули.

1. Фаолиятни танлаш. Мавзуга оид муаммо шундай танланадики, натижада ўқувчилар уни ўрганиш (бажариш) учун ижодий фаолият кўрсатишлари зарур бўлади ва вазифалар белгилаб олинади.

2. Зарурий асос яратиш. Ўқувчилар кичик гуруҳ ишида қатнашишлари учун танланган фаолият бўйича баъзи билим, кўникма ва малакаларни олдиндан эгаллаган бўлишлари керак.

3. Гуруҳни шакллантириш. Масалан, 32 нафар ўқувчиси бор гуруҳларда ҳар бирида 8 нафар ўқувчиси бор 4 та кичик гуруҳ шакллантириш мумкин. Гуруҳ аъзоларини танлашда ўқувчилар иқтидорини инобатга олиш мақсадга мувофиқдир. Сўнгра ҳар бир гуруҳ учун тенг кучли олдиндан шакллантирилган топшириқлар гуруҳларга тақдим қилинади. Кичик гуруҳлардаги барча аъзолари топшириқни бажариши кераклиги инобатга олиниб, топшириқлардаги вазифалар гуруҳ аъзолари сони билан бир хил бўлиши керак.

1-гуруҳга топшириқ



1) Агар $\int_a^b f(x)dx = 5$, $\int_a^b g(x)dx = -3$ бўлса, қуйидаги интегралларни топинг:

a) $\int_a^b (n+1)f(x)dx$; b) $\int_a^b (n-1)g(x)dx$; c) $\int_a^b [nf(x) + (2n+1)g(x)]dx$.

2) Нютон-Лейбниц формуласи ёрдамида ҳисобланг: $\int_0^1 [nx^{n-1} + (n+1)x - 2n]dx$

3) Бўлаклаб интегралланг: a) $\int_0^1 xe^{nx} dx$; b) $\int_1^e x^n \ln x dx$.

4) Ўзгарувчиларни алмаштириш ёрдамида ҳисобланг:

a) $\int_0^n \frac{x+n}{\sqrt{n^2+3nx}} dx$; b) $\int_1^n \frac{\sqrt{5nx+4n^2}}{x} dx$;

2-гурӯҳга топшириқ

1) Агар $\int_a^b f(x)dx = -5$, $\int_a^b g(x)dx = 3$ бўлса, қуйидаги интегралларни топинг:

a) $\int_a^b (n+1)f(x)dx$; b) $\int_a^b (n-1)g(x)dx$; c) $\int_a^b [nf(x) + (2n+1)g(x)]dx$.

2) Нютон-Лейбниц формуласи ёрдамида ҳисобланг: $\int_{-1}^0 [nx^{n-1} + (n+1)x - 2n]dx$.

3) Бўлаклаб интегралланг: a) $\int_{-1}^0 xe^{nx} dx$; b) $\int_0^\pi e^{nx} \cos(n+1)x dx$.

4) Ўзгарувчиларни алмаштириш ёрдамида ҳисобланг:

a) $\int_{1/n}^1 \frac{dx}{x\sqrt{n^2x^2-1}}$; b) $\int_1^n \frac{\sqrt{5nx+4n^2}}{5x} dx$;

3-гурӯҳга топшириқ

1) Агар $\int_a^b f(x)dx = 6$, $\int_a^b g(x)dx = -5$ бўлса, қуйидаги интегралларни топинг:

a) $\int_a^b (n+1)f(x)dx$; b) $\int_a^b (n-1)g(x)dx$; c) $\int_a^b [nf(x) + (2n+1)g(x)]dx$.

2) Нютон-Лейбниц формуласи ёрдамида ҳисобланг: $\int_1^2 [nx^{n-1} + (n+1)x - 2n]dx$.

3) Бўлаклаб интегралланг: a) $\int_{-1}^1 xe^{nx} dx$; b) $\int_2^e x^n \ln x dx$.

4) Ўзгарувчиларни алмаштириш ёрдамида ҳисобланг:

a) $\int_0^n \frac{x+n}{\sqrt{n^2+2nx}} dx$; b) $\int_{1/n}^1 \frac{7dx}{x\sqrt{n^2x^2+1}}$;

4-гурӯҳга топшириқ

1) Агар $\int_a^b f(x)dx = 7$, $\int_a^b g(x)dx = -2$ бўлса, қуйидаги интегралларни топинг:



4. Аниқ йўл-йўриқлар кўрсатиш. Ўқувчиларга фаолиятни бажариш бўйича аниқ ва хажм жиҳатдан кўп бўлмаган тушунтириш берилади. Ўқитувчи гуруҳларининг ишлаш тезлиги турлича бўлишини инобатга олган ҳолда вақт чегарасини айтади. Гуруҳлар керакли материаллар ва ахборотлар билан таъминланади. Ўқувчилар гуруҳда ишни бошлашлари учун вазифаларини аниқ тушуниб етганлиги текшириб кўрилади.

5. Қўллаб қувватлаш ва йўналтириш. Ўқитувчи зарурат туғилса гуруҳлар ёнига навбатма-навбат келиб тўғри йўналишда ишлаётганлигини қайд этади ёки уларга ёрдам беради, гуруҳларга таъзийқ ўтказилмайди.

6. Муҳокама қилиш ва баҳолаш. Гуруҳларда иш якунлангач, улар натижалари бўйича ахборот берадилар. Бунинг учун ҳар бир гуруҳ ўз сардорини белгилайди. Зарурат туғилса, фаолият натижалари бўйича билдирилган фикрлар ўқитувчи томонидан ёзилиб борилди. Муҳими, гуруҳнинг ечимининг асосланишини аниқлаштириб олишди. Агар вақт етарлича бўлса, у ёки бу фикрни аргументлашда гуруҳлар бир-бирига савол ҳам беришлари мумкин. Кичик гуруҳларда ишлаш натижалари ўқитувчи томонидан баҳоланади. Бунда фаолиятни тўғри ва аниқ бажариш, вақт сарфи асосий мезон ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the eigenvalues of a 2x2 block operator matrix. *Opuscula Mathematica*. 35:3 (2015), pp. 369-393.

2. Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3x3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.

3. Muminov M.I., Rasulov T.H. Embedded eigenvalues of an Hamiltonian in bosonic Fock space. *Communications in Mathematical Analysis*. 17:1 (2014), pp. 1-22.

4. Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.

5. Расулов Т.Х. Исследование спектра одного модельного оператора в пространстве Фока. *Теорет. матем. физика*. 161:2 (2009), С. 164-175.

6. Rasulov T.H. Investigations of the essential spectrum of a Hamiltonian in Fock space. *Appl. Math. Inf. Sci.* 4:3 (2010), pp. 395-412.

7. Muminov M., Neidhardt H., Rasulov T. On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.

8. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the number of eigenvalues of the family of operator matrices. *Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics*, 5:5 (2014), pp. 619-625.



МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ИНФОРМАТИКИ: ИНТЕГРАЦИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И ИНФОРМАТИКИ

Рашитходжаева Зульфия Аллаходжаевна

Старший преподаватель АЛ ТФИ

Кариева Малика

Учитель шк.249

В образовательном процессе важную роль играют интегрированные уроки. Цель таких уроков - повысить внимание учащихся, разнообразить познавательную и воспитательную деятельность, создать творческую атмосферу на уроке. Ценность интегрированных уроков заключается также в обобщении знаний самих учителей, которые обычно ограничены объемом своего предмета.

Integrated lessons are becoming increasingly important in the educational process. The purpose of such lessons is to enhance the attention of students, diversify cognitive and educational activities, create a creative atmosphere in the lesson. The value of integrated lessons is also in generalizing the knowledge of teachers themselves, who are usually limited by the scope of their subject.

Integratsiyalashgan darslar o'quv jarayonida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday darslarning maqsadi - o'quvchilar e'tiborini oshirish, bilim va ma'rifiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, darsda ijodiy muhit yaratish. Integratsiyalashgan darslarning ahamiyati, odatda, o'qituvchilarning bilimlarini umumlashtirishdan iborat bo'lib, ular odatda o'z mavzularining hajmi bilan cheklanadi.

Ключевые слова: интерфейс, программа, язык сети Интернет, операционные системы, Algoritm.

Keywords: interface, program, Internet language, operating systems, Algoritm.

Kalit so'zlar: interfeys, dastur, Internet tili, operatsion tizimlar, algoritm.

Компетентность в иностранном языке - один из главных критериев образования успешного человека, что позволяет обладать конкурентным преимуществом при трудоустройстве, быть всегда в курсе последних достижений из первоисточников, обладать богатым духовным миром, знать родной язык на более грамотном уровне, изменение стереотипов в мировоззрении и ментальности, знание культурных аспектов других народов.

Среди всех предметов, информатика единственный предмет, который так тесно связан с интеграцией английского языка со своей учебной программой, а современная программа развития образования позволяет знакомиться с предметом на протяжении всего периода обучения. С первых дней существования предмета "Информатика" его связь с английским языком осуществляется на метапредметном уровне. Уроки информатики с использованием английского языка дают учащимся рассмотреть английский язык с информационной стороны, что систематизирует знания при появлении новых ассоциативных связей, развивает системно-деятельностный подход, и активно формируются учебные действия. Английский язык и Информатика тесно связаны друг с другом, поскольку изучая английский язык, легче воспринимается учебный материал из Информатики, а изучая информатику, лучше формируются языковые компетентности. Информатика без английского языка невозможна: при изучении интерфейса многих компьютерных программ, сталкиваясь с терминологией при изучении теоретических основ предмета, сетевых технологий, знакомстве с устройствами компьютера, но особенно при изучении алгоритмизации и любого языка программирования. Кроме того,



необходимо учитывать, что английский язык - это еще и язык сети Интернет, без которой трудно себе представить современную жизнь.

Все клавиши на клавиатуре имеют английские названия: Shift, Enter, Back Space, Caps Lock, Page Down, Home, End, Insert, Delete, Page Up . . .

Названия операционных систем тоже на английском языке. WINDOWS XP Professional, Windows VISTA, LINUX, Ubuntu - человечность. А что обозначает Windows? Окно, оконная система или среда. И программы, с которыми мы знакомы - тоже на английском языке. Какие программы вы знаете? (Microsoft Word, POWER POINT, EXCEL, Photoshop, Corel Draw..). Вот видите, как знание английского языка необходимы при работе на компьютере.


Этапы урока можно распределить таким образом:

В начале, на организационном этапе урока эффективным и целесообразным будет начать урок:

- С приветствия. Объявление темы возможно, когда тема выводится на экран на английском языке, а учащиеся переводят, также возможно перепутать слова в названии темы, и учащимся придется знать перевод слов и грамматику чтобы правильно составить определение. Например, Разновидности операционных систем: OS Windows, Понятие Algorithm, Комбинации клавиш Ctrl+c и Ctrl+v и многие другие. Здесь же после объявления темы, учащимся дается задание написать в тетрадах несколько терминов, хоть как-то связанных с изучаемой темой.

Названия операционных систем тоже на английском языке. Кто назовет ОС? (WINDOWS XP Professional, Windows VISTA, LINUX, Ubuntu - человечность) А что обозначает Windows? Окно, оконная система или среда.

И программы, с которыми мы знакомы - тоже на английском языке. Какие программы вы знаете? (Microsoft Word, POWER POINT, EXCEL, Photoshop, Corel Draw...). Вот видите, как знание английского языка необходимы при работе на компьютере.



- Блиц-гонка, где учащимся за определенное время показываются термины, понятия, названия, и пр., необходимые для объяснения или назначения, что отработывает у учащихся правильную речь, критическое мышление, правильное произношение.

- Визуализация, в которой на экране по очереди демонстрируются термины или изображения, учащимся в свою очередь необходимо выяснить тему урока или определить о чем идет речь.

Основная часть и этап закрепления изученного материала урока также может быть насыщена языковой интеграцией, где совокупность различных вариантов взаимодействий между учащимися и учителем и обеспечивающая целенаправленную действенность.



На данном этапе можно использовать такие приемы, как:

- При выполнении заданий из программирования, алгоритм программы может быть составлен с помощью русских слов, необходимо перевести его с помощью английских слов языка программирования. Так же возможно составить часть программы на языке программирования и часть с помощью русских слов. Возможен вариант по коду написать комментарии или, наоборот, по комментариям составить код программы на языке программирования.

- Для текстовых и графических редакторов, при выполнении практических работ, инструкцию можно частично оформить на английском языке и для облегчения добавить поясняющие картинки. При работе в текстовом редакторе возможен вариант, когда текст дается на трех языках, либо текст на английском предоставлен в обратном порядке.

В конце урока при подведении итогов можно также использовать английский язык и терминологию из информатики. Например, на экран выводятся в левый столбец начала фраз, а в правом столбце окончания фраз, учащиеся собирают из двух половин фразу, характеризующую прошедший урок. Аналогично на экран разбрасываются слова, и учащиеся также собирают фразу итога урока.

Выбор эффективных методов, форм, методических приемов предметно-языкового обучения организуется с учетом предметной и языковой подготовки учащихся. Основная деятельность учителя на данных этапах урока заключается в представлении различных средств предметно-языкового обучения информатике для полноценной работы ученика.

Список литературы:

- 1.Н.Тойлоков, А.Ахмедов. Информатика ва хисоблаш техникаси асослари. 11 синф учун дарслик. Тошкент, 2018
- 2.Методическое руководство "Приемы использования иностранного языка на уроках информатики" Пошатов С.Г. 2018 г.



ҚАЙТА СУҒУРТА МУНОСАБАТЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА СУҒУРТА МАҲСУЛОТЛАРИ ТАСНИФНИНГ КҲИ ҲЛЧАМЛИ УНИВЕРСАЛ МАТРИЦАСИНИ ТАДБИҒ ЭТИШ ЙҲЛЛАРИ

Султанов Дилшод Миркамилович

"SAIPRO Ахборот рейтинг агентлиги" МЧЖ Молиявий таҳлил ва рейтинг
департаменти директори Email: dilshodmsultanov@gmail.com

Бугунги кунда дунё суғурта бозорида суғурта маҳсулотларини ягона таснифи ишлаб чиқилмаган. Ҳар бир мамлакат ўз суғурта бозорида мавжуд суғурта маҳсулотларидан келиб чиққан ҳолда суғурта турлари ва классларининг таснифлари амалга оширилган. Ушбу таснифлаш кўпроқ умумлашган характерга эга бўлиб, асосан пруденциал тартибга солиш ва лицензиялаш мақсадларида миллий қонунчиликка киритилган. Мазкур ҳолат рискларни қайта суғуртага беришда қайта суғурталовчи томонидан ҳар бир бирламчи суғурта шартномасининг шартлари ва суғурталанаётган рискларнинг таркибини ўрганиб чиқишни талаб этади. Бу эса ўз навбатида қайта суғурталовчилардан қўшимча вақт ва меҳнатни талаб қилади. Албатта, қайта суғурталовчи ва қайта суғурталанувчи ўртасида аввалдан келишиб олинган стандарт суғурта маҳсулотлари бундан мустасно.

Қайд этиш жоизки, ушбу таснифларда ягона мезон эътиборга олинмаган. Баъзи суғурта класслари суғурта объекти асосида таснифланса, баъзилари рисклар асосида таснифланган. Шу сабабли, маълум бир суғурта маҳсулоти бир вақтнинг ўзида бир ёки бир нечта суғурта классларига таалуқли бўлиши мумкин. Мазкур ҳолат бирламчи суғурта шартномалари бўйича рискларни қайта суғуртага бериш жараёнининг ўзига хос мураккаблигини таъминловчи омил ҳисоланади. Бундан ташқари суғурта маҳсулотларини таснифлашдаги ноаниқликлар ва мураккабликлар суғурта бозори бўйича статистик маълумотларни жамлаш ва аниқ таҳлилларни амалга ошириш имконияти бермаяпти. Масалан, бугунги кунда назорат қилувчи орган томонидан суғурта бозори бўйича алоҳида бир риск бўйича олинган суғурта мукофотлари, суғурта мажбуриятри ва суғурта қопламалари ҳажми тўғрисидаги маълумотни аниқлаш мақсадида суғурта ташкилотларига алоҳида сўровнома юборишга мажбурдир. Бундан ташқари аксарият суғурта ва қайта суғурта ташкилотларида ҳам бундай маълумотнинг аниқ кўрсаткичини олиш ортиқча меҳнат ва вақтни талаб қилади.

Қайта суғурта амалиётида ушбу мураккабликларни бартараф этиш ва умуман суғурта фаолиятида суғурта маҳсулотларини универсал таснифлаш тизимини тадбиқ этишни таклиф этамиз. Суғурта маҳсулотларни таснифлашнинг мазкур тизими нафақат бир мамлакат доирасида балки ҳалқаро суғурта бозорининг ҳам ягона таснифлаш тизими сифатида қўлланилиши мумкин.

Қайд этиш жоизки, бугунги кунда суғурта турларини таснифлашда "суғурта турлари", "суғурта класслари", "суғурта маҳсулотлари", "суғурта объекти" ва "суғурта рисклари" каби категориялардан фойдаланилади. Одатда, "суғурта турлари" ва "суғурта класслари" бир хил мазмунга эга категориялар сифатида қабул қилинади. Суғурта маҳсулоти эса унда назарда тутилган суғурта объекти ва суғурта рискларининг таркибидан келиб чиқиб, маълум бир суғурта турига олиб борилиши мумкин.

Суғурта турлари ва маҳсулотларининг назарий жиҳатдан иқтисодий мазмунидан келиб чиққан ҳолда олиб борилган тадқиқотлар натижасида биз томонимиздан суғурта маҳсулотлари таснифининг кўп ўлчамли универсал матрицаси ҳамда уни шакллантириш методикаси ишлаб чиқилди.



Унга кўра ҳар бир суғурта маҳсулоти суғурта маҳсулотларининг универсал матрицасидан доим ўрин олади. Матрицанинг асосий учта ўлчами қуйидагилардан ташкил топади:

- Суғурта объекти;
- Суғурта риси;
- Суғурта рисининг оқибати.

Суғурта объекти суғурта маҳсулотининг асосий ўзагини ташкил қилиб, суғурталаш ўша объектга нисбатан амалга оширилади. Суғурта объекти кўмас мулк, автотраснпорт воситаси, турли мол мулклар, соғлиқ, ҳаёт, шахс, юридик шахс ва бошқа шу каби моддий ва номоддий нарсалар бўлиши мумкин.

Суғурта риси суғурта маҳсулотида назарда тутилган бўлиб, одатда, суғурта объектига зарар етказиш эҳтимоллиги бор бўлган воқеа ёки ҳодиса ҳисобланади. Бунга мисол сифатида ёнғин, табиий офатлар, антропоген авариялар, турли бахтсиз ҳодисалар, шахсларнинг ноқонуний ҳаракатлари, шахсларнинг кутилмаган хатолари ва бошқа шу каби ҳодисалар.

Суғурта рисининг оқибати деганда суғурта рисининг амалга ошиши натижасида унинг суғурта объектига кўрсатган таъсирининг оқибатларини ўз ичига олади. Масалан, ёнғин натижасида кўчмас мулкка зарар етган тақдирда, мол мулк - суғурта объекти, ёнғин - суғурта риси, мулкнинг шикастланиши эса риск оқибати бўлади. Йўл - транспорт ҳодисаси натижасида айбдорда жабрланувчининг олидида фуқаролик жавобгарлиги юзага келди. Мазкур ҳолатда жавобгарлик - суғурта объекти, ЙТҲ - суғурта риси ва жавобгарликнинг юзага келиши суғурта риси оқибати ҳисобланади. Демак, суғурта маҳсулотларида суғурта риси таъсири натижасида нафақат суғурта объектининг шикастланиши ёки зарарланиши балки суғурта объектининг вужудга келиши ҳам назарада тутилиши мумкин.

Юқорид келтирилган учта категория суғурта маҳсулотининг асосий мазмунини шакллантиради ва улардан бирортасининг мавжуд бўлмаслиги суғурта маҳсулотининг нуқсонли бўлишига олиб келади. Бундан ташқари матрицанинг қўшимча ўлчамлари сифатида суғурта мукофоти ва суғурта мажбуриятлари катталиги, истисноларнинг турларини киритиш мумкин.

Суғурта маҳсулотларининг уч ўлчамли универсал матрицасини кўриш учун ҳар бир категория турларига тегишли тартиб рақамлари (кодлари) ҳамда қўшимча параметрларини бериб чиқиш керак бўлади (2-Жадвал).

2-Жадвал

Суғурта маҳсулотларининг уч ўлчамли универсал матрицасининг кодлари (Намуна)



2-Жадвал

Суғурта маҳсулотларининг уч ўлчамли универсал матричасининг кодлари (Намуна)

Код	Суғурта объекти (X)	Класс	Код	Суғурта рисқи (Y)	Класс	Код	Суғурта рисқи оқибати (Z)
1	Кўчмас мулк	8, 9	1	Ёнгин	1,3 - 13	1	Шикастланиш
2	Автотранспорт воситаси	3	2	Портлаш	1,3 - 13	2	Зарарланиш
3	Ҳаво кемалари	5	3	Бўрон	1,3 - 13	3	Йўқолиш
4	Темир йўл таркиби	4	4	Довул	1,3 - 13	4	Нобуд бўлиш
5	Кема ва қайиқлар	6	5	Жала	1,3 - 13	5	Вафот этиш
6	Асбоб-ускуналар	8, 9	6	Зилзила,	1,3 - 13	6	Жавобгарлик вужудга келиши
7	Юklar	7	7	Ядро энергияси таъсири	1,3 - 13	7	Зарарнинг вужудга келиши
8	Инсон ҳаёти	1, 2	8	Дўл	1,3 - 13	8	Кутилаётган фойданинг йўқотилиши
9	Соғлиқ	1, 2	9	Бузиб кириб ўтириш қилиш	1,3 - 13	9	Ортиқча харажатларнинг вужудга келиши
10	Меҳнат қобилияти	1, 2	10	Қалин қор ёғиши	1,3 - 13
11	Қарз ва кредитлар	14	11	Қаттиқ совуқ тушиши	1,3 - 13		
12	Пул маблағлари	8, 9	12	Йўл-транспорт ҳодисаси	1, 3		
13	Жавобгарлик	10, 11, 12, 13	13	Бахтсиз ҳодиса	1,3 - 13		
14	Фойда	16	14	Касаллик	2		
15	Харажатлар	16, 17	15	Бозор конъюнктурасининг ўзгариши	14 - 16		
...	...		16	Шахсларнинг ноқонуний ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги	1,3 - 13		
			17	Шахсларнинг ҳато ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги	1,3 - 13		
			...	Банкротлик	14 - 16		
				Тўловга ноқобиллик	14 - 16		
			...	Барча хатарлар	1,3 - 17		
					

2-Жадвалда кетирилган намуна асосида амалиётда мавжуд бўлган суғурта объектлари, суғурта рисқари ва унинг оқибатларининг батафсил таснифини амалга ошириш мумкин. Ҳар бир категория бўйича кўрсаткичларни гуруҳларга ҳамда гуруҳ остидаги гуруҳларга ажратиш ҳам мумкин бўлади. Масалан автотранспорт воситалари объектлари юк автомобиллари, енгил автомобиллар, қурилиш техникаси, қишлоқ хўжалиги техникаси каби гуруҳларга ажратиш мумкин. Бунда ҳар қандай суғурта маҳсулоти қуйидаги массив функцияси орқали ифодаланиши мумкин:



$$M(f) = (X; Y; Z; K; \dots)$$

Бу ерда:

X – Суғурта объекти коди;

Y – Суғурта риск(лар)и код(лар)и;


Z – Суғурта риск(лар)и оибат(лар)и коди;

K;... - Суғурта классификация коди ва бошқа илтимос аргументлар.

Масалан, қўшимча мулкни ёнтин, зилзила ва бузиб кириб гирилик иилиш натижасида шикастланиш ва нобуд бўлишдан суғурта иилишга оид суғурта маҳсулотли функцияси 2-Жадвалда келтирилган маълумотларга асосан қуйидаги кўринишга эга бўлади:


$$M(f) = (1; 1,6,9; 1,4; 8; \dots)$$

Мазкур функция аргументларининг қийматлари суғурта маҳсулотининг ўзига ҳос уникал кодини беради. Функциянинг биринчи учта аргументи қийматларини уч ўлчамли координаталар тизимида жойлаштириш орқали суғурта маҳсулотининг уникал уч ўлчамли суръатига ҳам эга бўлиш мумкин (1-Чизма):



Соғлиқни бахтсиз ҳодисалар ва касалликлардан суғурталаш маҳсулотининг уч ўлчамли графиги қуйидаги кўринишга эга бўлади (2-Чизма):

$$M(f) = (9; 13, 14; 1, 5; 1, 2; \dots)$$



Малумки суғурта амалиётида комбинациялашган, яъни ўзида бир нечта суғурта объектларини назарда тутувчи суғурта маҳсулотлари ҳам кенг қўлланилади. Бундай маҳсулотга автотранспорт воситасини комплекс суғурталаш маҳсулотини келтириш мумкин. Ушбу маҳсулот бир вақтнинг ўзида учта суғурта объектини, яъни автотранспорт воситаси, жавобгарлик ва ҳайдовчиларнинг соғлиғи ва ҳаётини суғурта қилишни назарда тутаяди. Мазкур мураккаб суғурта маҳсулотларини қўп ўлчамли матрица функциясини қуйидаги кўринишда ифодалаш мумкин:

$$M(f) = \begin{cases} (2; 12; 1,4; 3; \dots) \\ (13; 12; 6; 10; \dots) \\ (8,9; 12; 1,5; 1,2; \dots) \end{cases}$$

Юқорида қайд этилганидек, ушбу функцияга суғурта маҳсулотининг ўзига ҳос хусусиятларидан кейин чиққан ҳолда чексиз равишда қўшимча аргументларни қўшиш мумкин. Бундай аргументлар бўлиб суғурта мукофотлари, суғурта жавобгарлиги, суғурта қопламаси ҳажмлари кўрсаткичларини мисол қилиб келтириш мумкин. Энг аҳамиятли жиҳати шундаки, қўшимча аргументларни ҳар



бир суғурта объекти, суғурта rischi ёки суғурта rischi оқибатлари кесимидаги тақсимотларини ўта аниқ ифодалаш имконияти мавжуд.

Бундай тартибдаги таснифлашни бир компания, бир мамлакат доирасида ёки халқаро даражада ҳам амалга ошириш мумкин. Суғурта маҳсулотларини кўп ўлчамли универсал матрица асосида таснифлашни йўлга қўйиш суғурта тизимида қўйидаги ижобий натижаларни юзага келтириши кутилмоқда:

- суғурта маҳсулотининг барча асосий хусусиятларини намоён қилиб берувчи универсал кодлаш тизими яратилади. Ушбу тизимни мамлакат даражасида ҳам амалга ошириш мумкин;

- алоҳида суғурта компанияси, суғурта бозори ва халқаро суғурта бозорлари даражасида алоҳида суғурта объектлари турлари, суғурта riskлари турлари ва уларнинг оқибатлари тўғрисида жуда аниқ маълумотларни чиқариб берувчи тизим шаклланади;

- riskларнинг даражаси, уларнинг амалга ошириш статистикасига асосланган ҳолда бозорда энг оптимал суғурта тарифларини белгилаш ҳамда демпинг ҳолатларини олдини олиш имконияти юзага келади;

- алоҳида riskлар кесимида аниқ маълумотлар базаси шаклланганлиги сабабли, мамлакатда суғурта инструментлари ёрдамида risk менеджмент сифатини бир неча барабар ошириш имконияти юзага келади;

- қайта суғурта операцияларини амалга оширишда ҳам бир қанча қулайликлар яратади ва янги қайта суғурта маҳсулотларини амалиётга тадбиқ қилишга шароит яратади.

Маълумки, қайта суғурталаш муносабатлари моҳиятан бирламчи суғурта операциялари устига қурилган иккиламчи муносабатлар ҳисобланади. Бирламчи суғуртада ҳар бир объект ҳамда risk тури кесимида аниқ маълумотларни шакллантириш ва уларни жамлаш учун асос бўлиб хизмат қилувчи суғурта маҳсулотларининг универсал матрицасининг мавжудлиги, ички қайта суғурта бозорини ҳам тубдан ривожлантириш имконини беради деб ҳисоблаймиз. Қоларвеса, ушбу тизимни халқаро суғурта бозорларида ҳам қўллаш катта самара бериш мумкин.

Бунда қайта суғурта шартномасининг объекти нима бўлишига алоҳида эътибор қаратиш керак бўлади. Қайта суғурта маҳсулотлари қайта суғурталаш турига қараб бирламчи суғурта шартномаларига, маълум суғурта тури бўйича суғурта портфелига ёки портфель бўйича алоҳида суғурта riskига боғланган бўлиши мумкин. Шу сабабли, суғурта маҳсулотларининг кўп ўлчамли матрицаси функциясида суғурта объектини тўғри белгилаб олиш керак бўлади. Масалан, зарарлилик эксцеденти бўйича қайта суғурта шартномаларида суғурта объекти бўлиб, қайта суғурталанувчининг маълум бир суғурта тури бўйича портфели ҳисобланади. Бундан ташқари қайта суғуртанинг қандай шакли қўлланилганини аниқлаш учун функцияга қўшимча аргумент қўшишни ўзи кифоя бўлади. Бунда, қайта суғурта маҳсулотларининг кўп ўлчамли матрицаси функцияси қўйидаги кўринишга эга бўлади:

$$M(f) = (X; Y; Z; F; T; \dots)$$

Бу ерда:

X – Суғурта объекти коди;

Y – Суғурта риск(лар)и код(лар)и;

Z – Суғурта риск(лар)и оқибат(лар)и коди;

F – Яйта суғурталаш шакли коди;

T; ... - Яйта суғурталаш тури коди ва бошқа илтимч аргументлар.



3-Жадвал

Қайта суғурта маҳсулотларининг кўп ўлчамли универсал матрицасининг қайта
суғурта муносабатларига тааллуқли кодлари (Намуна)

Код	Қайта суғурталаш шакли (F)	Код	Қайта суғурталаш тури (T)
1	Факультатив қайта суғурталаш	1	Пропорционал суммалар эксцеденти асосида қайта суғурталаш
2	Облигатор қайта суғурталаш	2	Пропорционал квота асосида қайта суғурталаш
3	Факультатив – облигатор қайта суғурталаш	3	Квотали эксцедент асосида қайта суғурталаш
4	Облигатор – факультатив қайта суғурталаш	4	Нопропорционал зарар эксцеденти базасида қайта суғурталаш;
...	...	5	Нопропорционал зарарлилик эксцеденти базасида қайта суғурталаш;
	

Қайд этиш жоизки, қайта суғурталашда ушбу тизимни қўллаш қуйидаги имконияталарни яратади:

- суғурта бозори доирасида ҳар бир объект ва риск тури бўйича зарарлилик даражаси тўғрисида маълумотга эга бўлиш;
- қайта суғурта билан боғлиқ маълумотларнинг аниқлиги ва чуқур статистик таҳлиллар учун етарли бўлиши ички қайта суғурта бозорининг ривожланишига шароит яратиш;
- назорат қилувчи орган томонидан қайта суғурта бозорини кузатиш ҳамда самарали равишда тартибга солиш имкониятини яратиш;
- алоҳида риск турларига тааллуқли янги қайта суғурта турларини ишлаб чиқиш ва амалиётга қўллаш имконияти мавжуд бўлади;
- миллий суғурта бозорининг халқаро қайта суғурта бозорига интеграция жаранини тезлаштиради;
- миллий суғурта бозорининг ягона ахборотлар базасини яратишга осон йўл очилади.



UZLUKSIZ FUNKSIYALAR MAVZUSINI O'QITISHDA "CHARXPALAK" TEKNOLOGIYASINI QO'LLASH

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ "ЧАРХПАЛАК" В ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ НЕПРЕРЫВНЫЕ ФУНКЦИИ

APPLICATION OF TECHNOLOGY "CHARKHPALAK" IN TRAINING THEME CONTINUOUS FUNCTIONS

Merajov Nursaid Ikrom o'g'li

Buxoro davlat universiteti Matematika ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Abstrakt. Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida "Uzluksiz funksiyalar" mavzusini o'qitishda "Charxpalak" metodidan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan. Texnologiyaning tavsifi, maqsadi, qo'llanilishi, mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar, mashg'ulotni o'tkazish tartibi, tarqatma materiallardan namunalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, charxpalak, uzluksiz funksiya, tarqatma material, o'quv mashg'uloti, vosita, mustaqil ta'lim.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovastion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri - an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar talabalarni egallanayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shunday texnologiyalardan biri sifatida mavzusini o'qitishda "charxpalak" texnologiyasini qo'llash masalasini ko'rib chiqamiz.

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya talabalarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni talabalar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam(yoki flomaster) lar.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash) ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Uzluksiz funksiyalar mavzusini o'qitishda "charxpalak" texnologiyasini qo'llash misolida



qaraymiz.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talabalarni guruhlariga ajratish;
- talaba mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- aytaylik, guruh 25 ta talabadan iborat bo'lsin. Guruh talabalarini 5 tadan beshta kichik guruhga ajrataylik. Har bir kichik guruh talabalariga beshta tarqatma materialini tarqatish;

1- tarqatma material: funksiyaning nuqtada uzluksizligi, bir tomonlama uzluksizlik

2- tarqatma material: nuqtada uzluksiz funksiyaning xossalari

3- tarqatma material: funksiyaning nuqtada uzluksizligi

4- tarqatma material: uzilish nuqtalari va ularning turlari

5- tarqatma material: kesmada uzluksiz funksiyaning xossalari

- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;

- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;

vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi. Bunda 1-guruhning 1-a'zosi 2-guruhning 2-a'zosiga, 1-guruhning 2-a'zosi 2-guruhning 3-a'zosiga 1-guruhning 3-a'zosi 2-guruhning 4-a'zosiga va xokazo 1-guruhning 5-a'zosi 2-guruhning 1-a'zosiga o'z tarqatma materialini uzatadi. Natijada har bir guruh a'zolarida turli savolli tarqatma materialini bajaradi;

- yangi guruh a'zolari tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi(ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);

- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirilgan materiallarni (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida)tanlab oladilar;

- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini, qo'shimcha ma'lumotlarni taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

Bu jarayonga berilgan tarqatma material savollari bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq kiritilganligiga e'tibor berish kerak.

Masalan: 2- tarqatma material: nuqtada uzluksiz funksiyaning xossalari tarqatma material quyidagi barcha ma'lumotlar kiritilishi kerak:

Asosiy teorema: Barcha asosiy elementar funksiyalar o'zining aniqlanish sohasidagi har bir x_0 nuqtada uzluksizdir.

1-teorema: Agarda $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar x_0 nuqtada uzluksiz bo'lsa, u holda $f(x) \pm g(x)$, $f(x) \cdot g(x)$ funksiyalar ham bu nuqtada uzluksiz bo'ladi. Agarda qo'shimcha ravishda $g(x_0) \neq 0$ shart bajarilsa, $f(x)/g(x)$ nisbat ham x_0 nuqtada uzluksizdir.

2-teorema: Agar $y=g(x)$ funksiya x_0 nuqtada, $z=f(y)$ funksiya esa $y_0=g(x_0)$ nuqtada uzluksiz bo'lsa, unda $f(g(x))=F(x)$ murakkab funksiya x_0 nuqtada uzluksiz bo'ladi.

Ta'rif: Berilgan $u=f(x)$ funksiya biror $x=a$ nuqtada aniqlangan bo'lib, bu nuqtada uning o'ng (chap) limiti mavjud va

$$\lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = f(a+0) = f(a) \quad \left(\lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = f(a-0) = f(a) \right)$$

shartni qanoatlantirsa, u holda $f(x)$ funksiya a nuqtada **o'ngdan(chapdan) uzluksiz** deyiladi.

3-teorema: Berilgan $y=f(x)$ funksiya qaralayotgan $x=a$ nuqtada uzluksiz bo'lishi uchun bu nuqtada u ham chapdan, ham o'ngdan uzluksiz bo'lishi zarur va yetarlidir.



- o`qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o`qiydi va jamoa bilan birgalikda to`g`ri javoblarni belgilaydi;
- har bir talaba to`g`ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to`playdilar va o`z-o`zini baholaydilar.

Yopiq to'plamda aniqlangan uzlusiz funksiyalar, ularning qiymatlar sohasi, minimum va maksimumga erishuvchi nuqtalar tavsifi [1-8] ishlarda tadqiq qilingan. Ularni o'rganishda talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar muhim o'rin egallaydi.

Адабиётлар.

- 1.Muminov M.I., Rasulov T.H. On the eigenvalues of a 2x2 block operator matrix. *Opuscula Mathematica*. 35:3 (2015), pp. 369-393.
- 2.Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3x3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.
- 3.Muminov M.I., Rasulov T.H. Embedded eigenvalues of an Hamiltonian in bosonic Fock space. *Communications in Mathematical Analysis*. 17:1 (2014), pp. 1-22.
- 4.Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.
- 5.Расулов Т.Х. Исследование спектра одного модельного оператора в пространстве Фока. *Теорет. матем. физика*. 161:2 (2009), С. 164-175.
- 6.Rasulov T.H. Investigations of the essential spectrum of a Hamiltonian in Fock space. *Appl. Math. Inf. Sci.* 4:3 (2010), pp. 395-412.



ДЕТЕРМИНАНТЛАР МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА "ЗИНАМА-ЗИНА" МЕТОДИ

МЕТОД "ЛЕСТНИЦА" ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ ДЕТЕРМИНАНТЫ

METHOD "LADDER" IN LEARNING THE TOPIC OF DETERMINANTS

Меражов Нурсайд Икром ўғли

Бухоро давлат университети Математика таълим йўналиши
3-босқич талабаси

Абстракт. Ушбу ишда Олий математика ва Чизиқли алгебра фанидан "Детерминантлар" мавзусини ўқитишда "Зинама-зина" методининг мазмуни ва моҳияти очиб берилган. Ўқув машғулотида фойдаланиш учун топшириқлардан намуналар келтирилган. 2-тартибли ва 3-тартибли квадрат детерминантларни ҳисоблаш бўйича баъзи фикр-мулоҳазалар ёритилган.

Калит сўзлар: детерминантлар, инновацион педагогик технология, зинама-зина методи, учбурчак усули.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида инновацион педагогик ва ахборот технологияларидан кенг фойдаланиб, таълим самарадорлигини оширишга бўлган қизиқиш кун сайин ортиб бормоқда. Ушбу технологиялар асосида ўтказилган машғулотлар ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига, фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имкон яратади. Инновацион технологиялар педагогик жараёнга ҳамда ўқитувчи ва талабалар фаолиятига янгилик, ўзгартиришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан фаол ёки интерфаол методлардан фойдаланилади. Айнан шундай методлардан бири "Зинама-зина" методидир. Ушбу машғулот талаба ёки ўқувчиларини ўтилган ёки ўтилиши керак бўлган мавзу бўйича яқка ва кичик жамоа бўлиб, фикрлаш ҳамда хотирлаш, ўзлаштирилган билимларни ёдга тушириб, тўпланган фикрларни умумлаштириш ва уларни ёзма, расм, чизма, кўринишида ифодалай олишга ўргатади. Бу метод талаба ёки ўқувчилар билан бир гуруҳ ичида яқка ҳолда ёки гуруҳларга ажратилган ҳолда ёзма равишда ўтказилади ва тақдимот қилинади. Ушбу методнинг мақсади талабаларни эркин, мустақил ва мантиқий фикрлашга жамоа бўлиб ишлашга, изланишга, фикрларни жамлаб, улардан назарий ва амалий тушунча ҳосил қилишга, жамоага ўз фикри билан таъсир эта олишга ва уни маъқуллашга шунингдек, мавзунини таянч тушунчаларига изоҳ беришда эгаллаган билимларини қўллай олишга ўргатиш. Ушбу методдан семинар, амалий ва лаборатория машғулотларида кенг қўллаш мумкин. Бунинг учун машғулот жараёнида қуйидаги воситалар: А-3, А-4 форматли қоғозларни тайёрлаб (ажратилган кичик вазифалари сонига мос) чап томонига топшириқлар номи ёзилган тарқатма материаллар, фломастер кабилар қўлланилади. Қўллаш технологияси: Ўқитувчи талабаларни мавзу қисмлар сони қараб, 4-5- кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратилади (гуруҳларни сони 4 ёки 5 бўлган маъқул) Талабалар машғулотнинг мақсади ва уни ўтказилиши тартиби билан таништиради. Ҳар бир гуруҳга қоғознинг чап қисмига топшириқ номи кўрсатилган варақлар тарқатилади. Ўқитувчи гуруҳ аъзоларини тарқатма материалда ёзилган топшириқлар билан таништиради ва шу вазифалар асосида фломастер ёрдамида қоғоздаги бўш жойга жамоа аъзолари биргаликда умумий фикрларни ёзиб чиқадиларини вазифаси топшириқ сифатида беради ҳамда вақт регламентини белгилайди. Кичик гуруҳ



аъзолари биргаликда тарқатма материалда кўрсатилган топшириқ бўйича фикрларни ёзма расм ёки чизма кўринишда ифода этадилар. Унда гуруҳ аъзолари имкони борича тўлароқ маълумот беришлари керак бўлади. Тарқатма материаллар тўлдирилганч, гуруҳ аъзоларидан бир киши тақдимот қилади, бу жараёнда гуруҳлар томонидан тайёрланган материал албатта, аудиториядаги пинборд (пинванд) доскасига ёки синф доскасига мангиқан кетма-кетликда тагма-таг (зина шаклида) илинади ва кичик гуруҳ вакили томонидан тақдимот қилинади. Ўқитувчи ва гуруҳ талабалари тақдимотни тинглайди ва топшириқ бўйича савол-жавоб асосида муҳокама этадилар, гуруҳлар томонидан тайёрланган материалларни баҳолайди ва машғулоти яқунлайди.

Ушбу методни қўллаш технологиясини "Детерминантлар" мавзуси мисолида кўриб ўтамыз. Айтайлик, гуруҳда 25 нафар талаба таҳсил олади ва 5 та топшириқларни тақсимлаш учун 5 талабадан бешта кичкина гуруҳларга ажратамыз. Топшириқлар: 1-гуруҳ иккинчи ва учинчи тартибли детерминантлар, 2-гуруҳ детерминантнинг хоссалари, 3-гуруҳ минор ва алгебраик тўлдирувчилар, 4-гуруҳ n-тартибли детерминантлар, 5-гуруҳ детерминантлар ҳақидаги умумий тушунчалар.

Кичик гуруҳ аъзолари биргаликда тарқатма материалда кўрсатилган топшириқ бўйича фикрларни ёзма расм ёки чизма кўринишда ифода этадилар. Бунда ажратилган топшириқларни ўзлаштириш даражасини аниқлаш мақсадида барча гуруҳларга бирта мисолни фақат ўзлари ўрганган методлари ёрдамида ишлаш талаб қилинади. Тарқатма материаллар тўлдирилади, гуруҳ аъзоларидан бир киши тақдимот қилади. Тақдимот вақтида бошқа гуруҳ талабалари ҳам янги методларни ўрганишади.

Мисол тариқасида 1-гуруҳ тақдимотидан намуна кўрсатайлик:

II тартибли детерминантнинг қиймати қуйидаги формула билан аниқланади

$$|A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11} \cdot a_{22} - a_{12} \cdot a_{21}$$


III тартибли детерминантнинг қиймати қуйидаги формула билан аниқланади:

$$|A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11} \cdot a_{22} \cdot a_{33} + a_{12} \cdot a_{23} \cdot a_{31} + a_{21} \cdot a_{32} \cdot a_{13} - \\ - a_{13} \cdot a_{22} \cdot a_{31} - a_{12} \cdot a_{21} \cdot a_{33} - a_{23} \cdot a_{32} \cdot a_{11} \quad (1)$$

Бу ерда (1) формулани эслаб қолиш осон эмас ва шу сабабли III тартибли детерминантларни қуйидаги усулларида ҳисоблаш мумкин.

Схемаси чизилган, гуруҳ аъзоларидан тақдимот қилаётган киши тушунтиради.

- Учбурчак усули.



Хулоса қилиб, шунни таъкидлаш жоизки дарс жараёнида зинама-зина методини қўллаш орқали талабаларда шахслараро муомала малакасини шакллантиришга; ёзма ва оғзаки нутқни ривожланишига; дарс жараёнида талабаларни фаоллаштиришга; талабаларда мотивация (қизиқиш)ни оширишга ҳамда назарий билимларни амалиётда қўллаш олишга ўргатади.

Шунинг алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, талабалар квадрат детерминантлар мавзуси бўйича эгалланган билим ва кўникмалар ёрдамида замонавий математик физикада кўп учрайдиган умумлашган Фридрихс моделига мос Фредгольм детерминантини [1-8] тадқиқ қилишлари мумкин. Интеграл операторларнинг Фредгольм детерминанти ва Фредгольм минорини куришда детерминантларнинг асосий хоссалари муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар.

1. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the eigenvalues of a 2x2 block operator matrix. *Opuscula Mathematica*. 35:3 (2015), pp. 369-393.
2. Rasulov T.H. On the finiteness of the discrete spectrum of a 3x3 operator matrix. *Methods of Functional Analysis and Topology*, 22:1 (2016), pp. 48-61.
3. Muminov M.I., Rasulov T.H. Embedded eigenvalues of an Hamiltonian in bosonic Fock space. *Communications in Mathematical Analysis*. 17:1 (2014), pp. 1-22.
4. Rasulov T.H. The finiteness of the number of eigenvalues of an Hamiltonian in Fock space. *Proceedings of IAM*, 5:2 (2016), pp. 156-174.
5. Расулов Т.Х. Исследование спектра одного модельного оператора в пространстве Фока. *Теорет. матем. физика*. 161:2 (2009), С. 164-175.
6. Rasulov T.H. Investigations of the essential spectrum of a Hamiltonian in Fock space. *Appl. Math. Inf. Sci.* 4:3 (2010), pp. 395-412.
7. Muminov M., Neidhardt H., Rasulov T. On the spectrum of the lattice spin-boson Hamiltonian for any coupling: 1D case. *J. Math. Phys.*, 56 (2015), 053507.
8. Muminov M.I., Rasulov T.H. On the number of eigenvalues of the family of operator matrices. *Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics*, 5:5 (2014), pp. 619-625.



KIMYO FANLARI SOHASIDA METALLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA O'RTA OSIYO OLIMLARI TOMONIDA AMALGA OSHIRILGAN TUB IZLANISHLAR

Farmanova Shoira Bobanazarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Kimyo fani doirasida fikr bildirar ekanmiz, uning moddalarning tuzilishi va o'zgarishini o'rganadigan fan ekanligini haqida dastlabki xulosaga kelamiz. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarini qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini hosil qilish va nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro'yobga chiqdi. Kimyogarlar bir moddadan ikkinchi moddani tayyorlash ishi bilan shug'ullanishgan. Abu Ali ibn Sino "Al - qonun" kitobida o'simlik, hayvon, minerallar, tuzlar, kislotalar, ishqorlar, metallar, oksidlar va boshqa birikmalarning 750 dan ortiq turini keltiradi. Kimyo metallar haqidagi eng zarur ma'lumotlarni, sohaga oid ilmiy yangilik va qiziqarli ma'lumotlarni hamda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan metallarning qisqacha texnologik jarayonlari haqidagi qismlar haqida fikr yuritishimizda imkon yasaydi.

Kalit so'zlar: kimyo, Ibn Sino, Metallar, noorganik kimyo, Ar-roziy, tadqiqotlar, kimyoviy xossalar.

Kirish: O'rta osiyo olimlari Abu Ibn Sino, Ar-roziy, Abu Rayhon Beruniy tomonidan kimyo sohasida ko'plab iznanish va tadqiqotlar olib borildi, jumladan metalarni o'rganishda ham:

Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolutsion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino 21 yoshida ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va muqaddam kimyogarlarning ta'siri ostida "Baraqiyga atab san'at (al - kimyo)ga doir risola") nomli kichik asar yozgan, lekin 30 yoshlarga borib ilmiy tajribasi ortdi. Yosh olim bu sohadagi ishlarni zoye ketishiga amalda ishonch hosil qildi va "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") asarida kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildirdi. 40 yoshlarda yozishga kirishgan "Kitob ash - shifo" da kimyogarlarning transmutatsiya sohasidagi barcha harakatlari befoyda ekanligini nazariy jihatdan isbotlashga urindi. Uning fikricha, o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan har bir metal alohida bir modda bo'lib, kimyogarlar o'ylagandek, bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasada, uni narsalardan yasab bo'lmasligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o'rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o'sib o'tishida ilmiy rol o'ynadi. Ibn Sino turli kasalliklarning differensial diagnostikasida va gavdaning umumiy holatini aniqlashda tomir urushi, siydik va najasga qarab olingan belgilarga katta e'tibor berdi.

Abu Rayhon Beruniy alkimyo yo'li bilan oltin va kumush tayyorlash fan hal qila olmaydigan behuda urinishdir, degan xulosaga keladi. "Mineralogiya"da har bir qimmatbaho tosh yoki metallarni tavsiflash jarayonida arab mumtoz shoirlarining o'sha tosh yoki metal haqida yozgan she'rlaridan namunalar keltirilgan. Dunyoning tuzilishini tushuntirishda Beruniy atomizmga yaqin bo'lgan. Uning atomistikasi atomlarning moddiy xarakteristikasini va har qanday determinizmni inkor etuvchi mutakallimlarning fikr va qarashlariga qarama - qarshi qo'yilgan.

Yoshligidan bilimga chanqoq, qiziquvchan ar - Roziy, avval Tehronda, so'ng Buxoroda,



Bag'dodda ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni o'rgandi. Yoshligidanoq ar - Roziy o'sha paytda keng tarqalgan qarashlarga hamohang ravishda turli metallarni oltinga aylantirish borasida tajribalar olib bordi. Ar - Roziy kimyoviy tajribalar orqali metallar transmutatsiyasiga erishishni orzu qilardi. Uning fikricha, kimyoning asosiy maqsadi oddiy toshlar, ya'ni, kvarts, chaqmoqtoshdan qimmatbaholarini hosil qilishdir. Buning uchun u Jobir ibn Hayyom tajribasiga murojaat qilgan holda, qimmatbaho tosh va metallar hosil qilish uchun nafaqat oltingugurt va simob ishlatilishini, balki, ular qatoriga tuzni ham qo'shish kerakligini ta'kidlaydi .

G'arb olimlari tomonidan ham kimyo sohasida tub burilishlar kuzatildi: Noorganik kimyo sohasidagi dastlabki ishlar Y.I. Pozner (1865-1949 yy.) rahbarligida 1920 yillar boshida noorganik moddalar laboratoriyasida tuzlar eruvchanligini tekshirish bilan boshlandi. XX asrda noorganik kimyo va koordinatsion birikmalar kimyosining yangi davri - sanoat miqyosida nodir va siyrak - yer metallarini tog' jinslaridan ajratib olish, qo'shimchalardan tozalash va amaliy qo'llash sohaslarini kengaytirish davri boshlandi. Masalan, reniy metalli va qotishmalari avia- va raketosozlik, yuqori haroratda ishlaydigan termostatlarda va o'tga chidamli materiallar olishda ishlatiladi. Ammo uni ajratib olish juda qiyin, chunki o'z birikmalarida reniy 8 xil valent holatlarida bo'lishi mumkin. Rus metallurigi va tog' injeneri Anosov Pavel Petrovich 1831-yilda 1-bo'lib po'lat tuzilishini o'rganishda mikroskopdan foydalangan. U po'lat buyumlarni siqilgan havo oqimida toblash usulini kashf etgan. Quyma po'lat tayyorlab, ko'pchilik zavod mexanizmlarini va pechlarni yangilagan va takomillashtirgan.

Rus metallurigi Chernov Dmitriy konstantovich 1869-yilda po'latdan quymalar tayyorlash po'latni yassilash va termik qayta ishlash sharoitlarini topgan. Shundan keyin kislorod puflash zarurligini bashorat qildi. Po'lat buyumlar bronzadan yasalgan buyumlarni siqib chiqara boshlashda. Konventorlarda Tabiatda sof platina (Pt) asrimizning boshlarida Iso degan daryo havzasidan topilgan. U hozir Rossiyaning Olmos kolleksiyalarida saqlanadi. U juda ham siyrak holda uchraydi. Eng yirik 9,63 kg massali Pt yombisi topilgan

Asosiy qism:

Kimyoda Metallar tushunchasi bilan quyidagicha tanishamiz: (yun. metalleuo - qazyiman, yerdan qazib olaman) - oddiy sharoitda yuqori elektr o'tkazuvchanligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, elektr magnit to'lqinlarini yaxshi qaytarishi, plastikligi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan oddiy moddalar. Metallar qattiq holatda kristall tuzilishda bo'ladi. Bug' holatida esa bir atomlidir. Metallarning oksidlari suv bilan birikkanida ko'pincha gidroksidlar (asoslar) ga aylanadi. Metallar elektron tuzilishi tufayligina yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Metallar atomlari tashqi (valent) elektronlarini osonlikcha beradi. Metallarning kristall panjarasida hamma elektron o'z atomi bilan birikkan bo'lavermaydi. Ulardan ba'zilari harakatlanadi. Metallarning atomlari valent elektronlarini ancha oson beradi va musbat zaryadlangan ionlarga aylanadi. Shuning uchun metallar qaytaruvchilar hisoblanadi. Ularning asosiy va eng umumiy kimyoviy xossasi ana shundan iborat. "Alkimyo" asoschisi Jobir ibn Hayyom metallarning paydo bo'lishidagi oltingugurt - simob nazariyasini olg'a surdi.

Kimyo sohasida shu narsa ravshanki, metallar qaytaruvchilar sifatida turli xil oksidlovchilar bilan, jumladan, oddiy moddalar, kislotalar, aktivligi kamroq bo'lgan metallarning tuzlari va ba'zi boshqa birikmalar bilan reaksiyalarga kirishadi. Metallarning galogenlar bilan hosil qilgan birikmalari galogenidlar, oltingugurtli birikmalari - sulfidlar, azotli birikmalari - nitridlar, fosforli birikmalari - fosfidlar, uglerodli birikmalari - karbidlar, kremniyli birikmalari - silitsidlar, bromli birikmalari - bromidlar, vodorodli birikmalari - gidridlar deyiladi va boshqalar . Bu birikmalarning ko'pchiligi yangi texnikada muhim sohalarda ishlatiladi. Masalan, metallarning boridlaridan radiotexnikada, shuningdek, yadro texnikasida neytronli nurlanishni rostlovchi va undan muhofaza qiluvchi



materiallar sifatida foydalaniladi. Metallarning metallmaslar, kislotalar, aktivligi kamroq metallar tuzlarining eritmalari, suv va ishqorlar bilan o'zaro ta'siri ularning asosiy kimyoviy xossasi - qaytaruvchilik xususiyatini tasdiqlaydi. Metallar bir-biri bilan ham kimyoviy birikmalar hosil qilishi mumkin. Ularning umumiy nomi - intermetall birikmalar yoki intermetallidlar. Bularga ba'zi metallarning surma bilan hosil qilgan birikmalari misol bo'la oladi: Na_2Sb , Ca_3Sb_2 , NiSb , Ni_4Sb , FeSb ($x= 0,72-0,92$).

Ularda ko'pincha metallmaslar bilan hosil qilgan birikmalariga xos bo'lgan oksidlanish darajasiga rioya qilinmaydi. Odatda, bular bertollidlar bo'ladi. Intermetallidlarda kimyoviy bog'lanish asosan, metall bog'lanishdan iborat bo'ladi. Ular tashqi ko'rinishidan metallarga o'xshaydi. Intermetallidlarning qattiqligi, odatda, ularni hosil qilgan metallarnikidan yuqori, plastikliги esa ancha kam bo'ladi. Ko'pchilik intermetallidlar amalda ishlatiladi. Masalan, surma-aluminiy AlSb , surma-indiy InSb va boshqalardan yarimo'tkazgichlar sifatida ko'p foydalaniladi. D. I. Mendeleevning davriy sistemasidagi 109 kimyoviy elementning 87 tasi Metall, 22 tasi metallmasdir. Barcha Metallarni "oddiy metallar", "oraliq metallar", "lantanoid va aktinoidlar" tashkil qiladi. Davriy sistemada asosiy guruhchalardagi metallar oddiy metallar (s- va r-elementlar), qoshimcha guruhchaga joylashgan metallar - oraliq metallar yoki (d- va f- elementlar) nomi bilan yuritiladi. Oddiy moddalarni metallar va metallmaslar deb shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi. Mas, Ge va Sb qaysi turkumga kirishi to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Lekin germaniyni yarimo'tkazgich xossalriga ega bo'lgani uchun metallmas, surmani esa fizik xossalriga ko'ra yarim metall bo'lsada, metall deb hisoblash to'g'riroqdir. Qalayning metall (Z-Sn) va yarim-o'tkazgich (a-Sn) modifikatsiyalari bor. Germaniy, kremniy, fosfor va ba'zi metallmaslarning yuqori bosim ostida metall kabi o'tkazuvchi modifikatsiyalari mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, yuqori bosim ostida barcha moddalar ham metallik xossalarni namoyon qilishi mumkin. Shu sababli, u yoki bu elementni metalga yoki metallmaslarga taalluqli ekanligini belgilashda uning nafaqat fizik xossalarni, balki kimyoviy xossalarni ham hisobga olish zarur. metallarning zichligi haqida so'z borar ekan uning zichligi 5 dan kichik metall yengil, 5 dan kattalari - og'ir metall deyilishini bilib olishimiz mumkin. Temir va uning qotishmalari qora metall qolganlari rangli metall deb yuritiladi. Asl metall bunga qaramaydi. Nodir metall jumlasiga vanadiy, molibden, berilliy, indiy, sirkoniy, lantan, niobiy, tantal, reniy, germaniy, galliy, talliy va boshqa kiradi. "Nodir metall" degan ibora shartli ibora bo'lib, sof metall ajratib olish usullarining qanchalik takomillashganiga bog'liq; bir vaqtlar "nodir" deb hisoblangan titan endilikda "nodirlar" jumlasiga kirmaydi (Metallning kimyoviy va fizik xossalari haqida metall elementlarga oid maqolalarga qarang). Metallning ba'zi birikmalarida (qotishmalarda ham) metall bog'lanish (metallni hosil qiluvchi zarralar orasidagi bog'lanish) saqlanib qoladi. Metall tabiatda erkin va kimyoviy birikmalar holida uchraydi. Asl metall (oltin, platina, kumush), ba'zan mis, qalay va simob sof holda topiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki O'zbekistonda hozirgi kunda 40 ta qimmatbaho metallarning konlari qidirib topilgan. Oltin zaxiralari bo'yicha O'zbekistonda dunyoda 4- o'rinda turadi. Oltin konlari Qizilqumdagi Muruntov, Ajibugut, Bulutkon, Balkantov, Aristontov, To'rboy va boshqa yerlarda joylashgan. Kumush konlari Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, O'qjetpes, Kosmonachi va Namangan viloyatidagi Oqtepa hududida joylashgan. Cu asosan Toshkent viloyatidagi Qalmoqir konidan qazib olinadi. (Cu-Moli rudalar ko'rinishida). Shuningdek O'zbekistonda Au, Ag, Cu, Re, Mo, Pb, Zn, W, Cd, Ni, Os, V, Sc, Te, Se kabi ko'plab metallar konlari mavjud. Akademik N.A. Parpiyev va shogirdlari Olmaliq qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar kombinatida yuqori sifatli reniy va volframni ajratib olish texnologiyasini nazorat qilish borasidagi ilmiy - amaliy ishlari joriy etdilar.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.N.A.Parpiev, A.G.Muftaxov, X.R.Raximov. Anorganik kimyo. Toshkent "O`zbekiston" 2003 y.
- 2.Ismoilov, M. Nishonov "Ustozlar xotirasi abadiydir" ("Kimyo ta'limi samaradorligini oshirish omillari" mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy anjumanning materiallari) Farg'ona, 2011, 281-b
- 3.E. Qulmatov "Oltiariq olimlari", Toshkent, 2010 yil, 208
- 4.Z. Tilyabayev "O'zbek fanini dunyoga tanitgan olim", "XXI asr texnologiyalari" ilmiy-texnikaviy jurnal, N° 4(5), 2011, 32-b.



МУКАММАЛ ДИЗЪЮНКТИВ ВА КОНЪЮНКТИВ НОРМАЛ ШАКЛЛАР МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА "НИЛУФАР ГУЛИ" ТЕХНОЛОГИЯСИ

ТЕХНОЛОГИЯ "ЦВЕТOK ЛОТУСА" В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА СОВЕРШЕННЫХ ДИЗЪЮНКТИВНЫХ И КОНЪЮНКТИВНЫХ НОРМАЛЬНЫХ ФОРМ

TECHNOLOGY "LOTUS FLOWER" IN TRAINING THE SUBJECT OF PERFECT DISJUNCTIVE AND CONJUNCTIVE NORMAL FORMS

Умарова Умида Умаровна

Бухоро давлат университети Математика кафедраси катта ўқитувчиси
e-mail: umida.umarova.2019@mail.ru


Аннотация: Ушбу мақолада "Мукаммал дизъюнктив ва конъюнктив нормал шакллар" мавзусини ўқитишда "Нилуфар гули" методидан фойдаланилган. Талабаларда ҳал этилаётган масала юзасидан мантиқий, изчил фикрлаш, ички моҳиятини таҳлил қилиш кўникмаларини шакллантирувчи ушбу методни дарсда қўллаш намунаси келтирилган. Ўйин иштирокчилари беихтиёр равишда ўйин давомида ўз хислатларини намоён қилишлари, бунда улар умумий иқтидорини, ўз табиатидаги мавжуд журъат, тезкорлик, киришимлилиқ, ташаббускорлик, фаоллик каби хислатлар бор ёки йўқлигини ҳам намоёйиш этишлари инobatга олиниши кераклиги хақида фикр юритилган. Ва нихоят методнинг афзалликлари санаб ўтилган.

Калит сўзлар: Инновацион технологиялар, педагогик жараён, метод, талаба, ўқитувчи, нилуфар гули методи, ўйин, муаммо, мукаммал дизъюнктив ва конъюнктив нормал шакллар.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштирган, бу ахборотларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак. Бу борада касб-ҳунар таълимида инновацион технологияларнинг бошқариш жараёнидаги ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Ўқитувчи таълим жараёнида интерфаол таълим технологиялари ёрдамида талабаларнинг қобилиятларини ривожлантириш, ўз-ўзини назорат қилиш ва бошқариш, самарали суҳбат олиб бориш, тенгдошлари билан ишлаш, уларнинг фикрларини тинглаш ва тушуниш, мустақил, ижодий, танқидий фикрлаш, муқобил таклифларни илгари суриш, фикр-мулоҳазаларини эркин баён қилиш, ўз нуқтаи назарларини ҳимоя қилиш, муаммонинг ечимини топишга интилиш, мураккаб вазиятлардан чиқа олиш каби сифатларни шакллантиришга эришиш мумкин [1-6].

"Нилуфар гули" технологияси дидактик муаммоларни ечишнинг самарали воситаларидан бўлиб, нилуфар гули кўринишига эга. Асос ва унга бириккан тўққизта "гулбарг" (квадрат, тўртбурчак ёки айланалар)ни ўз ичига оладиган бу метод ёрдамида асосий муаммо ва унинг мазмунини ёритишга имкон берадиган хусусий масалалар ҳал этилади.

Мукаммал дизъюнктив ва конъюнктив нормал шакллар мавзусига оид "Нилуфар гули"ни қуйидагича шакллантириш мумкин. 1-расм.



1-расм.

Жавоб вариантларидан бири сифатида қуйидагича тўлдирилган "Нилуфар гули"ни кўришимиз мумкин. 2-расм.

$A \wedge B = \overline{\overline{A} \vee \overline{B}}$	Элементар дий юнкция	$A \wedge J = A$	$xy = (\overline{x \vee y})$ $(x \vee \overline{y})$	$x \rightarrow y = (\overline{x} \vee y)$ $(x \vee \overline{y})$	$x \rightarrow y = \overline{x} \vee y$	$\overline{A \vee B} = \overline{A} \wedge \overline{B}$	Элементар конъюнкция	$A \vee A = A$
$A \rightarrow B = \overline{A} \vee B$	КНШ	$A \wedge \overline{J} = \overline{J}$	КНШ	МКНШ	Дизъюнктив конститuent	$\overline{A \rightarrow B} = \overline{A \wedge \overline{B}}$	ДНШ	$A \vee \overline{J} = A$
$A \leftrightarrow B = (\overline{A \vee B}) \vee (A \vee \overline{B})$	$A \wedge A = A$	$A \wedge \overline{A} = \overline{J}$	Тўлиқ элементар дий юнкция	Элементар дий юнкция	Тўри элементар дий юнкция	$\overline{A \leftrightarrow B} = (\overline{A \wedge B}) \vee (A \wedge \overline{B})$	$A \vee J = J$	$A \vee \overline{A} = J$
Коммутативлик $A \vee \overline{A} = J$	Ассоциативлик	Дистрибутивлик	КНШ	МКНШ	ДНШ	Тўлиқ элементар конъюнкция	ДНШ	Тўри элементар конъюнкция
Идемпотентлик	Асосий тенгкучликликлар	де-Морган	Асосий тенгкучликликлар	Мукам мал нормал шакллар	МДНШ	Элементар конъюнкция	МДНШ	Конъюнктив конститuent
Учинчистистено	ютиш	Карамкаршиллик	мулоҳаза	формула	Мантикий амаллар	$x \vee y = x \vee \overline{x} \vee y$ $y \vee x = \overline{y} \vee x \vee y$	$x \rightarrow y = x \vee \overline{x} \vee y$ $y \vee x = \overline{y} \vee x \vee y$	$x \rightarrow y = x \vee \overline{x} \vee y$
чин	ёлгон	Мураккаб	Элементар	Тенгкучлик	Айнан чин	—	∧	∨
Қийматлар сатри	мулоҳаза	Ўзгарувчи	Мураккаб	формула	Айнан ёлгон		Мантикий амаллар	→
устуи	амаллар	Чиклик жадвали	Мантикий хулосаси	Мантикий эквивалент	Бажари лувчи	⊕	↓	↔

2-расм.

"Нилуфар гули" методининг афзалликлари:

- Султ ўзлаштирувчи талабаларни ҳам дарсда фаол қатнашишлари таъминланади.
- Талабалар у ёки бу тушунчани, жараёни ўрганишда ўзлари қатнашганликлари туфайли у хотираларида узоқ сақланиб, фаол билим заҳирасини ташкил этади.
- Билим ва малака ўқиш, фаолият юритиш жараёнида шаклланади.
- Бирор малакани эгаллаш учун унга оид фаолиятни кўп марта такрорлаш, машқ қилиш, мунтазам амалга ошириш зарур. Ана шу жараён натижасида талабаларда ўқув, кўникма шаклланади.
- Ўйин иштирокчилари беихтиёр равишда ўйин давомида ўз хислатларини намоён қиладилар. Бунда улар умумий иқтидорини, ўз табиатидаги мавжуд журъат, тезкорлик, киришимлилиқ, ташаббускорлик, фаоллик каби хислатлар бор ёки йўқлигини ҳам намоёиш этадилар.
- Талабаларни ўйин жараёнига тортишиши, ўйин жараёнида юз берадиган вазият, эмоционал ҳаяжон, қайғуриш уларни ижодий фаолиятини оширувчи



кучли стимулятор ролини ўйнайди.

- Талабаларда фанни ўзлаштиришга бўлган қизиқиши ортади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Умарова У.У. Роль современных интерактивных методов в обучении темы "Множество и операции над ними". Вестник науки и образования 94:2020. № 16. часть 2, С. 21-24.

2. Умарова У.У. Применение триз технологии к теме "Нормальные формы для формул алгебры высказываний". Наука, техника и образование. 72:8 (2020) С. 32-35.

3. Umarova U.U., Beshimova D.R. Hyperspace and cs-network. Journal of Global Research in Mathematical Archives. №6 (2019), pp. 28-30.

4. Меражова Ш.Б., Умарова У.У. Аппроксимация первой краевой задачи разностной моделью для уравнения смешанного типа. "Молодой учёный", 2017, С. 10-12.

5. Умарова У.У. Аналог системы интегральных уравнений Фаддеева для трехчастичного модельного оператора. Учёные XXI века. 40:5-3 (2018), С. 14-15.

6. Умарова У.У. Обычные и квадратичные числовые образы 2×2 -матриц. Оператора. Учёные XXI века. 53:6-1 (2019), С. 25-26.



ФОРМУЛАЛАРНИНГ НОРМАЛ ШАКЛЛАРИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ НОРМАЛЬНЫЕ ФОРМЫ ФОРМУЛ

USE OF INTERACTIVE METHODS IN LEARNING THE TOPIC NORMAL FORMS OF FORMULAS

Отамуродов Фармон Рашидович

Бухоро давлат университети математика таълим йўналиши
3-босқич талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада "Формулаларнинг нормал шакллари" мавзусини ўқитишда "Қизил ва яшил рангли карточкалар билан ишлаш" методидан фойдаланилган. Интерфаоллик таълим жараёни мақсади иштирокчиларининг билим кўникма, малака ҳамда муайян ахлоқий сифатларини ўзлаштириш эканлиги ҳақида фикр юритилган. Таҳсил олувчилар билан оммавий ва гуруҳ шаклида ишлашда ушбу методни қўллаш ниҳоятда қулайлиги ҳақида гапирилган. Методдан машғулотлар сўнгида мавзунини мустақамлашга оид тезкор савол-жавобни ташкил этишда фойдаланиш тартиби кўриб чиқилган. "Қизил ва яшил рангли карточкалар билан ишлаш" методи афзаллик томонлари келтирилган.

Калит сўзлар: Интерфаол таълим, метод, сўровнома, талаба, формула, нормал шакл, қизил ва яшил рангли карточкалар, элементар мулоҳаза.

Ҳозирги вақтда "педагогик технология таълим беришнинг техник воситалари ёки компьютердан фойдаланиш соҳасидаги тадқиқотлардек қаралмай, балки бу таълимий самарадорликни оширувчи омилларни таҳлил қилиш йўли орқали, йўл ва материалларни тузиш ҳамда қўллаш, шунингдек қўлланилаётган усулларни баҳолаш орқали таълим жараёни тамойилларини аниқлаш ва энг мақбул йўллари ишлаб чиқиш мақсадидаги тадқиқотдир. Интерфаол таълим асосини интерфаол методлар ташкил этади. Таълим жараёнида талаба ҳамда ўқитувчи ўртасида ҳамкорликни қарор топтириш, фаолликни ошириш таълим олувчилар томонидан билимларни самарали ўзлаштириш, уларда шахсий сифатларни ривожлантиришга хизмат қиладиган методлар интерфаол методлар саналади.

Интерфаол таълим - таълим жараёни иштирокчиларининг билим, кўникма, малака ҳамда муайян ахлоқий сифатларини ўзлаштириш йўлида биргаликда, ўзаро ҳамкорликка асосланган ҳаракатни ташкил этишга асосланувчи таълим.

Интерфаоллик таълим жараёни иштирокчиларининг билим кўникма, малака ҳамда муайян ахлоқий сифатларини ўзлаштириш йўлида биргаликда, ўзаро ҳамкорликка асосланган ҳаракатни ташкил этиш лаёқатига эгаликларидир [1-6].

"Қизил ва яшил рангли карточкалар билан ишлаш" методи. Таҳсил олувчилар билан оммавий ва гуруҳ шаклида ишлашда ушбу методни қўллаш ниҳоятда қулай. Методдан машғулотлар сўнгида мавзунини мустақамлашга оид тезкор савол-жавобни ташкил этишда фойдаланиш мумкин. Метод қуйидаги ҳаракатларни ташкил этиш асосида қўлланилади:

- ўқитувчи томонидан синф таҳсил олувчиларининг сонига кўра ҳар бир таҳсил олувчи учун қизил ва яшил рангли карточкалар ҳамда мавзуга оид саволнома тайёрланади;

- саволномадан "ҳа" ёки "йўқ" тарзида жавоб бериш мумкин бўлган саволларнинг



ўрин олишига аҳамият қаратилади;

- ҳар бир таҳсил олувчига қизил ва яшил карточкалар тарқатилади;
- таҳсил олувчиларга яшил рангли карточкаларнинг "тасдиқ", қизил рангли карточкаларнинг "инкор" маъносини англантиши уқтириб ўтилади;
- таҳсил олувчилар ўқитувчи томонидан берилган саволларга "тасдиқ" ёки "инкор" маъноларини англлатувчи карточкаларни кўрсатиш асосида жавоб қайтарадилар.

Формулаларнинг нормал шакллари мавзуси бўйича ташкил этилган машғулот жараёнида "Қизил ва яшил рангли карточкалар билан ишлаш" методини қўллашда таҳсил олувчиларга қўйидаги саволларни слайдлардан фойдаланиб бериш мумкин:

1. Мантиқ алгебрасининг контакт ва реле-контактли схемалар, дискрет техникадаги татбиқларида ва математик мантиқнинг бошқа масалаларида формулаларнинг нормал шакллари катта аҳамиятга эга. (яшил)

1. $x_1^{\sigma_1} \vee x_2^{\sigma_2} \vee \dots \vee x_n^{\sigma_n}$ кўринишдаги формулага элементар дизъюнкция деб из. (яшил)

2. КНШга $x y \vee \bar{x} z \vee x \bar{y} z$ мисол бўла олади. (қизил)

3. $(x \vee y) \wedge (\bar{x} \vee z) \wedge (x \vee \bar{y} \vee z)$ формула ДНШга мисол бўла олади. (қизил)

4. Элементар мулоҳазаларнинг ҳар бир P формуласига тенгкучли конъюнктив ал шаклдаги Q формула мавжуд. (яшил)

5. Элементар дизъюнкцияларнинг конъюнкциясига формуланинг конъюнктив ал шакли деб айтилади. (яшил)

6. Элементар конъюнкцияларнинг дизъюнкциясига формуланинг дизъюнктив ал шакли деб айтилади. (яшил)

7. $x_1^{\sigma_1} \cdot x_2^{\sigma_2} \cdot \dots \cdot x_n^{\sigma_n}$ кўринишдаги формулага элементар конъюнкция деб айтамыз. п)

8. (ёлғонлик аломати) P формула доимо чин бўлиши учун унинг КНШ даги ҳар элементар дизъюнктив ҳадида камида битта элементар мулоҳаза билан бирга бу қазанинг инкори ҳам мавжуд бўлиши зарур ва етарли. (қизил)

9. (чинлик аломати) P формула айнан ёлғон бўлиши учун, унинг дизъюнктив ал шаклидаги ҳар бир элементар конъюнкция ифодасида камида битта элементар қаза билан бирга бу мулоҳазанинг инкори ҳам мавжуд бўлиши зарур ва етарли. (қизил)

Бу методни ҳар бир маърузанинг охирида ёки амалий машғулотнинг бошида ўтказиш мақсадга мувофиқ бўларди.

"Қизил ва яшил рангли карточкалар билан ишлаш" методи афзаллик томонлари: биринчидан, талабаларнинг барчаси сўровномада қатнашади. Иккинчидан, мавзуни талабалар тамонидан ўзлаштириш даражасини аниқлаш мумкин. Учинчидан, қайси саволга талабалар нотўғри жавоб беришганини кузатиб, мавзунинг тушунмаган қисмларини яна кенгроқ тушунтириш мумкин.

Бугунги кун ўқитувчиси ХХІ аср қиёфасини ўзида тўла шакллантирган, ўз соҳаси эмас, балки фанлараро боғланишни таъминлаш учун бутун бир соҳанинг билимдон эгаси, нутқи равон, изчил, гўзал адабий тилда сўзловчи, сўзи билан амали бир, жамиятда баркамол, эътиқоди бут, маънавий мафкураси, фикри ва зикри соғлом, баркамол фарзандларни тарбияловчи мукамал инсон бўлмоғи лозим.

Шунингдек, илғор педагогик технология асосида ташкил этилган дарслар ўқувчиларни билимларининг яхлит ўзлаштирилишига ёрдам беради. Ўқувчи тафаккурини ўстиради, мустақил, ижодий фикрлашга ўргатади. Зеро, баркамол



авлод тарбияси жамият маданий-маърифий тараққиётининг, миллат маънавий камолотининг муҳим белгисидир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Умарова У.У. Роль современных интерактивных методов в обучении темы "Множество и операции над ними". Вестник науки и образования 94:2020. № 16. часть 2, С. 21-24.

2. Умарова У.У. Применение триз технологии к теме "Нормальные формы для формул алгебры высказываний". Наука, техника и образование. 72:8 (2020) С. 32-35.

3. Umarova U.U., Beshimova D.R. Hyperspace and cs-network. Journal of Global Research in Mathematical Archives. №6 (2019), pp. 28-30.

4. Меражова Ш.Б., Умарова У.У. Аппроксимация первой краевой задачи разностной моделью для уравнения смешанного типа. "Молодой учёный", 2017, С. 10-12.

5. Умарова У.У. Аналог системы интегральных уравнений Фаддеева для трехчастичного модельного оператора. Учёные XXI века. 40:5-3 (2018), С. 14-15.

6. Умарова У.У. Обычные и квадратичные числовые образы 2×2 -матриц. Оператора. Учёные XXI века. 53:6-1 (2019), С. 25-26.



"МУЛОҲАЗАЛАР АЛГЕБРАСИ ФОРМУЛАЛАРИ" МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ "ФОРМУЛЫ АЛГЕБРЫ ВЫСКАЗЫВАНИЙ"

USE OF GAME TECHNOLOGIES WHEN LEARNING THE TOPIC "FORMULAS OF THE ALGEBRA OF STATEMENTS"

Умарова Умида Умаровна

Бухоро давлат университети Математика кафедраси катта ўқитувчиси
e-mail: umida.umarova.2019@mail.ru

Нуриддинова Ферангиз Шамсиддин қизи

Бухоро давлат университети математика таълим йўналиши
2-босқич талабаси.

Аннотация: Ушбу мақолада "Мулоҳазалар алгебраси формуллари" мавзусини ўқитишда педагогик ишбилармонлик ўйини технологиясидан фойдаланилган. Педагогик ишбилармонлик ўйини технологияси талабанинг фаоллигини таъминловчи, ўқитиш технологияларидан бири ҳисобланилиб, ўйин фаолиятига қизиқиш, талабалар ўз-ўзини ифода этиш, рўёбга чиқариш каби эҳтиёжларини қондириш мақсадида, мусобақалашуш элементи орқали ташкил қилинган. Жараёни ўрганишда талабаларнинг ўзлари қатнашганликлари туфайли мавзу хотираларида узоқ сақланиб, фаол билим захирасини ташкил этиши ҳақида айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ишбилармонлик ўйини технологияси, мулоҳазалар алгебраси формуллари, талаба, фаоллик, кўникма, метод, ўқитиш технологияси.

Ҳозирги пайтда тайёр билимни ўзлаштириш асосий мақсад бўлмай, балки энг асосийси, талаба-ёшларимизнинг интеллектуал қобилиятларини ривожлантириш, мустақил танлаш ва қарор қабул қилиш кўникмасини ҳосил қилиш объектив заруратга айланди. Бу мақсадни амалга ошириш эса, кўп жиҳатдан дарс ўтиш методларини танлашга боғлиқ. Ҳар қандай фанни ўрганишда турли методлар қўлланилади. Бунинг сабаби, биринчидан дарс ўтишда турли услубларни қўллаш уни қизиқарли бўлишига, талабалар диққатини ўтилаётган дарсни ўзлаштиришга қаратилди. Иккинчидан, талабаларнинг дарсни ўзлаштириш, билимни қабул қилиш қобилиятлари ҳар хил бўлиб, турли услубларни қўллашга ўтилаётган мавзунини талабалар томонидан нисбатан тўлиқ ўзлаштиришга олиб келади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, билимни ўзлаштириш жараёнида мавзунини тезроқ англашга бир хил талабаларга бир услуб ёрдам берса, иккинчиларига бошқа услуб ёрдам беради. Учинчидан, дарс ўтиш методлари талабалар фикрлаш доирасини шакллантиришга ёрдам беради. Шунинг учун ҳам, барча педагоглар талабаларга билим беришнинг энг самарали йўли, дарс ўтишга турли методларни қўллаш зарур

Талабанинг фаоллиги, мақсадли йўналтирилган бошқарувчи педагогик таъсирлар ва педагогик муҳитнинг ташкил этилиши натижасидир. Талабанинг фаоллигини таъминловчи, ўқитиш технологияларидан бири - педагогик ишбилармонлик ўйини ҳисобланади. Ўйин фаолиятига қизиқиш, талабаларнинг ўз-ўзини ифода этиш, рўёбга чиқариш каби эҳтиёжларини қондирувчи, мусобақалашуш элементи орқали таъминланади. Ўйинлар инсон ўзини ҳаётда намоён қилиши, ўз ўрнини топиши, ўз-ўзини бошқаришнинг фундаментал



эҳтиёжларига таянади. Ишбилармонлик ўйинларни дарс ўтиш методи тариқасида борган сари кенгроқ қўлланилишига асосий сабабларидан бири унинг қадимдан инсонга турли-туман билим, кўникма, маҳоратни ҳосил бўлиши ва унинг хотирасида сақланиш шакли сифатида қўлланилиб келишидир.

Мулоҳазалар алгебраси формуллари мавзусида қўлланилиши мумкин бўлган ўйинлар: Гуруҳдаги талабалар қаторлар бўйича гуруҳларга ажратилади (1-қатор, 2-қатор, 3-қатор). Берилган вазифани ҳар бир қатордан кетма-кет, навбат билан талабалар чиқиб бажаришади.

1-ўйин: Берилган символлар кетма-кетлигига турли усуллар билан қавсларни жойлаштириб, формулалар ҳосил қилинг (содалик учун ташқи қавсларни ташлаб юбориш мумкин):

$$1) \neg P \leftrightarrow \neg Q \vee R \wedge Q; \quad 2) \neg P \wedge Q \rightarrow \neg P \vee R; \quad 3) P \vee Q \wedge \neg R \wedge P \vee R.$$

1-қаторнинг натижаси:

$(\neg P \leftrightarrow \neg Q) \vee (R \wedge Q);$	$\neg P \leftrightarrow \neg(Q \vee (R \wedge Q));$
$(\neg P \leftrightarrow (\neg Q \vee R)) \wedge Q;$	$\neg P \leftrightarrow (\neg Q \vee (R \wedge Q));$
$\neg(P \leftrightarrow (\neg Q \vee R)) \wedge Q;$	$\neg P \leftrightarrow \neg((Q \vee R) \wedge Q);$
$(\neg P \leftrightarrow \neg(Q \vee R)) \wedge Q;$	$\neg P \leftrightarrow ((\neg Q \vee R) \wedge Q);$
$\neg(P \leftrightarrow \neg(Q \vee R)) \wedge Q;$	$\neg(P \leftrightarrow (\neg Q \vee R) \wedge Q);$
$\neg((P \leftrightarrow \neg Q) \vee R) \wedge Q;$	$\neg(P \leftrightarrow ((\neg Q \vee R) \wedge Q));$
$(\neg(P \leftrightarrow \neg Q) \vee R) \wedge Q;$	$\neg((P \leftrightarrow (\neg Q \vee R)) \wedge Q);$
$\neg(P \leftrightarrow \neg(Q \vee (R \wedge Q)));$	$\neg P \leftrightarrow (\neg(Q \vee R) \wedge Q);$
$\neg(P \leftrightarrow (\neg Q \vee (R \wedge Q))).$	

Берилган вақт тугагач ўйин тўхтатилади, ёзилган формулалар саналади ва нотўғри ганлари олиб ташланади.

2-ўйин: Берилган формулаларнинг барча қисм формулаларини ёзинг:

- $((P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)) \vee (P \wedge Q)) \rightarrow (P \vee (\neg Q \wedge R))$
- $\neg(P \vee Q) \wedge ((\neg P \leftrightarrow Q) \rightarrow (P \vee Q))$
- $((P \vee Q) \rightarrow (R \rightarrow \neg P)) \rightarrow (\neg R \rightarrow \neg Q)$

1-қаторнинг натижаси:

$((P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)) \vee (P \wedge Q)) \rightarrow (P \vee (\neg Q \wedge R))$ формуланинг барча қисм уларини топиш учун қуйидагича тартибланиши керак:

- P, Q, R - пропозиционал ўзгарувчилар;
- $\neg R, (P \wedge Q), \neg Q$ - бирга мантиқий боғловчи (амал) ёрдамида боғланган улалар;
- $(Q \wedge \neg R), (\neg Q \wedge R)$ - иккита мантиқий боғловчи ёрдамида боғланган улалар;
- $(P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)), (P \vee (\neg Q \wedge R))$ - учта мантиқий боғловчи ёрдамида нган формулалар; Тўрта мантиқий боғловчи ёрдамида боғланган формула йўқ;
- $(P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)) \vee (P \wedge Q)$ - бешта мантиқий боғловчи ёрдамида боғланган улалар;
- ниҳоят формуланинг ўзи - $((P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)) \vee (P \wedge Q)) \rightarrow (P \vee (\neg Q \wedge R))$.

Шундай қилиб, формуланинг 12 та қисм формуласи мавжуд экан.

Текшириш тез амалга ошиши учун қисм формулалар сонини топишда дагидан фойдаланамиз: берилган формулада қатнашган пропозиционал увчилар сонига формуладаги барча амаллар сонини қўшиш керак, яъни- 3 та P, Q, R - пропозиционал ўзгарувчи ва 9 та амал

$$((P \leftrightarrow (Q \wedge \neg R)) \vee (P \wedge Q)) \rightarrow (P \vee (\neg Q \wedge R))$$



ҳақиқатдан ҳам формуланинг 12 та қисм формуласи мавжуд. Биринчи ёзиб тугатган гуруҳ инobatга олинади, қисм формулалар сони аниқланади ва текширилади. Барча талабалар баҳоланади.

Ўйинли методлардан фойдаланиш натижасида биринчидан, энг суст ўзлаштирувчи талабаларни ҳам дарсда фаол қатнашишлари таъминланади. Иккинчидан, талабалар у ёки бу тушунчани, жараёни ўрганишда ўзлари қатнашганликлари туфайли у хотираларида узоқ сақланиб, фаол билим захирасини ташкил этади. Билим ва малака ўқиш, фаолият юритиш жараёнида шаклланади. Бирор малакани эгаллаш учун унга оид фаолиятни кўп марта такрорлаш, машқ қилиш, мунтазам амалга ошириш зарур. Ана шу жараён натижасида талабаларда ўқув, кўникма шаклланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Умарова У.У. Роль современных интерактивных методов в обучении темы "Множество и операции над ними". Вестник науки и образования 94:2020. № 16. часть 2, С. 21-24.

2. Умарова У.У. Применение триз технологии к теме "Нормальные формы для формул алгебры высказываний". Наука, техника и образование. 72:8 (2020) С. 32-35.

